



ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI



Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI

О'қув қo'лланма

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

Bilim sohasi – 100000-Gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi –110000- Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi – 5111800 – Maktabgacha ta'lim

BUXORO – 2024
«DURDONA» nashriyoti

74.100+83.3(5O')ya73

373.2:811.1512.133(075.8)

Sh 26

Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna

Ona tili va bolalar adabiyoti [Matn] : o'quv qo'llanma / Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2024. – 176 b.

UO'K 373.2:811.1512.133(075.8)

KBK 74.100+83.3(5O')ya73

MA'SUL MUHARRIR:

D.S.O'rayeva

– BuxDU filologiya fanlari doktori, professor

TAQRIZCHILAR:

S.S.Avezov

– BuxDU Pedagogika instituti filologiya fanlari nomzodi, dotsent .

Sh.Sh.Nizomova

– filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil "6" noyabrdagi 491-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-04-261-4

© Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna

ANNOTATSIYA

Ona tili va bolalar adabiyoti moduli shaxsda nutqiy ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim-pedagogikasi kasbiga doir bilim, ko'nikma, malakalarni, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu o'quv qo'llanmada "Ona tili va bolalar adabiyoti" modulining ona tili bo'limining muammolari, predmeti, maqsadi va vazifalari va tadqiqot metodlari va maktabgacha ta'limda ona tili va bolalar adabiyoti nazariyasi va tarixi shakllantirilgan. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda sifatli ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tili va bolalar adabiyoti fanining o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi va fan rivojiga doir masalalar "Ona tili va bolalar adabiyoti" darsligida o'z aksini topgan.

АННОТАЦИЯ

Модуль родного языка и детской литературы служит для обогащения знаний, навыков, умений, существующих понятий и представлений о профессии дошкольного воспитания и педагогики в процессе речевого воспитания. В данном учебнике сформированы основная проблема, предмет, цель и задачи модуля «Родной язык и детская литература», а также методы исследования, теория и история педагогики дошкольного образования. Основной задачей дошкольного образования является подготовка детей к качественному обучению в школе. В дошкольном образовании от детей требуется не только приобретение конкретных знаний, но и приобретение навыков мышления, понимания речи сверстников и взрослых, свободного обмена с ними идеями, работы на основе сотрудничества. Детям необходимо образно и логично мыслить на родном языке, правильно выражать свои мысли через речь, владеть собой, контролировать себя, наблюдать, слышать, запоминать, обобщать, сравнивать. Конечно, велика роль и значение науки о родном языке и детской литературе в решении этой задачи. Поскольку язык является средством общения между людьми, он одинаково служит всем людям, поэтому язык является социальным явлением, изменения и обновления в развитии общества отражены в учебнике «Язык и детская литература».

ANNOTATION

The module of theory and technology of speech education of children serves to enrich a person's knowledge, skills, and ideas about the profession of preschool - pedagogical education of speech. The textbook formulates the main problem, subject, purpose, objectives and research methods of the module "Theory and technology of speech development of children " as well as the theory and history of pedagogy of preschool education. The main task of preschool education is to prepare children for school. Children of preschool education should gain not only specific knowledge, but also thinking skills, understand the speech of peers and adults, freely exchange ideas with them, and carry out activities on the basis of cooperation. It is necessary that children think logically in their native language, correctly express their ideas through speech, control themselves, have such mental training as observation, hearing, memorization, generalization, comparison. In performing this task the importance of the science of speech development in the native language certainly plays a great role. Because language is a means of communication between people and a social phenomenon, it serves all people equally and changes, updates in the development of society are reflected in language. The issues of science development are reflected in the textbook "Theory and technology of children's speech development".

KIRISH

“Ona tili va bolalar adabiyoti” moduli asosida tuzilgan ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi uchun Umumkasbiy modullar blogining davlat ta’lim standarti asosida tuzilgan. qilmoqda.

“Ona tili va bolalar adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanma ona tili qismini o‘z ichiga olgan bo‘lib, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari kunduzgi, sirtqi, kechki yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Unda ona tili ta’limi, ta’limning barcha bosqichlarida ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir. Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o‘zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog‘langan holda tashkil etish, o‘quv jarayonining mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. Ona tili kommunikativ kompetensiyasi – ona tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash yuzasidan tushuncha berish ko‘zda tutiladi. Ona tili va bolalar adabiyoti bolalarga mo‘ljallangan so‘z san‘atining maxsus turi haqidagi fan bo‘lib, umumadabiyot qonuniyatiga bo‘ysunishi, tarixiy taraqqiyotni shakllanish tarixi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ijtimoiy mohiyati, yetakchi tamoyillari, ilmiy-nazariy qimmat haqida bilim berish rejalashtirilgan.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim o‘qituvchilarini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida nazariy va amaliy asoslari hamda maktabgacha ta’lim mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni (23.09.2020) da belgilangan talablar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik – didaktik yondashuvdan samarali foydalanish, real maktabgacha ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va pedagogik texnikani namoyon eta olishga o‘rgatish. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlari ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish mamlakatda amalga oshirilayotgan pedagogik ta’lim islohotlarining

asosiy maqsadi kuchli raqobatbardosh pedagogik mutaxassis kadrlarni tayyorlash – deb aytgan, fikrlari xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlarini salohiyatli maktabgacha ta’lim mutaxassislarni tayyorlashning yangi tizimini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim jarayonini rivojlantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish, maktabgacha ta’lim sohasida pedagogik kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya’ni, bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tili va bolalar adabiyoti fanining o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar tilda o‘z aksini topadi.

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya’ni har bir inson o‘z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalari fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Nutq tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi fikr mulohazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’limda “Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining o‘qitilishi, ona tilini o‘qitish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar adabiyotining vazifalarini to‘g‘ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta’minlaydi. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tili qadimiy til sifatida taraqqiy etgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat a’zolari uchun xizmat qiladi.

1-Mavzu: Umumiy tilshunoslik haqida ma'lumot

Reja:

1. Tilshunoslik fani haqida.
2. Tilning tabiati va vazifalari.
3. Til va jamiyat.
4. Til va tafakkur.
5. Til – ramziy tizim.

Tayanch tushunchalar: *Tilshunoslik fani yoki lingvistika, tilning ijtimoiy mohiyati, tilning tuzilishi, milliy til, adabiy til, tillarning geneologik tasnifi.*

Tilshunoslik fani kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga kiradi. “Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan”. Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan uzviy bog‘liq. Tilshunoslik – ko‘p qirrali fan. U fan sifatida umumiy va xususiy, nazariy va amaliy tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi. Umumiy tilshunoslikning maqsadi:

- 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash;
 - 2) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o‘rganuvchi sohalarni belgilash;
 - 3) tillarning tasnifini yaratish;
 - 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.
- Xususiy tilshunoslik** – alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, o‘zbek tilshunosligi - o‘zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi - qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi – rus tili haqidagi fan va h.k. O‘z-o‘zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma’lum bir konkret tilga xos bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani o'rgansa, **amaliy tilshunoslik** lingvistik bilimlarni amalda qo'llash bilan shug'ullanadi.

Til ijtimoiy hodisadir -Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi. Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida birlashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 80-90-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ldi. Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989- yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu Qonunning qabul qilinishi istiqlool tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Tilning tuzilishi. Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko'rsatkichlarni shakllantiradi. Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning lug'at

boyiligini tashkil qiladi. Lugʻat boyligidagi soʻz va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali boʻlib xizmat qiladi. Gap uni qurish qonun-qoidalarini tilning grammatik qurilishi belgilaydi. Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lugʻat boyligi, grammatik qurilishi oʻzaro chambarchas bogʻlangan boʻlib, biri ikkinchisining boʻlishini talab qiladi. Har bir konkret til oʻzining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi.

Til toʻxtovsiz ravishda oʻzgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bogʻliq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lugʻat boyligida oʻz aksini topadi. Kishilar hayotidagi oʻzgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan oʻzgaradi. Buni til tarixini oʻrganish orqaligina sezish mumkin.

Oʻzbek tili - oʻzbek millatining tili, oʻzbek tili - Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida oʻzbek adabiy tilining mavqei beqiyos darajada oʻsdi, xizmat doirasi kengaydi, lugʻat tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta oʻzgarishlar yuz berdi.

Oʻzbek milliy tili hozirgi oʻzbek millatiga mansub boʻlgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U oʻzbek millatining shakllanishi bilan bevosita bogʻliq. Oʻzbek millati shakllangunga qadar u urugʻ tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi. Oʻzbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lugʻat tarkibida jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan soʻzlar va boshqa tillardan qabul qilingan soʻzlar hisobiga boyib borishi koʻzga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xoʻjaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi koʻpgina oʻzgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi oʻzbek tili leksikasining koʻpgina yangi soʻzlar hisobiga hamda boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar hisobiga boyishiga sabab boʻldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h.k. Ayrim oʻzbekcha soʻzlarning maʼnosida oʻzgarishlar roʻy berib, ular boshqa maʼnolarda qoʻllana boshladi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* soʻzlari ilgari sifat turkumiga

mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi. O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi. Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan so'z birikmalari ko'proq qo'llana boshladi. O'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Milliy til va uning tarkibiy qismlari:

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi. Qayerda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) o'zbek** tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi bir guruh so'zlarni qamrab oladi. Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiy qilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi.

Milliy til millat uchun umumiy bo'lgan tildir. Milliy til tushunchasi juda keng bo'lib, u mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni o'z ichiga oladi. **Sheva** bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan

quyidagi xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi:

1. Fonetik (ya’ni tovush) jihatdan: *yo‘q – jo‘q, keldi – geldi, bahor – bohor.*

2. Leksik (ya’ni so‘z) jihatdan: *ota - ada, chumchuq – secha, sigir – inak.*

3. Grammatik (ya’ni, qo‘shimchalar va gap qurilishi) jihatdan: *kelyapti (ad.) – kevotti – kelopti – kelutti.*

Xalq shevalarining faqat **og‘zaki** shakli mavjud.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo‘lgan guruhleri **lahja** deb ataladi (**dialekt** so‘zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.). Jumladan, o‘zbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).

2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g‘arbiy guruh).

3. O‘g‘uz lahjasi (shimoliy-g‘arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o‘z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) so‘z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *elk - ely, terak - teray*

2) **o** lashish yuz beradi: *aka - oka, nahor – nohor.*

3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qo‘shimchasi yo‘q bo‘lib, uning o‘rniga ham tushum kelishigi qo‘shimchasi **-ni** ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari.*

Qipchoq lahjasi shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

1) **y** o‘rnida **j** ishlatiladi: *yo‘l - jo‘l, yo‘q - jo‘q.*

2) **g‘** o‘rnida **v** ishlatiladi: *togg‘ - tov, sogg‘ - sov va b.*

3) soʻz oxirida **k, q** tovushlari tushiriladi: *quru(q), sari(q)*.

Oʻgʻuz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qoʻshkoʻpir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni oʻz ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va choʻziq aytiladi: *at (hayvon), aad (ism)*.

2) **t** tovushi **d, k** esa **g** tarzida aytiladi: *togʻ - dogʻ, keldi - galdi*.

3) **-ning** qoʻshimchasi **-ing** tarzida, **-ga** qoʻshimchasi esa **-a, -na** tarzida aytiladi: *yorimga – yorima, alina (qoʻliga)*.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Fargʻona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Fargʻona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos boʻlgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi. Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo boʻlsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud boʻlganda ham yuzaga keladi. Milliy tilning maʼlum qoidalarga boʻysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, sanʼatkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli boʻlishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli boʻlish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab boʻlgan. Milliy oʻzbek tilida shevalarning koʻpligi adabiy tilga boʻlgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam boʻlgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yoʻq. Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish koʻradi. Adabiy tilning **ogʻzaki** va **yozma** shakllari mavjud. Adabiy tilning ogʻzaki shakli nisbatan qadimiy boʻlib, u nutq tovushlari, urgʻu, intonatsiya (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va meʼyorlarni orfoepiya belgilab beradi. Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi.

Yozuvga doir qoida va me'yorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

Tillarning tasnifi Olimlarning taxmin qilishlaricha, yer yuzida 5000 dan ortiq (ba'zi manbalarda 7000) til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko'ra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Jahon tillarining ko'pchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urug' tillari hisoblanadi.

Milliy til o'zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta hududlardagi ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi. Yer yuzidagi tillarni o'rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi; bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rganiladi. Shuning uchun ham o'rganishning bu yo'li qiyosiy-tarixiy usul deb yuritiladi. Tillarni shu yo'l bilan o'rgangan va o'zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Raskni (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Yakob Grimmni (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokovni (1781-1864) ko'rsatish lozim.

Tilshunoslikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning geneologik tasnifi; 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi; 4) tillarning funktsional tasnifi.

Tillarning geneologik tasnifi

Geneologik tasnif tilshunoslikda tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi tovushlar, o'zak va qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib guruhlariga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi. Tilshunoslik tomonidan tekshirib aniqlangan til oilalari quyidagilardan iborat: 1) hind-evropa tillari; 2) semit tillar; 3) xamit tillar; 4) dravid tillari; 5) ugor-fin tillari; 6) xitoy-tibet tillari; 7) iberiy-kavkaz tillari; 8) oltoy tillari; 9) avstroneziya tillari; 10) yapon tili; 11) koreys tili va boshqalar.

Bular o'z navbatida yana shaxobchalarga bo'linadi.

Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish hind-evropa tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga ajratiladi:

1. Hind tillari. 2. Eron tillari. 3. German tillari. 4. Roman tillari. 5. Slavyan tillari. 6. Kelt tillari. 7. Boltiq tillari. 8. Grek tili. 9. Alban tili. 10. Arman tili.

1. Hind tillariga qadimiy hind, yoki sanskrit tili (o'lik til), o'rta hind tili, hozirgi hind tillari (panjob tili, gujarat tili, bengal tili) kiradi.

2. Eron tillariga tojik tili, afg'on (yoki pushtu) tili, osetin tili, kurd tili, so'g'd tili (o'lik til), qadimgi fors tili, o'rta fors (yoki pahlaviy) tili, yangi fors tili kiradi.

3. German tillariga got tili (o'lik til), shved, daniya, norveg, island tillari (shimoliy german tillari), ingliz, nemis, golland, flamand, friz tillari (g'arbiy german tillari) kiradi.

4. Roman tillariga italyan, fransuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, katalan, sardiniya tillari kiradi. Roman tillari tarixan lotin tilidan kelib chiqqan. Bundan ikki ming yilcha oldin jonli til bo'lgan lotin tili hozir o'lik tilga aylangan.

5. Slavyan tillariga rus, belorus, ukrain tillari (sharqiy slavyan tillari), polyak, slovak, chex, lujik tillari (gʻarbiy slavyan tillari), bolgar, makedon, serb, xorvat, sloven tillari (janubiy slavyan tillari) kiradi.

6. Kelt tillariga irland, shotland, ueylz, breton tillari kiradi.

7. Boltiq tillariga qadimgi prus tili (oʻlik til), litva tili, latish tili, latgal tili kiradi.

Grek, alban, arman tillari biror guruhga kiritilmaydi, ularning har biri yakka-yakka holda olinadi.

Oʻzbek tili oltoy tillar oilasiga mansub boʻlib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga boʻlinadi:

1. Turkiy tillar. 2. Moʻgʻul tillari. 3. Tungus-manchjur tillari.

Turkiy tillar oltoy tillar oilasining koʻp sonli va rang-barang guruhidir. Turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi: 1) gʻarbiy turkiy tillari; 2) sharqiy turkiy tillari.

Gʻarbiy turkiy tillari tarmogʻi oʻz navbatida yana toʻrt guruhga boʻlinadi: a) bulgʻor tillari (chuvash tili), b) oʻgʻuz tillari (gagauz, turkman, turk, ozarbayjon tillari), v) qipchoq tillari (tatar, boshqird, qumiq, noʻgʻay, qoraqalpoq, qozoq tillari), g) qorluq tillari (oʻzbek, uygʻur tillari).

Sharqiy turkiy tillari tarmogʻi ikki guruhga boʻlinadi: a) uygʻur-toʻkyuy tillari (tuva, yoqut, shor, xakas tillari), b) qirgʻiz-qipchoq tillari (qirgʻiz, oltoy tillari).

Moʻgʻul tillariga moʻgʻul, buryat, qalmiq tillari (shimoliy moʻgʻul tillari guruhi), dagur, dunsyan, mengir tillari (janubiy-sharqiy moʻgʻul tillari guruhi) kiradi.

Tungus-manchjur tillariga evenk, even, negidal tillari (tungus guruhi) va manchjur, nanay, udegey, ulch, orochoch tillari (manchjur guruhi) kiradi.

Tillarning morfologik tasnifi

Jahon tillarining morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tizim tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif soʻzning tuzilishidagi oʻzak va qoʻshimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyishga asoslanadi.

Bu tasnifga koʻra tillarning qarindoshligidan qatʼi nazar, soʻzlarning tuzilish turi asos qilib olinadi.

Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari toʻrt guruhga boʻlinadi:

1) amorf (soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchasiz) tillar; 2) agglyutinatив tillar; 3) flektiv tillar ; 4)polisintetik tillar.

Amorf tillarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi soʻzlar hech qanday soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarsiz, toʻgʻridan-toʻgʻri birikib, bogʻlanib keladi. Bunday tillarda grammatik maʼno yordamchi soʻzlar, soʻz tarkibi, muzikal urgʻu va intonatsiya (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni oʻrnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga xitoy, tibet, birma, vietnam va xitoy-tibet oilasiga mansub boʻlgan boshqa tillar misol boʻla oladi.

Agglyutinatив tillarda har bir grammatik maʼno odatda alohida affiks bilan, maʼlum bir grammatik koʻrsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *maktablarga* soʻz shakli tarkibidagi *-lar* qoʻshimchasi koʻplik koʻrsatkichi, *-ga* affiksi joʻnalish kelishigi koʻrsatkichidir. *Bormadilar* soʻz shakli *bor* - oʻzak, *-ma* – boʻlishsizlik shaklini yasovchi affiks, *-di* – yaqin oʻtgan zamon shaklini yasovchi affiks, *-lar* – III shaxs koʻplikni ifodalovchi affiksdan iborat. Bunda biror affiks oʻzakka yoki maʼlum bir affiksga qoʻshiladi. Agglyutinatив tillarga turkiy tillar, shu jumladan, oʻzbek tili, fin-ugor tillari, dravig, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik maʼno odatda birgina grammatik

ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, *kniga* so'z shakli tarkibidagi *-a* affiksi (tugallanmasi) uch grammatik ma'noni: 1) jinsni (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (imenitelnyy padej), 3) birlik sonni (edinstvennoe chislo) bildirib kelgan; *uchu* so'z shakli tarkibidagi *-u* affiksi ham uch grammatik ma'noni: 1) aniqlik, xabar maylini; 2) hozirgi zamonni; 3) 3-shaxs birlikni ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

Flektiv tillardagi bunday grammatik ko'rsatkich, tugallanma **fleksiya** deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil bo'ladi: **tashqi fleksiya** va **ichki fleksiya**.

Tashqi fleksiya so'z oxiriga qo'shilib kelsa, ichki fleksiya so'zning o'zagida bo'ladi. Fleksiyaning ikkala turi ham so'zni grammatik jihatdan o'zgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga rus tili misol bo'la oladi: *zeml-ya*, *vod-a*, *pol-e*, *oblak-o*, *lyud-i*, *voln-i* so'zlari oxiridagi unlilar, tugallanmalar so'zning grammatik ma'nosini ko'rsatib turadi.

So'z o'zagi ichidagi tovushni, unli tovushni o'zgartirish yo'li bilan grammatik ma'noni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha *o'oman* (ayol) so'z shakli tarkibidagi *a* unlisi birlik sonni, *o'omen* (ayollar) so'z shaklidagi *e* unlisi ko'plik sonni ko'rsatuvchi fleksiyadir.

Flektiv tillarga hind-evropa, semit, xamit tillari kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga chukot tili kiradi.

O'zbek tili davlat tili. Uning tarixiy ildizlari va taraqqiyoti.

O'zbek tili XI-XIII asrlar oralig'ida shakllangan o'zbek xalqining milliy tili bo'lib, dastlabki davrlarda turkiy til, chig'atoy tili nomlari bilan yuritilgan. Asrlar davomida o'zbek tili arab, fors, rus tillari ta'sirida bo'lib kelgan. Shunday bo'lsa-da, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Fitrat, A.Qodiriy, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek kabi shoir va yozuvchilar bu tilning taraqqiy qilishida fidokorona kurash olib borishgan. Ayniqsa, o'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o'zbek

tilining barcha jabhalarda qo'llanilishi uchun, mustaqil tarzda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Davlat tili haqidagi qonun (1989 y. 21- oktyabr)ning qabul qilinishi va qayta tahrir qilinishi (1995 y.) hamda uning amaliyotga tadbiiq etilishi uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar til uslublarining mukammal shaklga kelishini ta'minlamoqda. Bugungi kunda o'zbek tili 20 mln.ga yaqinlab qolgan o'zbeklarning ona tili hisoblanadi.

O'zbek tilining kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari

O'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga kiradi. Dunyoda 30 ga yaqin turkiy til bor: o'zbek, turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, uyg'ur, boshqird, qoraqalpoq, tatar, chuvash, yoqut, qorachoy, balqar, no'g'oy, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz va b.

O'zbek tili taraqqiyoti bir qancha bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1.Eng qadimgi turkiy til (Eramizning V asrigacha) Bu davrdan hech qanday yozma yodgorlik yetib kelmagan. Biroq V asrgacha turkiy xalqlarning Eng dastlabki yozuvlari hisoblangan So'g'd, xorazm yozuvlari iste'molda bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Eng qadimgi turkiy til barcha turkiy tillar uchun umumiy bobo til hisoblanadi.

2.Qadimgi turkiy til (VI - X asrlar). Mazkur davrga oid yozma yodgorliklar o'rxun (turkiy run) va uyg'ur yozuvlarida bitilgan. O'rxun yozuvida *Kul tigin*, *Bilga hoqon*, *Tonyuquq* yodgorliklari bizgacha yetib kelgan..

3.Eski turkiy til (XI-XIII asrlar oralig'i). Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» (turkiy So'zlar devoni), Ahmad YUg'nakiyning «Hibbatul haqoyiq» (haqiqatlar tuhfasi), YUsof Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» (baxt va saodatga Eltuvchi bilim) asarlari Eski turkiy til davrida bitilgan.

4.Eski o'zbek tili (XIV-XVIII asrlar oraliGi). Bu davrning o'ziga xos xususiyati o'zbek tilining alohida xalq tili bo'lib shakllanishidir. Biroq yangi shakllangan

til «*turkiy til*» atamasi bilan yuritilgan, «*O‘zbek tili*» atamasi esa nisbatan keyinroq iste’molga kiritilgan. Turkiy (o‘zbek) tilining shakllanishi va taraqqiy qilishida Alisher Navoiyning xizmatlari benihoya buyukdir. Navoiy «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida turkiy til imkoniyatlarini forsiy til imkoniyatlari bilan solishtirib, uning forsiy tildan ustun ekanligini nazariy jihatdan asoslab bergan. «Xamsa» va «Chor devon»i bilan esa ona tilining amaliy imkoniyatlarini namoyish qilgan. Shuningdek, A.Navoiy yirik davlat arbobi sifatida turkiy tilni huquqiy tomondan ham muhofaza qilib borgan.

5.Yangi o‘zbek adabiy tili (XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlari). Turkistonda matbuotning vujudga kelishi bilan o‘zbek matbuot tili shakllandi. O‘zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo‘lishi til taraqqiyotida yangi bir bosqichni boshlab berdi. Bu davr tili hozirgi o‘zbek adabiy tiliga zamin hozirladi.

6.Hozirgi o‘zbek adabiy tili (XX asrning 20-yillaridan boshlab hozirgi kungacha). XX asr boshlariga kelib jadidchilik oqimi vakillari o‘zbek milliy tilining taraqqiyoti uchun kurash olib bordilar. Ularning sa’yi harakatlari bilan o‘zbek milliy alifbosi qabul qilindi. Yuqori tabaqalar tilida va badiiy adabiyotda keng tarqalgan Ko‘plab arabcha va forsha So‘zlar o‘rniga xalq tilida mavjud bo‘lgan So‘z va iboralar adabiy tilga kiritildi. Adabiy til xalq tiliga imkon qadar yaqinlashtirildi. Biroq sobiq ittifoq davrida O‘zbek tili taraqqiyotiga yetarlicha E’tibor berilmadi. O‘zbek tili rus tili ta’sirida qolib ketdi va Ko‘plab ruscha So‘z va iboralar zo‘rama zo‘raki ravishda O‘zbek tiliga qabul qilindi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi (1989 y. 21 oktyabr) berilgandan keyin, ayniqsa, mustaqillik davriga kelib, O‘zbek tilining barcha uslublari bo‘yicha haqiqiy taraqqiyoti boshlandi.

O‘tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

- 1.Adabiy tilning qanday shakllarini bilasiz?
2. Milliy til va uning tarkibiy qismlari haqida ayting?

3. O‘zbek tili davlat tili tushunchasini izohlang?
4. Uning tarixiy ildizlari va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
5. Til tog‘risida maqol va hikmatli so‘z ayting?

2-Mavzu: Fonetika.

Reja:

1. Fonetikaning predmeti va vazifalari.
2. Fonetik birliklar.
3. Tovush o‘zgarishlari

Tayanch tushunchalar: fonetika, tarixiy fonetika, tilning fonetik tizimi, fonologiya, umumiy fonetika, xususiy fonetika, tovush, fonologiya

Fonetika tilshunoslikning bir kichkina bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, so'z ma'nolarini farqlashdagi roli, shuningdek, urg'u, intonatsiya(ohang) nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalar o'rganiladi. Fonetika ham o'rganish obyektining hajmiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillarning tovush tomoni va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganadi. Bularga barcha tillarda unli va undosh tovushlarning mavjudligi, nutq apparati, tovush o'zgarishlari kabilar kiradi.

2. Xususiy fonetikada muayyan bir tilning fonetik xususiyatlari o'rganiladi. Masalan, o'zbek tili fonetikasi, turkman tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Fonetikaning bu turi tilning fonetik tomonini qay tarzda o'rgashiga qarab ikki turga bo'linadi:

1) tavsifiy fonetikada muayyan tilning fonetik tizimi tarixiy jarayon va dalillarga bog'lanmagan holda o'rganiladi. 2) tarixiy fonetikada ma'lum bir tilning fonetik tizimi til tarixi bilan bog'liq tarzda o'rganiladi.

3. Qiyosiy fonetikada bir-biriga yaqin tillarning fonetik xususiyatlari qiyoslab o'rganiladi. Masalan, o'zbek va rus tillarini qiyoslab o'rganish maktablarda shu tillarni o'qitishning metodik muammolarini hal qilishda yordam beradi.

4. Eksperimental fonetikada fonetik birliklar va hodisalar maxsus asboblarda yordamida tekshiriladi. Bunda olingan natijalar nazariy xulosalarning ishonchliligi ta'minlanadi. Fonetik birliklar va ularning turlari Fonetik birliklar deganda so'z yoki qo'shimchalarning shakliy tomonini hosil qiladigan va ularning ma'nolarini farqlash, chegaralash vazifalarini bajariladigan birliklar tushuniladi. Bunday birliklar so'z va qo'shimchalarning qaysi tomoni (shakl va mazmun) uchun muhimligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi: 1. Segment (ingl. qism, bo'lak) birliklar so'z yoki qo'shimchalar tarkibida birin-ketin kelib, o'zaro ulanadigan birliklardir. Bularga nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. 2. Ustsegment (supersegment) birliklar qo'simcha, so'z, jumla, gap yoki matnning mazmun

tomoniga aloqador birliklardir. Bu guruhga urg‘u, ohang (intonatsiya), to‘xtam (pauza) kiradi. Quyida shu birliklar bilan batafsil tanishamiz. Nutq apparati Avvalo, nutq tovushlarining anatomik-fiziologik tomonini ko‘rib chiqamiz. Bunda nutq tovushlarining hosil bo‘lishida ishtirok etadigan nutq a‘zolari bilan tanishamiz. Bunday nutq a‘zolarining jami nutq apparati deb yuritiladi. Nutq apparatiga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: o‘pka, bronxlar (bir juft), nafas yo‘li (traxeya). 2. Bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog‘aylar hamda un paychalari joylashgan. 3. Og‘iz bo‘shlig‘ida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan. 4. Burun bo‘shlig‘i. 5. Markaziy asab tizimi.

Nutq a‘zolarining jami nutq apparati deyiladi. O‘pka inson organizmini kislorod bilan ta‘minlovchi a‘zo ekanligi hammaga ma‘lum. Nutq a‘zosi sifatida esa o‘pka nutq tovushlarining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya‘ni inson nafas olganida o‘pka va undagi bronxlar havoga to‘ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi nafas yo‘li orqali bo‘g‘izga tomon harakatlanadi. Bo‘g‘izdagi cho‘michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog‘aylar un paychalarini ushlab turuvchi a‘zolardir. Un paychalari esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o‘xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog‘ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko‘z oldingizga keltiring). Og‘iz bo‘shlig‘i tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a‘zodir. Til juda ko‘p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a‘zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo‘ladi. Kichik til ham ayrim tovushlarning (q, g‘, x) hosil bo‘lishida qatnashadi. Lablarning keng ochilishi, cho‘chchayishi, jiplashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo‘ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining tishlar orasidan sirg‘alib chiqishi natijasida hosil bo‘ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo‘lishida havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘i orqali o‘tib, tashqariga chiqadi. Markaziy

asab tizimi nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor. Endi nutq tovushlarining fizik-akustik tomonlari bilan tanishamiz. Bunda fonetikaning fizika fani bo'limlaridan biri bo'lmish akustika bilan aloqadorligi namoyon bo'ladi va natijada fonetikada fonetik akustika degan bo'lim borligi aniqlanadi. Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o'pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo'ladigan ovoz va nutq a'zolarida hosil bo'ladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir.

Nutq tovushlari akustikasida ko'yidagilar farqlanadi: 1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi ma'lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un paychalari ko'p tebransa, tovush baland bo'ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi. 2. Nutq tovushlarining kuchi ma'lum kenglikdagi maydondan ma'lum vaqtda o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: "Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdoridir" Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi. 3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishiga bog'liq. 4. Tovushning cho'ziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo'ladi. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi Har qanday tovushni talaffuz qilishda biror nutq a'zosining faolligi yetarli bo'lmaydi. Bunda a'zolarining ma'lum izchillikdagi kompleks ishtiroki zarur bo'ladi. Nutq a'zolarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati artikulyatsiya (ingl. bo'g'im ma'nosi bildiradi) deyiladi. Artikulyatsiyada ikki narsa farqlanadi: artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli. Tovush hosil qilishda

u yoki bu nutq a'zosining faol qatnashgan qismi artikulyatsiya o'rni deyiladi. Masalan, b, p kabi tovushlarni hosil qilishda lablar, d, t kabi tovushlarni hosil qilishda esa tilning oldingi qismi qatnashadi. Demak, b, p tovushlarining artikulyatsiya o'rni lablar, d, t tovushlarining artikulyatsiya o'rni esa til oldidir. Tovush hosil qilish paytida havo oqimining ikki nutq a'zosining bir-biri bilan jipslashishi natijasida portlab chiqishi yoki a'zolarining jipslashmay, ular orasidan sirg'alib o'tishi artikulyatsiya usuli deb ataladi. Masalan, b, p, d, t tovushlarining artikulyatsiya usuli – portlash, v, f, z, s tovushlarining artikulyatsiya usuli sirg'alishdir. Jorj Yul artikulyatsiya haqida gapirib yozadiki, bitta tovushni talaffuz qilayotgan paytning o'zida ikkinchi tovushni talaffuz qilish jarayoni koartikulyatsiya deb ataladi.

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda "tovush haqidagi ta'limot" degan ma'noni bildiradi (phone – tovush, logos - ta'limot). "Fonologiya, - deb yozadi Jorj Yul, - aslida tildagi nutq tovushlari tizimi va modellarini tavsiflashdir". Bu bo'limda tovushlarning so'z va qo'shimchalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rganiladi.

Fonetika va fonologiyaning o'zaro munosabatiga kelsak, ikkinchisi birinchisining yuqori bosqichidir, ya'ni fonetika nutqqa daxldor bo'lsa, fonologiya tilga daxldordir.

Tovush va fonema. Tovush va fonemaning o'zaro farqi ham nutq va til o'rtasidagi o'zaro farqqa borib taqaladi. Boshqacha aytganda, tovush nutqqa tegishli tushuncha bo'lsa, fonema tilga tegishli tushunchadir. So'zlar tarkibidagi nutq tovushlari ularning ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi. Bu ularning asosiy vazifasidir: tob, toj, toy, tok, tol, tom, tor, top, tot, tosh, tog', toq. Ko'rinyaptiki, bu so'zlar o'zaro bitta (oxirgi) tovush bilan farq qilyapti. So'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush fonema deb ataladi. Fonemaning aniq talaffuz qilingan, quloqqa eshitilgan ko'rinishi tovush yoki fon (allofon) deb yuritiladi. Masalan, bir, bilan so'zlaridagi qisqa i, biy, tiy so'zlaridagi cho'ziq i, qirq, G'iro

soʻzlaridagi ruscha ы ga yaqin aytiladigan i fon (allofon) hisoblanadi. Jorj Yul yuqorida zikr qilingan darsligida yozishicha, fonema ongda mavhum tushuncha sifatida mavjud boʻlgan paytda, real nutqda uning turli variantlari hosil boʻladi. Fonemalarini tasnif qilganda ularni bir-biridan farqlantiruvchi belgilar farqlovchi (differensial) belgilar hisoblansa, shu tovushlar uchun umumiy belgilar esa birlashtiruvchi (integral) belgilar sanaladi: b va p tovushlari uchun lablar ishtirokida hosil boʻlish va portlovchilik belgilari birlashtiruvchi belgilar sanalsa, jarangli jarangsizlik belgisi farqlovchi belgidir.

Fonemalarning turlari. Fonemalar quyidagi xususiyatlariga koʻra ikkita guruhga boʻlinadi:

1.Unli fonemalar.

2.Undosh fonemalar

1. Unli fonemalar hosil boʻlishida oʻpkadan chiqayotgan havo ogʻiz boʻshligʻida hech qanday toʻsiqqa uchramasdan oʻtadi.

2. Undosh fonemalarni hosil qilishda oʻpkadan chiqayotgan havo ogʻiz boʻshligʻida turli toʻsiqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil boʻladi.

Unlilarni choʻzib talaffuz qilish mumkin. Undoshlarni choʻzib talaffuz qilib boʻlmaydi. Unlilar talaffuzida un paychalari albatta titraydi. Undoshlar talaffuzida un paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin. 4. Unlilar boʻgʻin hosil qilib biladi: aka, o-i-la, mu-do-fa-a. Undoshlar boʻgʻin hosil qilib bilmaydi, ular boʻgʻin tarkibida kelishi mumkin.

Oʻzbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi: Hozirgi oʻzbek adabiy tilida unli fonemalar oltita: i, e, a, u, oʻ, o. Tildagi unlilar tizimi vokalizm (ingl. unli degan maʼnoni bildiradi) deb yuritiladi. Unlilar hosil boʻlishida til va lablar faol ishtirok etadi, shuning uchun ular tasnifi uch xususiyatga asoslanadi: tilning oldinga yoki orqaga harakat qilish darajasiga, tilning tanglay tomon koʻtarilish darajasiga va lablarning ishtirokiga koʻra.

Shu jihatdan unlilar uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) tilning gorizontal harakatiga ko‘ra;
- 2) tilning vertikal harakatiga ko‘ra;
- 3) lablarning ishtirokiga ko‘ra.

Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra: unlilar ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) old qator unlilar: i, e, a;
- 2) orqa qator unlilar: u, o‘, o.

Og‘iz bo‘shlig‘idagi eng faol a‘zo tildir. U unlilarni talaffuz qilishda oldinga yoki orqaga qarab harakat qiladi. Masalan, i, e, a unlilarini hosil qilishda til oldinga siljiydi, u, o‘, o unlilarini hosil qilishda orqaga tortiladi.

Tilning vertikal harakatiga ko‘ra: unlilar uch tomonlama tasnif qilinadi:

- 1) yuqori (tor) unlilar: **i, u;**
- 2) o‘rta (keng) unlilar: **e, o‘;**
- 3) quyi (keng) unlilar: **a, o.**

Unlilar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko‘tarilishi va tushishi vertikal harakat sanaladi. Bu harakat tufayli og‘izning ochilish darajasi har xil bo‘ladi. Masalan, i, u unlilarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi va og‘izning ochilish darajasi tor bo‘ladi; a, o unlilarini hosil qilishda esa til tanglaydan uzoqlashadi va til bilan tanglay o‘rtasidagi oraliq keng bo‘ladi.

Lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilar ikkiga bo‘linadi:

- 1) **lablangan unlilar:** u, o‘, o;
- 2) **lablanmagan unlilar:** i, e, a.

Unlilar talaffuzida lablar ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi mumkin. Masalan, u, o‘, o unlilarini hosil qilishda lablar cho‘chchayadi, i, e, a unlilarini hosil qilishda bunday holat kuzatilmaydi.

Fonetik hodisalar 3 xil bo‘ladi.

1. Fonetik hodisalar **unlilarga** ham, **undoshlarga** ham taalluqlidir

1. Tovush tushishi

Asosga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida so‘zda ayrim unli va undosh tovushlar tushib qoladi. Asosan, unlilardan *a, i, e, u*, undoshlardan *t, n*, qo‘sh undoshli so‘zlarda esa *s, l, m* kabi tovushlar tushishi kuzatiladi.

Unlilarda		Undoshlarda	
a:	<i>shahar + im = shahrim</i> <i>zahar + i = zahri</i> <i>ayta oldi = aytoldi</i>	n:	<i>sen + ning = sening</i> <i>men + niki = meniki</i> <i>sen + ni = seni</i>
i:	<i>bag‘ir + im = bag‘rim</i> <i>yig‘i + la = yig‘la</i> <i>chaqin + a = chaqna</i> <i>qashi + la = qashla</i> <i>olti + ovlon = oltovlon</i>	t:	<i>sust + ay = susay</i> <i>past + ay = pasay</i>
u:	<i>burun + ing = burni</i> <i>ulug‘ + ay = ulg‘ay</i>	l:	<i>metall + lar = metallar</i>
e:	<i>o‘qir + emish =</i> <i>o‘qirmish</i> <i>qaytgan + emish =</i> <i>qaytganmish</i>	m:	<i>kilogramm + mi =</i> <i>kilogrammi</i>
		s:	<i>kongress + siz =</i> <i>kongressiz</i>

2. Tovush ortishi. Ayrim so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shganimizda tovush ortadi. Bu hodisa yozma nutqda unlilar bilan sodir bo‘lmaydi, faqat undosh tovushlar (*n, y*) ishtirokida kuzatiladi.

Misollar:

de + il + di = deyildi;

mavzu + im = mavzuyim;

shu + ga = shunga.

Shuningdek, **ch**, **s**, **b** kabi undoshlarning ayrim soʻzlar tarkibida ikkilantirilishi ham tovush ortishi hisoblanaveradi.

Misollar:

isi + q = issiq, his + iy = hissiy,

tib + iy = tibbiy, achi + q = achchiq.

Onasi, ukasi kabi soʻzlardagi **s** undoshi orttirilgan hisoblanmaydi, chunki III shaxs egalik qoʻshimchasi - **i** va **-si** shakllariga ega.

3. Tovush almashishi

Soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida bir unli yo undoshning boshqa unli yo undosh tovushga almashib qolishi shunday ataladi.

Unlilarda		Undoshlarda	
a > o:	<i>sayla + v = saylov tarqa + q = tarqoq sayra + qi = sayroqi</i>	k > g:	<i>yurak + i = yuragi</i>
o > a:	<i>yosh + a = yasha ong + la = angla</i>	q > gʻ:	<i>dovruq + imiz = dovrugʻimiz</i>
i > u:	<i>toʻqi + v = toʻquv shov + illa = shovulla</i>	g > q:	<i>chiroq + ga = chiroqqa</i>
		g > k:	<i>etik + ga = etikka</i>

Unlilarda		Undoshlarda	
a > o:	<i>sayla + v = saylov tarqa + q = tarqoq sayra + qi = sayroqi</i>	k > g:	<i>yurak + i = yuragi</i>
o > a:	<i>yosh + a = yasha ong + la = angla</i>	q > gʻ:	<i>dovruq + imiz = dovrugʻimiz</i>
i > u:	<i>toʻqi + v = toʻquv shov + illa = shovulla</i>	g > q:	<i>chiroq + ga = chiroqqa</i>
		g > k:	<i>etik + ga = etikka</i>

Muhim: *hisoblagich, tutqich, chizgʻich, koʻrsatkich* kabi soʻzlarda tovush almashishi roʻy bermagan, chunki

-gich qo'shimchasi faqat *q* va *k* undoshlari bilan yakunlangan so'zlarga qo'shilsagina tovush almashishi ro'y bergan hisoblanadi. Bu qoida *g* bilan boshlanadigan barcha qo'shimchalarga tegishli.

Yoqqich, ekkach, boqqani, bukkan, chiqquncha kabi so'zlarda tovush almashishi bor.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Fonetika nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?

Reja:

1. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Ma'no ko'chirishning asosiy turlari; (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik)
3. Ona tilida so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

Leksikologiyani predmeti haqida tushuncha. Leksikologiya o'zbek tili kursining lug'at tarkibi (leksikasi)ni o'rganadigan bo'limidir. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi leksika deyiladi. Bu so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) ichki va 2) tashqi tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi semasiologiya deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarining nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so'z hamda turg'un iboralarining ma'no xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiyani yana bir sohasi etimologiya deb yuritiladi. U tilning lug'at tarkibidagi so'z va iboralarining tarixan kelib chiqishini, yasama so'zlarning va boshqa tillardan kirgan so'zlarning ma'noli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya so'zning ikki tomonini ham, ya'ni ichki – ma'no tomonini hamda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi.

Leksikologiya tashqi tomondan lug'at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug'at tarkibida sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni: so'zlarning qo'llanish darajasini, ba'zi so'zlarning eskirib iste'moldan chiqib ketishini (sekretar, oblast kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi so'zlar hisobiga boyishini, ba'zi so'zlar ma'nosida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni (ma'no ko'chish hodisasini) o'rganadi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi leksikografiya¹ deb yuritiladi. Leksikografiyaning vazifasi tildagi soʻzlarni yozma ravishda toʻplashdir. Leksikografiya soʻz va iboralarni maʼlum bir sohalar boʻyicha toʻplab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lugʻat kitoblari shaklida nashr etadi.

Leksikologiya tilning fonetika va grammatika boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Fonetika nutq tovushlarini oʻrganadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan soʻzni, grammatika oʻz qonun-qoidalari asosida soʻzlarni oʻzaro bogʻlaydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush boʻlmasa, soʻz boʻlmaydi, soʻz boʻlmasa grammatikaning ham boʻlishi mumkin emas.

Maʼlumki, soʻzlovchi tilning lugʻat tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan oʻzaro bogʻliq ekanini bildiradi.

Lugʻat tarkibi shu tilda soʻzlashuvchi xalqlarning moddiy va maʼnaviy madaniyat tarixi bilan bogʻliq. Shuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

Tilning lugʻat tarkibi va uni tashkil etuvchi soʻzlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan oʻrganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Avvalo, lugʻat tarkibini tashkil qiluvchi har qanday soʻz maʼnoga ega boʻladi. Ana shu maʼnosi nuqtayi nazaridan soʻzlar oʻziga xosliklarga ega. Soʻzning maʼnosi (semantikasi) va u bilan bogʻliq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya boʻlimi shugʻullanadi.

2. Har qanday tilning taraqqiyotida uning eng oʻzgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Til taraqqiyoti jarayonida lugʻat tarkibi yangi-yangi soʻzlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim soʻzlar eskiradi, shuningdek, isteʼmoldan chiqib boradi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham oʻrganiladi.

¹ Leksikografiya – grekcha lexikos – «lugʻat» va grapho – «yozaman» degan maʼnoni bildiradi.

3. Lugʻat tarkibidagi soʻzlar isteʼmol darajasiga koʻra umumiylikka yoki chegaralanganlikka egaligi bilan ham oʻzaro farqlanadi. Maʼlum soʻzlar umumxalq isteʼmolida boʻlsa (masalan, non, suv, katta, yugurmoq va b.), ayrim soʻzlarning isteʼmol doirasi maʼlum jihatdan chegaralangan boʻladi. Masalan, dialektal soʻzlar hududiy jihatdan chegaralangan boʻladi (kallapoʻsh – doʻppi, istamoq – qidirmoq, moyak – tuxum, eshik – hovli, uy); terminlar ijtimoiy nuqtayi nazardan chegaralangan, yaʼni maʼlum kasb-hunar sohasidagi kishilar nutqida qoʻllanish bilan chegaralangan boʻladi (Masalan, urgʻu, leksika, affiks – tilshunoslikka oid terminlar; hujayra, sitoplazma, xromosoma – biologiyaga oid terminlar; voleybol, gol, nokaut, futbol – sportga oid terminlar va h. k.). Leksikologiya lugʻat tarkibini ana shu nuqtayi nazaridan ham oʻrganadi.

4. Lugʻat tarkibidagi soʻzlar nutqqa, uslubga boʻlagan munosabatiga koʻra ham oʻzaro farqlanadi. Maʼlum soʻzlar nutq turlariga, uslubga betaraf munosabatda boʻlsa (quchoq, bechora, osmon, ichmoq va b.), ayrim soʻzlar nutq uslubining maʼlum turiga xos boʻladi (ogʻush – badiiy uslubga xos, boyoqish – oddiy nutqqa xos, samo – badiiy uslubga xos, adib – kitobiy uslubga xos va h.k.). Leksikologiyada soʻzlarning ana shu xususiyati ham oʻrganiladi.

5. Har bir soʻz tovush qiyofasi va maʼnosiga ega, yaʼni shakl va mazmunga ega. Lugʻat tarkibidagi soʻzlar ana shu shakl va mazmuni jihatidan turlicha munosabatga ega boʻlishi mumkin. Masalan, chaqqon, epchil, chechan, abjir, chapdast, soʻzlarining shakli har xil, maʼnosi bir xil (sinonim); oʻt (olov), oʻt (maysa), oʻt (harakat) soʻzlarining shakli bir xil, maʼnosi har xil (omonim) va h.k. Leksikologiyada soʻzlar ana shunday munosabatlari nuqtayi nazaridan ham oʻrganiladi.

Oʻzbek leksikologiyasi tarixi

Soʻz va uning maʼnolari haqida oʻzbek tilshunosligi tarixida juda uzoq davrlardan buyon fikr yuritib kelingan. Lekin oʻzbek tilining bir necha sathdan iborat bir butunlik ekanligi, oʻzbek tili tizimida leksik sathning oʻrni va tilshunoslikning leksik birliklarni oʻrganuvchi alohida boʻlimi mavjudligi, bu

bo‘limning boshqa bo‘limlar bilan munosabati kabi masalalar, umuman, leksikologiya o‘zbek tilshunosligining tarkibiy qismi va bir yo‘nalishi sifatida XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllandi.

O‘zbek tili leksikologiyasining shakllanishida Faxri Kamolning “Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar” rukni ostida chop etilgan “O‘zbek tili leksikasi” va Y. D. Pinxasovning “Hozirgi o‘zbek tili leksikasi” risolalari hamda “Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar” rukni bilan e‘lon qilingan barcha risolalarni o‘zida jamlagan “Hozirgi zamon o‘zbek tili” asari katta ahamiyatga ega bo‘ldi². Bu asarlarda o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk marta leksikologiya o‘zbek tilshunosligining alohida bo‘limi ekanligi, uning o‘rganish obyekti, maqsadi va vazifalari, tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan munosabati belgilandi. So‘zning leksik va grammatik ma’nosi bir-biridan ajratildi. Shuningdek hali o‘zbek tili leksikologiyasida so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nosi farqlanmasdan turib, bu asarda so‘zlarning matn bilan bog‘liq ma’nolari haqida fikr yuritiladi. Ko‘p so‘zlar o‘zining asosiy ma’nolari bilan cheklanib qolmay, turli matnda turlicha ma’no va ma’no bo‘yoqdorligiga ega bo‘lishi haqida gap boradi. Bundan tashqari so‘zlarning ko‘p ma’noliligi, o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida ma’lumot beriladi. Lekin ko‘p ma’nolilikning turlari ko‘rsatilmaydi. Shuningdek, omonimlar, sinonimlar, antonimlar haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Faxri Kamol o‘zbek tili leksikologiyasi bo‘yicha kuzatishlarini davom ettirdi. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobining leksikologiya qismi Faxri Kamol tomonidan yozildi. Unda leksikologiya oldingilaridan birmuncha kengaytirildi. So‘zlarning leksik-semantik guruhlar haqida ilk ma’lumot berildi. Ma’no kategoriyasi atamasi kiritildi va bu atama ostida polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari o‘rganildi³.

² Hozirgi zamon o‘zbek tili. T., O‘zFan, 1957.

³ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I. Fonetika, Leksikologiya, Morfologiya. T., “Fan”, 1966, 114 – 149-betlar.

Omonimlar, sinonimlarning ichki ko‘rinishlari haqida batafsil ma’lumot berildi. Omonimlar ichki tuzilish va tashqi ko‘rinish belgisiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) leksik omonimlar;
- 2) grammatik omonimlar;
- 3) morfologik omonimlar (omomo-rfemalar);
- 4) fonetik omonimlar (omofonemalar);
- 5) grafik omonimlar (omograf yoki omogrammalar).

Omonimlarning bunday bo‘linishida muayyan tamoyilga bo‘usunish va yetarli ilmiy dalillash alomatlari bo‘lmasa ham, omoleksemalar farqining yoritilishi katta ahamiyatga ega bo‘di.

Sinonimlar ham tuzilish belgisiga ko‘ra ideografik, emotsional, ekspressiv-stilistik kabi turlarga ajratildi va ularning bir-biridan farqli belgilari aniqlandi. O‘zbek leksikologiyasida ilk bor leksik dubletlar haqida ma’lumot berildi. Keyinchalik M. Mirtojiyev, I. Qo‘chqortoyev, A. Hojiyev, B. Isabekov, R. Shukuroarning leksik omonim, sinonim va antonimlar tadqiqiga bag‘ishlangan maxsus asarlari maydonga keldi. Bu asarlar o‘zbek tili leksikologiyasining yanada takomillashuvi uchun xizmat qildi.

Faxri Kamol o‘zbek tili leksikasining rivoji, uning tarixiy qatlamlari, unda umumturkiy, o‘zbek, fors-tojik, arab, rus va boshqa tillarga doir so‘zlarning o‘rni haqida dastlabki ma’lumotni berga bso‘lsa, o‘zbek tili leksikasining tarixiy qatlamlari va har bir qatlamni o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotning vujudga kelishi⁴ o‘zbek leksikologiyasining takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Faxri Kamol so‘zlarning ko‘chma ma’nolari haqida boshlang‘ich ma’lumot bergan bo‘lsa ham, ko‘chma ma’no turlari, ularning hosil bo‘lish yo‘llari

⁴ Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T., “Fan”, 1985.

yoritilmagan edi. Ana shu muammoni yoritishga M. Mirtojiyev va T. Aliqulovlar bel bog‘ladi. M. Mirtojiyevning “O‘zbek tilida polisemiya” , I. Shukurovning “O‘zbek tilida troplar” asarlarining yaratilishi bu muammoni yohritishda katta voqea bo‘ldi. Shuningdek, ko‘chimlarning u yoki bu turini tadqiq etishga bag‘ishlangan alohida tadqiqotlarning dunyoga kelishi o‘zbek tili leksemalarining ko‘chma ma’nolarini chuqurroq o‘rganish, metafora, metonimiya kabi hodisalarning lingvistik mohiyatini ochib berish uchun katta xizmat qildi.

Oltmishinchi yillarda o‘zbek onomastikasi alohida yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Uning shakllanida E. Begmatovning xizmati katta bo‘ldi. Prof. Z. Do‘simov, T. Nafasov, N. Husanov tadqiqotlari bu yo‘nalishni yana ham rivojlantirdi.

O‘zbek tili leksikologologiyasi bo‘yicha erishilgan yutuqlarning sintezi sifatida “O‘zbek tili leksikologologiyasi” kitobi maydonga keldi.

70 – 80- yillardan boshlab o‘zbek tilshunosligiga sistemaviy-struktur tilshunoslik qo‘lga kiritgan yutuqlar, uning tadqiq metodlari kirib keldi. O‘zbek tilshunosligida ham uzviy (komponent) tahlil metodlari qo‘llanila boshlandi. Bu birinchi navbatda leksikologiyada namoyon bo‘ldi. Natijada o‘zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi bosqichga – nazariy bosqichga, leksikani ma’lum leksik-semantik guruhlardan (LSG) tashkil topgan butunlik, leksik birliklarni muayyan ma’no elementlarining munosabatidan tashkil topgan tizim sifatida o‘rganish bosqichiga ko‘tarila bordi. Bu bilan o‘zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy (nazariy) leksikologiyasiga o‘tila boshlandi. Bu jarayonni professor Sh.Rahmatullayev va uning shogirdi I.Qo‘chqortoyev boshlab berdi. Xususan, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev tomonidan yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobining leksikologiya qismi o‘zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy leksikologiyaga o‘tish davri, leksikologiyaning bu ikki yo‘nalishi o‘rtasidagi ko‘prik sanaladi. Chunki unda tavsifiy leksikologiya an‘analari davom ettirilgan va takomillashtirilgan bo‘lishi bilan birga, sistemaviy leksikologiyaning asosiy belgilaridan bo‘lgan uzviy tahlil usuli joriy etilgan.

Leksemalar leksik ma'nosining semik tahlili joriy etilishi, har bir leksemaning leksik ma'nosi bir necha semadan tashkil topishi, shu bilan leksemaning leksik ma'nosi muayyan tuzilishga ega bo'lishi va bu tuzilish ideografik, uslubiy, turkumlik semalarini o'z ichiga olinishining e'tirof etilishi bilan an'anaviy ko'p ma'noli leksemalarni boshqacha nomlashga to'g'ri keldi. Shuning uchun Sh.Rahmatullayev bunday leksemalarni polisemem leksemalar, bunday hodisani esa polisemiya deb nomladi.

Leksikologiyaning tavsifiy bosqichdan nazariy bosqichga ko'tarilishida I. Qo'chqortoyev tadqiqotlari katta rol o'ynadi⁵. Bu asarda muallif F. de Sosurning tilning belgilar stemasi ekanligi haqidagi ta'limotiga asoslanib, o'zbek tilshunosligi tarixida birinchilardan bo'lib lug'at tarkibini sistemaviy-struktur o'rganish muammosini ko'tarib chiqdi va o'zbek tilidagi nutq fe'llari misolida leksemalarning sistemaviy tabiatini yoritib berdi. R.Rasulovning holat fe'llarining uzviy (komponent) tahliliga bag'ishlangan tadqiqoti o'zbek sistemaviy leksikologiyasining shakllanishida mustahkam poydevor yaratdi.

O'zbek leksikologiyasining yuqori bosqichga ko'tarilishida jahon sistemaviy-struktur tilshunosligining eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassamlantirgan va o'zbek tilshunoslari erishgan yutuqlarni sintezlashtirgan "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari"⁶ kitobining yuzaga kelishi katta voqea bo'ldi. Asarda sistemaviy tilshunoslikning asosiy tushunchalarini izchil bayon qilib berish, lingvistik oppozitsiyalar va ularning leksik sathda namoyon bo'lishi, leksemaning boshqa til birliklari tizimida tutgan o'rni, uning shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi bayon qilinadi. Bu asarda leksema sememasining tarkibi yoritib berildi. Uning tarkibidagi uch xil sema:

1) atash semasi;

2) ifoda semasi;

⁵ Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. T, "Fan", 1977; Shu muallif. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. Т., «Ўқитувчи», 1977.

⁶ Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., "O'qituvchi", 1995.

3) vazifa semasi (funktional semalar) alohida-alohida bayon qilindi. Bir sememali va ko'p sememali leksemalarni ajratishda mualliflar, an'anaviy leksikologiyadan farqli ravishda, distributiv lingvistika yutuqlaridan foydalangan holda, barqaror birliklar va nutqiy ko'rinish, erkin (o'xshash) va bog'liq (noo'xshash) qurshov tushunchasiga asoslandilar. Leksemalarning paradigmatic va syntagmatic munosabatlarining yoritilishi hamda ularning leksik-semantik guruhlariga leksik-tematik (mavzuviy) to'dalarga ajratilishi, leksik-semantik guruh a'zolarining markaz-qurshovdan tashkil topishi, bu guruhda leksemalar orasida graduonimik, giponimik (jins-tur), partonimik (butun-bo'lak), iyerarxik (pog'onaviy) munosabatlar kabi qator masalalarning yoritilishi bilan o'zbek leksikologiyasini turkiyshunoslikda yuqori pog'onaga olib chiqdi.

Leksikologiya leksikaga til tizimidagi ichki tizim (sistema) sifatida qaraydi. Shuningdek, o'zaro ma'naviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birliklar yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qaraladi. Shu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabati ochiladi. Masalan, olma, o'rik, nok kabi ho'l meva nomi bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomi boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi – kichik tizimchalardan tashkil topgan “meva-sabzavot nomi” tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab davom etaveradi.

Leksik tizimda har so'zning ma'nosi u mansub bo'lgan lug'aviy ma'no guruhidagi boshqa so'zlar bilan munosabati orqali ochiladi. Masalan, ota, ona, aka, uka, opa, singil so'zlari “qon-qarindoshlik” lug'aviy ma'no guruhini tashkil qiladi. Bu guruhdagi aka so'zining ma'nosi quyidagicha: qon-qarindosh, bir avlod, erkak, mendan katta. Bu so'z bir avlod degan ma'no bilan ota, ona so'zlaridan, erkak degan ma'no bilan opa, singil so'zlaridan, mendan katta degan ma'no bilan uka so'zidan farqlanadi. Qon-qarindosh degan ma'nosi bilan esa bu qatordagi boshqa so'zlar bilan bir guruhga birlashadi.

Leksik tizim, yuqorida aytilganidek, pog'onali qurilishga ega. Ya'ni leksik tizimning o'zi murakkab bo'lib, bir necha tarkibiy qismning birikishidan tarkib

topadi. Har bir tarkibiy qism esa o'z navbatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Binobarin, bularning har ikkisi ham murakkab bo'lib, bu jarayon, alohida, yakka so'zgacha davom etadi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil, yordamchi va undov so'zlarga bo'linadi. O'z navbatida mustaqil so'zlar ishora ma'noli so'zlar – olmoshlar va atash, nomlash vazifasini atovchi so'zlarga ajraladi. Atovchi so'zlar o'z navbatida ot, sifat, son, fe'l, ravishga bo'linadi. Ularning har biri, o'z navbatida, yana o'nlab mavzu guruhlariga, bularning har biri esa yana ham kichikroq ma'no guruhlariga – alohida, yakka so'zga yetib kelguncha pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi.

Leksik tizimlarning bunday pog'onali (bosqichli) qurilishi leksema sememasi tarkibidagi semalarning birlashtiruvchi va farqlaovchi bo'linish dialektikasi bilan, nisbiyligi bilan uzviy bog'liqdir. Muayyan leksik tizim muayyan sema (ma'noning tarkibiy qismi) asosida tashkil topadi. Bu sema leksik tizim uchun birlashtiruvchi sema hisoblanadi. Ayni vaqtda u (sema) o'zi birlashtiruvchi leksik tizimni o'ziga nisbatan yuqorida joylashgan tizimdan va o'zi bilan bir pog'onada joylashgan boshqa tizimdan farqlab turadi. U farqlovchi sema vazifasini bajaradi.

Leksik tizimdagi kichik tizimlar va ular tarkibidagi so'zlarni giponimiya, partonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi ma'noviy munosabatlar o'zaro bog'lanib turadi. Quyidagi chizmada leksik tizimning bo'linishi ot so'ziga yo'naltirilgan holda tasvirlangan

So'z va uning belgilari. Leksikologiyaning asosiy birligi so'zdir. So'zga quyidagicha ta'rif berish mumkin: borliqdagi narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat kabilarni nomlovchi til birligi so'z deyiladi. Masalan, oltin so'zi sariq rangli qimmatbaho metallning nomi, sariq so'zi rangning nomi, o'n so'zi muayyan miqdorning nomi, yurmoq so'zi ma'lum harakatning nomi, do'stlik so'zi ma'lum munosabatning nomi. Demak, so'z mohiyatan nom ekan.

So'z murakkab til birligi bo'lib, quyidagi belgilarga ega:

1. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni nomlaydi, ya'ni nominativ vazifa bajaradi. Biroq so'z borliqdagi har qanday alohida narsani emas, bir turga mansub narsalar haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, tosh so'zi "yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, qattiq, mo'rt tog' jinsi" degan tushunchani bildiradi va bu so'z bilan borliqdagi har qanday toshni nomlash mumkin.

2. Har bir so'z tovush qobig'iga ega. Masalan, bola so'zi b, o, l, a tovushlar tizmasidan iborat. So'zning fonetik o'ziga xosligi shundan iboratki, uning ichiga boshqa til birligini kiritib bo'lmaydi. Masalan, belkurak so'zining qismlari orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi. Bel bog'lash so'z birikmasining orasiga esa so'z kiritib, belni mahkam bog'lash so'z birikmasi zanjirini hosil qilish mumkin.

3. So'z nutqda turli-tuman grammatik ma'nolarni ifodalash uchun shu ma'nolarga xos shakllarda qo'llanadi. Boshqacha aytganda, so'zlar shakl yasaliş tizimiga ham ega: kitob+lar+im, ishchi+lar+imiz+ga, o'qi+yap+ti+lar.

4. Alohida olingan so'z muayyan tushunchani ifodalasa, gap tarkibida ma'lum gap bo'lagi, ya'ni fikrning bir qismini ifodalaydi. Masalan, **Bog'da bulbul sayrayapti** gapida bog'da so'zi hol, bulbul so'zi ega, sayrayapti so'zi kesim vazifasini bajaryapti, mazmunan esa bog'da so'zi ish-harakatning o'rnini, bulbul so'zi ish-harakatning bajaruvchisini, sayrayapti so'zi esa bajayuvchining ish-harakatini hukm tarzida ifodalayapti.

So'zning lug'aviy ma'nosi. So'zning muhim belgisi ma'noga egaligidir. So'z ma'nosida borliqdagi biror narsa-hodisa haqidagi tushuncha aks etadi. Tushuncha tafakkur birligi bo'lib, narsa va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi fikr shaklidir. Tushunchaning sezgi, idrok va tasavvurdan farqi shundaki, u konkret belgi va jihatlarni emas, eng umumiy, eng umumiy belgilarnigina saqlab qoladi. Tushuncha uchun umumiylik xos. Masalan, borliqda turli-tuman daraxt mavjud. Ular bir-biridan bargi, tanasining rangi, shakli, bo'yi, mevali-mevasizligi va boshqa belgilari bilan farq qiladi. Biroq ongimizdagi daraxt tushunchasi "yo'g'on tanali, shoxlab o'sadigan

ko‘p yillik o‘simlik” degan umumlashma tasavvurdan iborat. Bu tushunchada daraxtlarning eng muhim belgilari umumlashtirilgan bo‘lib, unda borliqdagi alohida daraxtlarning konkret, muhim bo‘lmagan belgilari (bargining shakli, tanasining rangi, shakli, bo‘yi, mevali-mevasizligi) aks etmagan.

Kishining fikrlashi tushuncha asosida vujudga keladi. Shu ma’noda, so‘z – tushunchaning tildagi ifodasi. So‘z tushunchaning moddiy qobig‘ini shakllantiruvchi va ichida saqlab turuvchi “idish”ni tashkil etsa, tushuncha so‘zning mazmun tomonini – ma’nosini tashkil etadi.

Tushuncha va so‘z orasidagi izchil aloqa – nihoyatda keng masala. Bunda jamiyat, milliylik va voqelik munosabatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, biz (o‘zbeklar) qor tushunchasini bir so‘z bilan ataymiz, eskimoslar esa taxminan 10 xil so‘z bilan qor turlarini farqlaydi va aksincha biz otning 50 dan ortiq turini alohida-alohida so‘z bilan farqlaymiz. O‘zbek uchun ot va uning turlarini anglatuvchi baytal, biya, ayg‘ir, qulun, toy, g‘o‘nan, do‘nan kabi tafakkur birliklari (biz bu so‘zlarning ma’nosini nazarda tutyapmiz) tushunchadir. Demak, tushuncha milliy xususiyatga ham ega.

Yuqorida aytilganlar so‘z va tushuncha biri ikkinchisini talab etadigan, birbirisiz mavjud bo‘la olmaydigan dialektik munosabatdagi birliklar ekanligidan dalolat beradi. Shunday yaqin aloqa va bog‘lanishda bo‘lgani holda so‘z tushunchaga, tushuncha esa so‘zga teng emas va ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, so‘z ikki tomonlama birlik bo‘lib, tashqi – moddiy hamda ichki – mazmun tomonlaridan iborat. Shu tufayli so‘zni leksikologiyada mazmun tomonidan, fonetika, morfologiyada ifoda tomondan tekshirishga imkon bor. Tushuncha esa bir tomonlama birlik bo‘lib, u abstraksiya, umumlashtirishdan iborat. Shuning uchun ham tushunchaning tashqi tuzilishini o‘rganib bo‘lmaydi. So‘z esa o‘zining ma’nosi bilangina tushuncha bilan bog‘lanadi. Tushuncha ongimizda faqat mazmun tomondan tizim hosil qiladi, so‘z esa semantik sistemaga ham, grammatik, leksik, morfologik, uslubiy tizimlarga ham kiradi. Shu asosda

soʻz va tushuncha orasidagi birinchi farqni: Soʻz ikki tomonli lisoniy birlik, tushuncha esa bir tomonli boʻlib, tafakkur birligidir deb berishimiz mumkin.

Ikkinchidan, soʻzlar mustaqil, yordamchi va soʻz-gaplarga ajraladi, tushuncha bilan bogʻliqlik esa mustaqil soʻzlarning bir qismiga – olmosh turkumidan boshqa soʻzlarga xosdir. Yordamchi soʻzlar, olmoshlar tushuncha bilan bogʻlanmagan. Undov, modal, taqlid va taklif-ishora (chunonchi, oh, albatta, tiq-tiq, ma) soʻzlarning tushuncha bilan bogʻlanganligi munozaralidir. Bundan tashqari, tushuncha faqat soʻz bilan emas, soʻz birikmasi va soʻz birikmasi zanjiri bilan ham ifodalanadi. Shu asosda soʻz va tushuncha orasidagi ikkinchi farqni: Hamma soʻz ham tushunchaning shakli emas, tushunchaning shakli faqat soʻz emas deb berishimiz mumkin. Shu asosda tushunchaga tavsif berganda “Tushuncha soʻz bilan ham (olim), soʻz qoʻshilmasi bilan ham (Abu Nasr Forobiy), soʻz birikmasi bilan ham (Muallimi soniy, Sharq Aristoteli) ifodalanadi” deyish mumkin. Shuning uchun sof mantiqiy nuqtayi nazardan urgʻochi ot – baytal, qulunli ot – biya, onaning akasi – togʻa ayni bir tushunchaning ikki xil shaklidir. Lekin ularni sinonim deb atash mumkin emas, chunki ulardan biri soʻz, ikkinchisi soʻz birikmasi boʻlib, turli lisoniy sath birliklaridir.

Uchinchidan, tilda ayni bir tushuncha nafaqat turli sath birliklari bilan, ayni bir sathning bir necha birligi bilan berilishi mumkin (sinonimiya). Chunonchi, kichik – mayda, oʻrganmoq – oʻzlashtirmoq, oʻlmoq – vafot etmoq va aksincha, ayni bir soʻz bir necha tushunchani ifodalashi mumkin (koʻp maʼnolilik): oʻrik – meva, oʻrik – daraxt.

Shu asosda soʻz va tushuncha orasidagi uchinchi farqni “Bir tushuncha bir necha soʻz bilan va bir necha tushuncha ayni bir soʻz bilan ifodalanishi mumkin” deb berishimiz mumkin.

Toʻrtinchidan, tushuncha tafakkur birligi, borliq lohidaliklari va munosabatlaridagi umumiy va muhim tomonlarning ongdagi inʼikosi boʻlib, baholash, unga kimningdir munosabati, qoʻshimcha (yondosh, hamroh) maʼnolar xos emas; u baho maʼnosidan xolidir. Soʻz esa, aksincha, konnotativ (qoʻshimcha

uslubiy) ma'no bo'yog'isiz bo'lmaydi. Chunonchi, turq-angor-aft-bashara-yuz-chehra-jamol-oraz-ruxsor qatoridagi yuz so'zi bo'yoqsiz emas, balki neytral bo'yoqlidir. Shu xususiyat asosida to'rtinchi farqni "Tushuncha uchun qo'shimcha ma'no xos emas, so'z esa qo'shimcha ma'nosiz bo'lolmaydi", - deb ifodalashimiz mumkin.

Beshinchidan, tuhsuncha tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarishi, hatto o'z aksiga o'tishi va bu so'zga ta'sir etmasligi, shuning aksi sifatida so'z tamoman o'garib, tushunchaga mutlaqo ta'sir etmasligi mumkin. Birinchi holatni biz Yer va Quyosh haqidagi bundan yuz yil oldingi va bugungi tushunchalarimizning qiyosida ko'rsak, ikkinchi holatni bundan yigirma yil oldin ishlatilgan oblast, rayon so'zlarining viloyat, tuman so'zlari bilan osongina almashinganida ko'ramiz. Shu asosda so'z va tushuncha orasidagi beshinchi farqni "So'z o'zgarib, tushuncha o'zgarmasligi va aksincha, tushuncha o'zgarib so'z o'zgarmasligi mumkin" deb ifodalashimiz mumkin.

So'z va tushuncha orasidagi munosabatni ko'rib o'tdik. Endi shu asosda so'z ma'nosiga ta'rif beramiz. So'zning borliqdagi biror (bir turdagi) narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat haqidagi tushunchani ifodalashi uning ma'nosi deyiladi. Masalan, gilam so'zining ma'nosi "odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihozi".

So'zning ma'nosi murakkab bo'lib, uning bir necha turi mavjud. Eng avvalo, ma'noning lug'aviy (leksik) va grammatik ma'no turini farqlash kerak.

So'zning borliqdagi qanday narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat haqidagi tushunchani ifodalashi uning lug'aviy ma'nosi deyiladi. Masalan, atala – "qizdirilgan yog'ga qovurilgan un solib, suv qo'shib pishiriladigan suyuq ovqat", arang – "katta qiyinchilik bilan, zo'rg'a", archmoq – "po'stini, qobig'ini olmoq, po'chog'ini tozalamoq". So'zlarning lug'aviy ma'nosi izohli lug'atda qayd etiladi. So'zning leksik ma'nosi uning o'zak, negizida bo'ladi. Ba'zi bir so'zda lug'aviy ma'no bo'lmaydi: lekin, bilan, ammo, uchun, sari kabi. Faqat mustaqil so'zgina

atash ma'nosiga ega. Olmosh bundan mustasno. U o'zi ishora qiladigan so'zning atash ma'nosiga ishora qiladi.

Grammatik ma'no nima ?

So'zning biror so'z turkumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi xususiyati grammatik ma'no deyiladi. Chunonchi, "Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydi" gapini olsak, "Bolalar" so'zida 2 xil ma'no ajralib turadi:1) lug'aviy ma'no - ya'ni bu so'zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish; 2) ko'plik sonida, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug'aviy, leksik ma'no bo'lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'no juda ko'p so'z uchun bir xil, ya'ni umumiy bo'ladi. Lug'aviy ma'no esa har bir so'zda alohida.

Lug'aviy ma'noning bir necha turi mavjud. Bu turlar o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha juftlikni hosil qiladi.

1. Semema va nutqiy ma'no. Semema va nutqiy ma'no haqida so'z yuritishdan oldin leksema tushunchasiga to'xtalib o'tish joiz.

Sistem yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik [stol], [ona], [ruchka], [bormoq], [qizil], [o'n] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining «buyrug'i»ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida «meros qilib qoldirilgan». So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashi

mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossasiga ega bo'la oladi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'llanilishi. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman gapidagi kitoblarni so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun [kitob] leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. [kitob] leksemasi ongimizda «varaقدan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan.

Leksema so'zdan boyroq va kengroq. Biroq so'z nutqda turli «begona» – bevosita leksemaga aloqador bo'lgan lisoniy va aloqador bo'lmagan kontekstual hodisalar bilan «boyitilgan», nutqda voqelanish uchun shakllantirilgan bo'ladi. Leksemaning «boy»ligi «o'ziniki»dir. So'z esa, aytilganidek, o'z asosidagi leksemaga tegishli bo'lmagan boshqa nolug'aviy omillar - fonetik, morfologik, sintaktik uslubiy mohiyatlar hamda nolisoniy hodisa zarralarini biriktirib, o'ziga tegishli bo'lmagan hodisalar hisobiga «boyiydi».

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni semema deyiladi. Semema ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko'rinishi. Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihati. Birorta leksemaning sememasi ikkinchi leksemaning sememasiga aynan o'xshash bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema

yo‘q. Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin bo‘lishimiz mumkin:

[yuz] - inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha bo‘lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

[bet] - inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha bo‘lgan qismining so‘zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Ko‘rinadiki, birinchi sememadagi «uslubiy betaraf» unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi «so‘zlashuv uslubiga xos» unsuri birinchi sememada yo‘q.

Agar semema aynan bo‘lib qolsa, demak, bu ular tavsifida noqislik mavjud deyishga asos bo‘ladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi so‘z qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan anglaydi.

Har qanday butunlik bo‘lakdan tashkil topganligi kabi, semema ham tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi. Masalan, leksema butunlik sifatida nomema va sememadan tashkil topadi.

Nomema butunligini tovush hosil qiladi. Tilshunoslikda sememani tashkil etuvchi unsur sifatida sema ajratiladi. Masalan, [kitob] leksemasi ikki sememali bo‘lib, uning bir sememasi «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo‘lyozma holdagi davriy bo‘lmagan o‘quv vositasi» bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) “varaqlardan tashkil topgan”;
- 2) “o‘quv vositasi”;
- 3) “davriy bo‘lmagan”;
- 4) “bosma yoki qo‘lyozma holdagi”;
- 5) “muqovalangan”.

Sememada bir sema almashtirilishi bilan u butunlay boshqa sememaga aylanib ketishi mumkin. Masalan, yuqoridagi «davriy bo‘lmagan» semasini «davriy bo‘lgan» semasiga almashtirsak, u o‘z-o‘zidan [jurnal] leksemasining sememasi bo‘lib qoladi.

Leksemaning semamasini aniqlashda u paradigmadoshi bilan munosabatda tekshiriladi. Deylik, [yuz] leksemasi sememasi ochilayotganda, u [bet], [aft], [chehra], [oraz], [turq], [bashara] va hokazo leksema qurshovida o‘rganiladi. [Kelmoq] leksemasi sememasini [bormoq], [ketmoq] va boshqa leksema sememalarisiz aniqlab bo‘lmaydi.

Sememaning gap, matnda namoyon bo‘ladigan ko‘rinishi nutqiy lug‘aviy ma’no deyiladi. Semema va nutqiy ma’no munosabati, albatta, boshqa lisoniy birlikda bo‘lgani kabi, dialektikaning umumiylik-xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat, umuman olganda, zot va tajalli dialektikasini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, barcha lisoniy birlik va ularning nutqiy voqelanishida kuzatilgan tayyor - tayyor emas, ijtimoiy-individual, cheklangan-cheksiz, barqaror-beqaror, takror- betakror umumnisbatli belgisi semema va nutqiy ma’no munosabatida o‘ziga xos tarzda tajallilanadi. Masalan, [yaxshi] leksemasining sememasi “umumiy ijobiy baho” bo‘lib, bu semema yaxshi qiz so‘z birikmasida odobli, yaxshi kitob so‘z birikmasida qiziqarli, yaxshi pichoq so‘z birikmasida o‘tkir, yaxshi o‘qituvchi birikmasida mahoratli degan nutqiy ma’nolar sifatida yuzaga chiqqan. [Yaxshi] leksemasining “umumiy ijobiy baho” sememasi tayyorlik, takrorlanuvchanlik, barqarorlik, ijtimoiylik belgilariga ega bo‘lsa, bu leksemaning nutqiy ma’nolari tayyor emaslik, betakrorlik, o‘tkinchilik, individuallik xususiyatiga ega. Nutqiy ma’no qanchalik cheksizlik kasb etmasin, uning asosidagi semema bittaligicha qolaveradi.

Sema turlari. Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);

2) ifoda semasi (konnotativ sema);

3) vazifa semasi (funktSIONal sema).

1. Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi soʻzlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi.

Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bogʻlab turadi. Masalan, yuqorida keltirilgan [kitob] leksemasining barcha semasi – atash semasi.

Bir xil yoki oʻxshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada koʻp holda atash semasi bir xil boʻladi. Masalan, [yaxshi], [tuzuk], [durust], [ajoyib] yoki [yuz], [chehra], [oraz], [turq], [aft], [bet] maʼnodoshlik qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. [Yaxshi], [tuzuk], [durust], [ajoyib] leksemalarining atash semalari quyidagilar:

1)«belgi»;

2)«barqaror belgi»;

3)«sifat belgi»;

4)«shaxsiy baho»;

5)«ijobiy»;

6)«ichki-tashqi». Shu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud boʻlib, ular [tuzuk] leksemasida «meʼyordan bir pogʻona pastlik», [yaxshi] leksemasida «meʼyordalik», [ajoyib] leksemasida «meʼyordan bir pogʻona yu-qorilik» semalaridir. [yuz], [chehra], [oraz], [turq], [aft], [bet] leksemalarida esa:

1) «in-son boshi old tomoniga xos»;

2) «peshanadan iyakkacha boʻlgan qism» semasi atash semasi.

Aytilganidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigmada o'z korrelyanti bilan tekshirilishi lozim. Aks holda leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim bo'lmagan) semasini farqlashning imkoni bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi [brother] leksemasining sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» atash semalariga ega. O'zbek tilidagi [aka] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «mendan katta» relevant semasi ham bor. Chunki [aka] leksemasi shu semasi bilan [uka] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Brother] leksemasiga shu sema bilan qarshilantiruvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «mendan katta/mendan kichik» semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lganligi sababli irrelevantdir. Rus tilidagi [kobila] leksemasida «urg'ochi» semasi muhim bo'lib, u o'zbek tilidagi [baytal] leksemasining ham, [biya] leksemasining ham muqobili bo'la oladi. Biroq [baytal] va [biya] zidlanishida «urg'ochi» semasi emas, «qulunli» ([biya] leksemasida) va «qulunsiz» ([baytal] leksemasida) semasi relevant (muhim).

Ko'rinadiki, leksema sememasi tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

2.Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememani farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, [yuz] va [bet] leksemasining ifoda semasi o'zaro qiyosda ochiladi:

- [yuz] - inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

- [bet] - inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Bu sememalardagi «uslubiy betaraf» ([yuz] leksemasidagi) va «so'zlashuv uslubiga xos» ([bet] leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semasidir.

[Turq] leksemasidagi «salbiy», [jamol] leksemasidagi «ijobiy» semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, [aeroplan] leksemasidagi «arxaik», [kompyuter] leksemasidagi «neologizm», [xarseb] leksemasidagi «shevaga xos» semasi qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi.

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari ingerent konnotativ sema va muhim bo'lmagan ifoda semalari adgerent konnotativ sema deyiladi.

3.Vazifa semasi leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, [kitob], [daftar], [maktab], [bormoq] kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. [Qat'iy], [keskin], [moviy], [qizg'ish] leksemalarining vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi. Masalan, mustaqil leksemada atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi. Ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksemada atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, [bo'ri] leksemasi odamga nisbatan qo'llanganda undagi «hayvon», «itsimonlar oilasiga mansub», «yovvoyi» atash semalari kuchsizlanib, «yirtqich», «vahshiy», «qonxo'r» ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.

Mustaqil leksema yordamchi so'z vazifasida qo'llanganda undagi atash va ifoda semasi kuchsizlanib, vazifa semasi esa kuchayib voqelanadi.

Semaning darajasiga ko'ra turi. Sema darajasiga ko'ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o'xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o'xshash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Masalan, [ota], [ona], [aka], [opa], [uka], [singil] leksemasidagi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» semasi integral sema bo'lsa, «mendan katta» semasi [ota], [ona], [aka], [opa] leksemalarini o'zaro birlashtiruvchi, ammo [uka], [singil] leksemalaridan farqlovchi semalardir. «mendan kichik» semasi [uka] va [singil] leksemasini o'zaro birlashtiruvchi, biroq oldingi leksemadan farqlovchi sema. Ko'rinadiki, bir sema leksemani bir vaqtning o'zida nima bilandir birlashtiruvchi, nima bilandir farqlovchi qarama-qarshi tabiatli mohiyatga ega. Birlashtiruvchi sema sistema hosil qiluvchanlik, sistemaga asos bo'luvchi, farqlovchi sema esa sistemada tug'iluvchi, paydo bo'luvchanlik xossasiga ega. Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzvli tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda, sema ximiyaviy elementga o'xshaydi. Borliqda ximiyaviy element turi sanoqli bo'lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad ko'p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko'plab semema vujudga keladi.

2. Atash ma'nosi va qo'shimcha ma'no. So'zning borliqdagi biror harakat-holat, narsa-predmet, miqdor, belgi-xususiyatni atovchi, nomlovchi ma'nosi atash ma'nosi deyiladi. Atash ma'nosi atash semalarining yig'indisidan tashkil topadi. Masalan, [kitob] so'zining atash ma'nosi «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi davriy bo'lmagan o'quv vositasi»dir. Atash ma'nosi tilshunoslikda denotativ ma'no ham deyiladi.

So'zning atash ma'nosiga qo'shimcha tarzda kishining his-tuyg'u, kayfiyati, turli munosabati va so'zning turli uslubda qo'llana olishini ifodalovchi ma'no so'zning qo'shimcha ma'nosi deyiladi. Masalan, yuz, bashara, chehra sinonimik qatorida atash ma'nosi bitta – “inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan

qismi”. Biroq bu soʻzlarning qoʻshimcha maʼnosi har xil. Yuz soʻzidagi “betaraf”, bashara soʻzidagi “salbiy”, chehra soʻzidagi “ijobiy” maʼno qirrasini – qoʻshimcha maʼnodir. Qoʻshimcha maʼno tilshunoslikda konnotativ maʼno, qoʻshimcha oʻttenka, emotsional-ekspressiv boʻyoq, stilistik belgi kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Qoʻshimcha maʼno asosan ikki xil:

- a) hissiy maʼno (emotsional-ekspressiv);
- b) uslubiy maʼno (stilistik).

Soʻzlovchining his-tuygʻu, kayfiyati, turli munosabatini bildiruvchi maʼno hissiy maʼno deyiladi. Hissiy maʼno ham oʻz navbatida soʻzlovchining qanday munosabatini koʻrsatishiga koʻra ikki xil boʻladi:

- a) ijobiy;
- b) salbiy.

Masalan, chehra soʻzi yuzni ijobiy maʼno bilan ifodalaydi. Bashara soʻzi salbiy munosabatni ifodalaydi.

Uslubiy maʼno soʻzning nutq uslubidan biriga mansubligini koʻrsatuvchi, uni nutq uslubiga koʻra tavsiflovchi xususiyatidir. Masalan, osh, non, yuz, chiroyli, osmon soʻzlari uslubiy betaraf boʻlib, samo, jamol, suluv, beshak, bashar, koʻklam, sabo soʻzlari badiiy uslubga, ketvorgan, obdon, bop, qittay, maza, urmoq, tushirmoq (yemoq maʼnosida) soʻzlari soʻzlashuv uslubiga, integral, hujayra, galaktika, kesim, kosiniy kabi soʻzlar ilmiy uslubga xos. Uslubiy betaraf soʻzni har qanday nutq uslubida qoʻllash mumkin. Uslubiy xoslangan soʻz maʼlum bir nutq uslubida qoʻllanadi.

Leksik maʼno deganda soʻz ifoda etadigan tushuncha, hissiy-taʼsiriy boʻyoq va uslubiy belgilar yigʻindisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-taʼsiriy boʻyoq, uslubiy belgi leksik maʼno komponentlari deyiladi.

3. Oʻz va koʻchma maʼno. Soʻz nutqda oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllanishi mumkin. Soʻzning nutqdagi maʼnosi uning sememasiga mos kelsa, bu oʻz maʼno

deyiladi. Masalan, oltin soʻzining sememasi “sariq rangli qimmatbaho metall”. Quyidagi gapda oltin soʻzi oʻz maʼnosida qoʻllangan: Oʻzbekistonda yuqori sifatli oltin qazib olinadi.

Soʻzning oʻzi anglatgan tushunchadan boshqa tushunchani obrazli, taʼsirli tarzda ifodalashi soʻzning koʻchma maʼnosi deyiladi. Quyidagi gapda oltin soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllangan: Yurtimizga oltin kuz kirib keldi. Bu gapda oltin soʻzi “toʻkin-sochin, farovon” degan maʼnoni obrazli, taʼsirchan ifodalagan. Gapdagi oltin soʻzini toʻkin-sochin soʻzi bilan almashtirsak, gapdagi obrazlilik yoʻqoladi. Koʻchma maʼno obrazlilik xususiyatiga ega boʻlganligi bois badiiy nutqda koʻp ishlatiladi:

Bahor toʻkib soldi bor bisotini,

Yashil yaproqlarda, gullarda bahor.

Tiniq koʻk, sof havo, oltin nurlarda,

Kumush suv, mayin yel, dillarda bahor. (Uygʻun)

Sheʼrdagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlar koʻchma maʼnoda qoʻllangan.

4. Zohiriy va botiniy-ramziy maʼno. Soʻzning hamma uchun tushunarli, koʻzga koʻrinadigan, oddiy, sodda maʼnosi zohiriy maʼno deyiladi. Masalan, suv soʻzining “tiniq, rangsiz ichiladigan suyqlik” maʼnosi zohiriy maʼno hisoblanadi.

Soʻzning hamma uchun tushunarli boʻlmagan, maxsus maʼnoda qoʻllanishi botiniy-ramziy maʼno deyiladi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi oʻzbek, Hofiz, Saʼdiy, Jomiy, Umar Xayyom kabi fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari oʻz gʻazal va dostonlarida soʻzning zohiriy maʼnolari bilan birga ramziy, ishorali maʼnolaridan ham foydalanganlar. Ularning asarlarida uchraydigan yor, mahbuba, suyukli, oshiq, gul, bulbul, tikan, soqiy, rind, sharob, may, mayxona kabi koʻpgina soʻzlarda islom dini va falsafasi asosida boshqa xil – botiniy-ramziy, ishorali maʼnolar yashiringan. Bu soʻzlarning botiniy-ramziy maʼnolari Haqqi mutlaq, yagona va yakka Ollohga ishora qilish, borliqni yaratish

sababchisining sifatlarini ramziy timsollar orqali vositasida ifodalashga xizmat qilgan. Ular go‘zal yor va ma’shuqa deganda Haqning o‘zini, gul deganda uning go‘zalligini, may, sharob deganda Haqni topish vositalari – xudoga muhabbat, yaxshilik qilish, o‘zni tiyishni tushunganlar. Oshiq, bulbul, majnun kabi so‘lar Haqni topishga intiluvchi Haq toliblariga, Haqtalablarga ramziy ishora qilib turadi.

So‘zlarning botiniy ma’nolarini bilish ma’rifat, ya’ni bilag‘onlik, donolik hisoblanadi. Mumtoz adiblarimiz g‘azallariga botiniy-ramziy ma’nolar asosida yondashsak, g‘azalning oddiy, ishqiy ma’nosi tamoman boshqacha – falsafiy, diniy mazmun kashf etadi. Misol tariqasida Boborahim Mashrabning bir baytini shu nuqtayi nazardan tahlil qilamiz:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?

Ibrohimdan qolgan ul eski do‘konni na qilay?

Bu baytdagi so‘zlarni zohiriy ma’noda tushunsak, Mashrab bizni aysh-ishratga chorlayotgan, kufr so‘zlarni aytayotgan bo‘lib chiqadi. Chunki yor so‘zining zohiriy ma’nosi “sevgili, ma’shuqa, go‘zal ayol”, boda so‘ziniki esa “may, ichkilik, sharob”dir. Biroq baytdagi yor, boda so‘zlari botiniy-ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, yor Haqni, boda esa xudoga muhabbat, e’tiqodni bildirib kelgan. Demak, Mashrab bu baytda: “Ko‘nglingda xudoga muhabbat, e’tiqod bo‘lmasa, Makkaga, ya’ni haj ziyoratiga borishingdan foyda yo‘q” degan ma’rifiy fikrni ifodalagan.

Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar: Tildagi so‘zlar bir ma’noli va ko‘p ma’noli bo‘ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma’noni ifoda etuvchi o‘zlar bir ma’noli so‘zlar⁷ deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g‘oya, mimika, qobiliyat, fonema va b.

So‘zlar ba’zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma’noni, gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda boshqa bir ma’no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so‘zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq

⁷ Bir ma’nolilik – monosemantizm (gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma’no») deb yuritiladi.

ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar⁸ deyiladi.

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin.

Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi:

- 1) bosh (asl, o'z) ma'no;
- 2) yasama (ko'chma) ma'no. Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, og'iz so'zining bosh ma'nosi insonning tana a'zosi, g'orning og'zi, qopning og'zi yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosi gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi.

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) metafora;
- 2) metonimiya;
- 3) sinekdoxa;
- 4) kinoya;
- 5) vazifadoshlik.

⁸ Ko'p ma'nolilik – «polisemantizm» (gr. poli – «ko'p», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

Metafora (grekcha metaphora – «ko‘chirma») narsa va hodisalar orasidagi o‘xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo‘lgan so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun qo‘llashdir, metaforada shakliy o‘xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli ot, sifat va fe‘l turkumlarida metafora yo‘li bilan ko‘chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, yengil, pasaydi so‘zlarining ma’nosini kuzating:

Tish: 1) odamning tishi (bosh ma’no);

2) arraning tishi (yasama ma’no).

Metaforaga quyidagilar asos bo‘ladi:

1) odamning tana a’zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko‘z, lab, tish, yelka, oyoq, og‘iz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a’zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) o‘simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari bo‘lgan so‘zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’no ko‘chish hodisasi. Bu aloqadorlik o‘rin va vaqt jihatdan bo‘ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo‘ladi. Quyidagi gaplardagi so‘zlarning ma’no munosabatini kuzating:

Sinekdoxa—narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o‘zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma’no ko‘chish hodisasidir. Masalan: Besh qo‘l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o‘zimizdan qoladigan tuyog‘imiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig‘, ketmon – «jangchi» ma’nosida), hayvonlarning biror a’zosi nomini o’sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyoq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong‘oq, olma, nok, uzum) qo‘llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo‘l so‘zini «barmoq» ma’nosida) qo‘llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

Kinoya – so‘zlarning aks ma’noda qo‘llash hodisasi. Bunday ko‘chishlar yozuvda qo‘sh tirnoqqa olinadi. Masalan: Shunaqa «do‘stlar»ning kamroq bo‘lgani ma’qul.

Vazifadoshlik — asosida ma’no ko‘chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chish hodisasidir. Ma’noning bunday ko‘chishi metaforadagi kabi o‘xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta’sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o‘q, siyoh, qalam kabi so‘zlarning ma’nolaridagi ko‘chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o‘xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Graftitli yozuv quroli paydo bo‘lgandan so‘ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to‘g‘ ridan to‘g‘ ri qalam deb atay berganlar.

O‘q - yoy o‘qi; o‘q - miltiq o‘qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o‘xshashdir.

Siyoh so‘zi tojik tilida «qora» degan ma’noni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo‘lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo‘llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko‘k, yashil)

ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosi qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosi ko'k qora).

Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma'no ko'chishi kam mahsul hodisalardir.

Leksik birliklar lisonida turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat.

Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi.

Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida [yuz]-[bet]-[aft]-[bashara]-[turq] qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «odam boshi old tomoni», «peshonadan iyakkacha». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos. Aniqrog'i, «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo'lgan. U [yuz] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko'rinishida bo'lsa, [turq] leksemasida «o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzida.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat sema;
- 2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: «eskirgan», «yangi», «o'ta yangi», «arxaik», «tarixiy».
- 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va h.k.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil

qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, [katta]-[ulkan]-[bahaybat] sinonimik qatori «kitobiylik», «ko‘tarinkilik» ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), [ulkan] va [katta] leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma‘nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o‘ziga xos xususiyati bor:

1) dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag‘alroq» bo‘ladi. Qiyoslang: [chiroyli], [go‘zal] va [suluv]. Qatordagi [chiroyli] leksemasida [go‘zal] va [suluv] leksemasidagi ko‘tarinkilik bo‘yog‘i yo‘q;

2) dominanta leksemaning qo‘llanish doirasi va miqdori boshqa ma‘nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko‘p bo‘ladi;

3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo‘lganligi bois istalgan vaqtda o‘z ma‘nodoshlarini almashtira oladi;

4) ma‘nodoshlik qatori mansub bo‘lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a‘zolari» lug‘aviy ma‘noviy guruhiga [yuz] dominanta leksemasi kirib, [quloq], [burun], [lab], [qosh], [peshona] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksema «betaraf» bo‘lolmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va uning betaraf vakili bu huquqqa ega bo‘la oladi, xolos.

Ma‘nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste‘moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma‘nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so‘z, so‘z birikmasi, nutqiy ko‘chma so‘z bilan to‘lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go‘zalligi va boyligini ta‘minlovchi vosita sanaladi.

Antonimiya leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: [katta]-[kichik], [yosh]-[qari], [mitti]-[ulkan], [oq]-[qora] va hokazo. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim. Masalan, [katta] va [kichik] leksemalari umumiy - «sifat», «ko'lam» semasi bilan birga, qarama-qarshi - «nisbatan ortiq» ([katta]) va «nisbatan katta bo'lmagan» ([kichik]) semasiga ham ega. Yoki [qish] - «yilning eng sovuq fasli», [yoz] - «yilning eng issiq fasli», [kirmoq] - «ichkariga harakatlanmoq», [chiqmoq] - «tashqariga harakatlanmoq». Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar: [issiq]-[sovuq] (harakat), [katta]-[kichik] (hajm), [erkak]-[ayol] (jins) va hokazolar.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b)komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, [kichik]-[o'rta]-[katta], [yosh]-[o'smir]-[o'rta yosh]-[qari] kabi. Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi [o'rta] leksemasida [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: [rost]-[yolg'on], [arzon]-[qimmat], [oson]-[qiyin]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q.

Antonimlar strukturasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

har xil o‘zakli antonim: [katta]-[kichik], [kirmoq]-[chiqmoq], [muhabbat]-[nafrat];

bir xil o‘zakli antonim: [madaniyatli]-[madaniyatsiz], [aqlli]-[aqlsiz], [ongli]-[ongsiz].

Fanda antonimlar asosan sifat va ravish turkumiga xos degan hamda har xil o‘zaklilarini tan olishdek tor tushunish ham mavjud.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipo-giperonimiya), ya’ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik. Giponim esa ma’lum jins turining nomini hamda o‘zining semantik tarkibida implitsit tarzda jins ma’nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa ob`ektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog‘liq. Masalan, [daraxt] giperonimi jins ma’nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan [daraxt] leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, [daraxt]-[qayin], [daraxt]-[terak], [daraxt]-[dub], [daraxt]-[archa].

Giponimlar teng huquqli bo‘lib, giperonimga munosabati bir xil. O‘z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog‘lanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi [daraxt] nomi dastlab ikki guruhga bo‘linadi: mevali daraxt va manzarali daraxt. Mevali daraxt o‘z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko‘p ma’noli bo‘lganligi bois bir tomondan [meva], ikkinchi tomondan [daraxt] giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

[Meva]: [olma]-[o‘rik]-[shaftoli]-[behi].

[Daraxt]: [olma]-[o'rik]-[shaftoli]-[behi].

[Daraxt] giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu jinsning turini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. [Daraxt] leksemasi uning turi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: o'rik daraxti, shaftoli daraxti kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, [daraxt] giperonim leksemasining sememasi «tanasidan shoxlanuvchi o'simlik» bo'lib, «qizil, yashil, yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt» sememasiga ega [olma] leksemasining «daraxt» semasi [daraxt] giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va «xiraroq» (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va «yorqinroq». Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'sh xona) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: mevali daraxt va mevasiz daraxt so'z birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunaga ega bo'ladi. Bu bo'sh xona ayni bir jinsning turli belgisi bilan chegaralanmagan miqdorda to'lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun o'zbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lug'aviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham («mevali daraxt» va «mevasiz daraxt»

tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani ma'lum bir kishining bilmasligi) bo'lishi mumkin.

Graduonimiya. Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum va uning eng yorqin namunasi - [o'rta] so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatori.

Masalan:

[Katta]-[o'rta]-[kichik]

[Yosh]-[o'rta]-[qari]

[Uzoq]-[o'rta]-[yaqin]

[Baland] -[o'rta]-[past]

[Uzun]-[o'rta]-[qisqa].

Ma'lumki [o'rta] so'zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir-biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. [O'rta] leksemasi antonimlar oralig'idan o'rin olsa, (katta-o'rta-kichik) darajalanishi kam seziladi. Lekin [o'rta] leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini

a) g'ayrilisoniy asos;

b) sof lisoniy asosga

tayanib ajratish mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson go'daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatini, o'simlik navnihollik,

ko‘chatlik, etilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi - organizm o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo‘yoqchilar birgina qora rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo‘lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, [nihol]-[ko‘chat]-[daraxt], [ninna]-[chaqaloq], [go‘dak]-[bola], [buzoq]-[tana]-[g‘unajin]-[sigir] kabi.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

- a) ma‘noviy omil;
- b) so‘zlararo paradigmatic munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma‘noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligi, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, darcha-eshik-darvoza leksemasining «O‘zbek tili izohli lug‘ati»dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha - ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tavaqali, eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha (O‘TIL, I, 212.)
2. eshik - uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama (O‘TIL, II, 457).
3. Darvoza - hovli, qo‘rg‘on, qal‘a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa (O‘TIL I, 209.)

Ajratilgan so‘zlar miqdoriy ko‘rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu [darcha] leksemasi izohidagi (kichkina) va (eshikcha) so‘zlari, [darvoza] leksemasi izohidagi [katta] so‘zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: [gulobi]-[pushti]-[qizg‘ish]-[qizil]-[ol]-[qirmizi].

Bu leksemalar qayd etilgan lug‘atda quyidagicha izohlangan:

1. GULOBİ - gulob rangli, pushti (O‘TIL, I, 197)
2. PUSHTI - shaftoli guli rangidagi, och qizil (O‘TIL, II, 608)
3. QIZG‘ISH - qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg‘imtir (O‘TIL, II, 573) .
4. QIZIL - qon rangidagi, qirmizi, olvali (O‘TIL, II, 570)
5. OL - qizil, qirmizi (O‘TIL, II, 529)
6. QIRMIZI - qizil rangli, qizil, ol (O‘TIL, II, 581)

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o‘zining graduonimik tizimidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a‘zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo‘lishar edi:

1. GULOBİ – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo‘yoqli rang.
2. PUSHTI – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to‘qroq.
3. QIZG‘ISH – pushtidan to‘qroq, qizildan ochroq, qizg‘imtir rang.
4. QIZIL – qon rang.
5. OL - qizildan to‘qroq rangli.
6. QIRMIZI – to‘q qizil rangli.

Bu leksemalar denotativ ma‘nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi.

«qizillik»

-3	-2	-1	0	+ 1	+ 2
[gulobi]	[pushti]	[qizg‘ish]	[qizil]	[ol]	[qirmizi]

Demak, lug‘aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma‘noviy omil o‘zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma‘lum bir belgining

turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo'ladi. Shu asosda ma'noviy omilning o'zi ikki turga bo'linadi:

1) bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchani ifodalashi;

2) ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug'aviy paradigmaga qo'yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

1) lug'aviy paradigmaning bitta yetakchi leksema (dominanti) atrofida birlashishi;

2) lug'aviy paradigmaning ochiqligi;

3) lug'aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;

4) lug'aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab, lug'aviy ma'noviy qatorda, tizimda namoyon b'ylishi bo'lib, bunda dominanta va qurshov leksemai farqlanadi.

Lug'aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjud:

a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni tajallilanadi;

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

v) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir etakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatorni -

paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Tildagi soʻzlar shakl xususiyatiga koʻra ham oʻzaro turli munosabatda boʻladi. Soʻzlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari maʼno jihatdan, ил, к(ган турли рангдаги сую баʼzilari esa talaffuzi jihatidan oʻxshash boʻladi. Shu xususiyatlariga koʻra soʻzlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1. Omonim soʻzlar. Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar omonimlar deyiladi. Omonim soʻzi grekcha «bir xil» degan maʼnoni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - ism; ogʻiz - insonning tana aʼzosi, ogʻiz - yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang - toʻzon, gard, gʻubor, chang – toʻrtburchak, yassi quti shaklidagi torlar tortilgan qoʻsh choʻp bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana aʼzosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot.

Omonim soʻzlar turkumiga (yuz – insonning tana aʼzosi, ot; yuz - miqdor bildiruvchi son) oid boʻladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi:

- 1) lugʻaviy omonimlar;
- 2) grammatik omonimlar.

Lugʻaviy omonimlar:

- 1) soʻzlar doirasida;
- 2) iboralar doirasida boʻladi.

1. Omonimlik hodisasi soʻz bilan soʻz doirasida boʻlsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil boʻladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun) Kul (feʼl) - zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi kuladi, koʻzlari yonadi? (H.Gʻulom)

2. Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq - qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. Shakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qo'shimchasi bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi. Kitobim – I shaxs, birlik qo'shimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qo'shimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qo'shimcha.

Ba'zi omonim so'zlar qo'shimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi so'z –ter ot turkumiga oid so'z bo'lib, I shaxs, birlik egalik qo'shimchasini olgan, ikkinchisi fe'l turkumiga oid so'z ot yasovchi –im qo'shimchasini olgan. Bu so'zlar bir xil shaklini saqlab qolgan.

Qo'shimchalar qo'shilganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladigan so'zlar omoformalar deyiladi. Omoformalar bir xil so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumiga ham oid bo'ladi. Masalan, 1) bog' - mevazor (ot); 2) bog' - bog'ich (ot). Ularning qo'shimcha olgandan keyingi grammatik shakllari:

1) bog' ni, bog' ning, bog' dan;

2) bog' ni, bog' ning, bog' dan.

Qiyoslang: oq (sifat)+ar – fe'l yasovchi qo'shimcha;

oq (fe'l)+ar – sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha.

Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, og'zaki so'zlashuv nutqida so'z o'yinlari, askiyalarda qo'llanadi.

Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - hordiq

(ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

2. Paronim so'zlar. Birdan ortiq so'zning shakliy o'xshashligi paronimiya deyiladi. Talaffuzi bir-biriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronim so'zlar deyiladi. Masalan, asr va asir, afzal va abzal, sher va she'r kabi so'zlar talaffuzda bir xil aytisa-da, yozilishda farq qiladi. Ma'nosi ham butkul boshqa-boshqa. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan dubletdan farqlash kerak: arava – aroba, shabada – shabboda, benihoya – benihoyat, gado – gadoy kabilar paronim emas, dublet, variantdosh so'zlardir.

Paronimlar talaffuz jihatdan o'xshash bo'lganligi uchun undan qofiya sifatida keng foydalaniladi.

Paronimning uslubiy xususiyati. Paronimni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida xatolik yuz beradi: Chanoqdagi lo'ppi ochilgan paxta quyoshda yarqirab, kumushdek toblanadi. Bu gapdagi toblanadi so'zi o'rinda tovlanadi so'zi ishlatilishi kerak edi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi.

O'zbek xalqi qardosh bo'lmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada bo'ldi. Shuning tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

O‘z qatlam. O‘z qatlamga umumturkiy so‘zlar va o‘zbekcha so‘zlar kiradi.

1. Umumturkiy so‘zlar. Ko‘pchilik turkum xalqlar tilida qo‘llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar umumturkiy so‘zlar deyiladi. Bu so‘zlar turkiy qabilalarning goh qo‘shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so‘zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: o‘zbek, qozoq, uyg‘ur, boshqird, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no‘g‘ oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qo‘miq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud.

Umuturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi.

Umuturkiy so‘zlar turli sohalarga oid bo‘lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg‘u bildiradigan so‘zlar kiradi: kishi, oyoq, qo‘l, bosh, ko‘z, qosh, qizil, ko‘k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to‘rt, o‘n, kel, tur, yot, o‘tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. O‘zbekcha so‘zlar. O‘zbek tili sharoitida o‘zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so‘zlar o‘zbekcha so‘zlar deyiladi. O‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida, o‘z qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o‘zbekcha so‘zlarga shu tildagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilingan so‘zlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qo‘l+lan+ma, o‘t+kaz+gich, tur+g‘un, bola+larcha.

2. Boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarga o‘zbek tilidagi yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan yasalgan so‘zlar: a) tojikcha so‘zlardan yasalgan so‘zlar: mard+lik, jang+chi, do‘st+lik, pul+siz; b) arabcha so‘zlardan yasalgan so‘zlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li; v) ruscha-internotsional so‘zlardan yasalgan so‘zlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olinma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid.

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin:

1. Tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimog' , idora kabi.

3. Ruscha-internotsional so'zlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko'plab so'zlar o'zlashdi.

O'zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) so'z kirishi ikki tarixiy davrni o'z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davr.
2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan so'zlar ikki yo'l bilan o'zlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan ogʻzaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), poʻshta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi.

Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular, odatda, internotsional (baynalminal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internotsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: sudya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.

3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi.

4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.

6. Frantsuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, sanʼat, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Hozirgi Yevropa tillaridan soʻzlar bevosita aloqalar orqali oʻzlashmoqda. Masalan, oʻz navbatida soʻzlar oʻzbek tilidan rus tiliga ham oʻzlashmoqda: oʻrik, anjir, somsa (uryuk, injir, samsa) kabi.

Xalqlar orasidagi turli xildagi aloqa tillarning lugʻat tarkibining boyib borishiga xizmat qiladi.

O'zbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo'llanmaydi. Ayrim so'z keng jamoatchilik tilida qo'llansa, ba'zilar esa ma'lum territoriyada yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. Shunga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi.

O'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo'llanadigan so'zlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar barcha o'zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko'ra ular umumiste'moldagi so'zlar deb ham yuritiladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan so'zlar ham o'zbek xalqining barchasiga tushunarli bo'lsa, ular ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, mag' rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya so'zlari; tojik tilidan o'zlashgan go'sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi so'zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi so'zlar umumxalq tilida qo'llanadi.

Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar o'z qatlamga ham, o'zlashgan qatlamga ham oid bo'lishi mumkin.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi so'zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so'zlarning ishlatilishi ma'lum sabablarga ko'ra chegaralangan

bo'ladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal so'zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi.

Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga ko'ra chegaralangan so'zlar bo'lib, ular adabiy tilga kirmaydi. Ma'lum bir hududdagi kishilar nutqida qo'llanib, ulargagina tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zlari deyiladi. Sheva so'zlari yig'indisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha so'z bo'lib, dialektos – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. Shuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektlarga xosdir.

Misollar: qorinja (chumoli), g' o'z (yong' oq), karvich (g'isht) – Xorazm; norbon (narvon), bodrak (varrak), poku (ustara) – Buxoro; mishiq (mushuk) - Farg' ona; inak (sigir), mo'rcha (chumoli), pishak (mushuk) - Samarqand shevasida.

Shevadagi ba'zi so'zlar adabiy tilda ham bo'lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi. Masalan: kosa so'zi Xorazm shevasida «piyola» ma'nosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan so'zi Xorazm shevasida kir yuvadigan tog' ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» ma'nosini bildiradi.

Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qaharlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida sheva so'zlardan foydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug'ullanib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, naqqoshshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog' chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog' och, bandak, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola

gazcho‘p (asbob) kabi maxsus so‘zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo‘llanadi va ular uchun tushunarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko‘rsatishda kasb-hunarga doir so‘zlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so‘zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo‘llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo‘llanadi va ular bir ma’noli bo‘ladi.

Ba’zi atamalar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo‘llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so‘ziga aylanadi. Masalan, o‘qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O‘tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o‘g‘rilar, firibgarlar o‘z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o‘zlariga tushunarli so‘z va iboralardan foydalanganlar.

Tilda sinfiy ayirmalikni ko‘rsatib turadigan bunday so‘zlar «sinfiy dialektning so‘zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so‘z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe’ qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne’mati jannat (yor, mahbuba), shavaqu’ aylang (umid bilan kuting), tanzil (foйда).

O'g'rilar, qimorbozlar orasida qo'llanadigan so'zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsoner), bedana (to'pponcha), xitola (o'g'irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo'lgan: yakan (pul), joyi (yo'q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so'm), saru nimsar (bir ming besh yuz so'm), kapara (olti ming so'm). Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlamga ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o'zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo'lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so'zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so'zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so'zlar yangilik bo'yog'iga ham, eskilik bo'yog'iga ham ega bo'lmaydi.

Zamonaviy qatlamda so'zlarning nutqda ko'p yoki kam ishlatilishi, barcha kishilarning ishlatishi yoki ma'lum guruh kishilari nutqidagina ishlatilishi asosga olinmaydi.

Demak, yangilik va eskilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar eskirgan qatlam. So'z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo'qolishi, yoki ularning ma'nosini ifodalaydigan boshqa so'zlarning paydo bo'lishi munosabati bilan ayrim so'zlar asta-sekin qo'llanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam qo'llanadi. Ularning ba'zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko'pchilik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo'llansa, izoh talab etadi. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eskirgan leksika deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy soʻzlar yoki istorizmlar.

2. Arxaik soʻzlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy soʻzlar oʻtmishdagi narsa va hodisalarning nomi boʻlgan, ammo hozir eskirib qolgan soʻzlar tarixiy soʻzlar deyiladi. Tarixiy soʻzlar jamiyatda yoʻq boʻlib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda qoʻllaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimi yoʻq. Masalan: foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chaqirim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri (5 tiyin).

Baʼzi soʻzlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan boʻlib qoladi. Bunday soʻzlarning bir maʼnosi eskirsa, ikkinchi xil maʼnosi zamonaviy qatlamda ishlatiladi.

Masalan: boy soʻzining maʼnosini qiyoslang: Boy Yoʻlchini zimdan kuzatdi (Oybek). Sen boy boʻlaman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima boʻldi?

Arxaik soʻzlar. Hozir mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik soʻzlar deyiladi. Arxaik soʻzlar yigʻindisi arxaizmlar deyiladi. Arxaizm – grekcha soʻz boʻlib, archaios – «qadimgi» degan maʼnoni bildiradi.

Eskirgan soʻz ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor boʻlgani uchun uning eskirgan nomini almashmay oladigan zamonaviy qatlamga oid soʻz mavjud boʻladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi boʻlsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik boʻyogʻiga ega boʻlib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib soʻzi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng koʻlamda qoʻllanilyapti. Sekretar soʻzi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik soʻzlar soʻzlovchining koʻz oldida isteʼmoldan chiqib ketayotgan soʻzlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional).

Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), oʻmiz (koʻkrak) kabi.

Soʻzlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror maʼnosi arxaiklashishi mumkin. Shunga koʻra ular: a) leksik arxaizmlar; b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil boʻladi.

Leksik arxaizmda soʻz eskiradi: gulgun, siymo (obraz).

Semantik arxaizmda maʼno eskiradi: chechak – «gul» maʼnosida eskirgan, bekat – karvonlar toʻxtaydigan joy maʼnosida eskirgan, bagʻir – «jigar» maʼnosida eskirgan, davlat – «boylik» maʼnosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatik hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati koʻp, lekin grammatik hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif –lom qilib, gardonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdoshning –din, -mish shakllari, ravishdoshning –bon, -ibon shakllari, -dur – kesimlikni koʻrsatuvchi bogʻlama eskirgan grammatik shakllardir.

Fonetik arxaizmlar ham mavjud boʻlib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq).

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi yangi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan soʻzlar yoki yangi maʼnoda qoʻllangan eski soʻzlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha soʻz boʻlib, neos – «yangi» degan maʼnoni bildiradi. Neologizm yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlardir. Masalan: bakalavr, magistratura, kompyuter, kompyuter texnologiyasi, marketing, supermarket kabi. Neologizmlar yangi paydo boʻlgan paytda, ishlatilish doirasiga koʻra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmni maʼnosi tushunarlilik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik boʻyogʻini yoʻqotadi va umumxalq soʻziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt va hokazo.

Ba'zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralangan leksikadan o'rin olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha. Chunki har bir davr o'z neologizmiga ega bo'ladi.

So'z yoki so'zning ma'nosi neologizm bo'lishi mumkin.

So'z neologizm bo'lsa, leksik neologizm deb yuritiladi: broker, ...

Leksik neologizmlar tamomila yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir. Bunday so'zlar: 1) o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan yangi so'zlardir: yetti yillik; 2) boshqa tildan kirgan hali umumxalq tiliga singib o'zlashib ketmagan yangi so'zlardir: magistr, bakalavr.

Leksik ma'nolardan biri yangi bo'lsa, semantik neologizm deb yuritiladi. Masalan: Yo'ldosh (yer yo'ldoshi), payvandchi (metallni ulovchi). Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan birgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy tizimda bu hissiy munosabatni tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemdir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi.

Bo'yoqsiz leksika. O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Masalan, [bor], [yo'q], [katta], [mazali], [daryo], [urmoq], [chiroyli], [tez], [husn] kabi leksemalar borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi mumkin. Masalan, [katta] leksemasining lisoniy mohiyati - sememasi bo'yoqsiz. Biroq u nutqda boshqa nolug'aviy tajallilar bilan qorishib, bo'yoq kasb etadi. Dengiz k-a-tta edi gapida fonetik tajalli ta'sirida [katta] leksemasi bo'yoqdor nutqiy birlikka aylangan.

Bo‘yoqdor leksika. Bunday leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo‘rtib turadi: [ulkan], [badnafs], [qiltiriq], [oniy], [tashrif], [oraz], [yovqur], [mahliqo], [badbashara] va h.k.

Bo‘yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra bo‘yoqdor leksemalar ijobiy bo‘yoqdor leksema va salbiy bo‘yoqdor leksemaga bo‘linadi.

Ijobiy bo‘yoqdor leksema so‘zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo‘ladi.

Misollar:

1. Onam deganimda, oqsoch, jafokash munis va mehribon chehrang bo‘lar namoyon (G‘.G‘ul.).
2. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko‘rmadi (M.Ism.).
3. Orazin yopqoch, ko‘zimdan sochilur har lahza yosh (Nav.)

Salbiy bo‘yoqdor leksema borliq hodisasiga so‘zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo‘rtib turadi.

Misollar:

1. So‘ngra yakkam-dukkam iflos tishlarini yashirgan og‘zini katta ochib esnadi, go‘yo uning butun badburush yuzini og‘iz qopladi (Oyb.)
2. U bir ko‘ngli borib, muttaham qozining tumshug‘iga tushirgisi, yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.Ism.)

Ijobiy bo‘yoqdor leksema nutqda salbiy bo‘yoqdor leksema o‘rnida voqelanishi mumkin. 1. Jamolingizni (“basharangizni” ma’nosida) boshqa ko‘rmay! 2. Rosa xursand qildingiz (“xafa qildingiz” ma’nosida).

Leksemaning ijobiy va salbiy bo'yog'ini ijobiy va salbiy ma'nodan farqlash kerak. Masalan, [yaxshi] leksemasi ijobiy ma'noga ega, ammo uning ifoda semasi bo'yoqdorlikni ko'rsatmaydi, ya'ni u bo'yoqsizdir. [xunuk] salbiy ma'noga ega bo'yoqsiz leksema.

Uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi

Leksema nutq uslubiga munosabatiga ko'ra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi.

Uslubiy betaraf leksika. Uslubiy betaraf leksema barcha uslublarda birdek va bab-baravar ishlatilaveradi va uning ifoda semalarida uslubga munosabat «uslubiy betaraf» deb beriladi: [kel], [bor], [o't], [ket], [kitob], [qalam], [stol], [mashina], [oq], [qora], [tez], [sovuq], [faqat], [lekin] va h.k. Lekin nutqda ko'chma ma'noda ishlatilganda, bu ma'nosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, [sovuq] leksemasi «xunuk» ma'nosida (sovuq rangli) faqat so'zlashuv yoki badiiy uslubga xos.

Uslubiy xoslangan leksika. Uslubiy xoslangan leksikani uchga bo'lish mumkin:

- a) kitobiy leksika;
- b) badiiy leksika;
- v) so'zlashuv leksikasi.

Ilmiy, rasmiy va publitsistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, kitobiy leksika deb yuritiladi:

- **ilmiy leksikaga oid birlik:** [integral], [meridian], [tangens], [olmosh], [bo'lish], [ko'paytirish];
- **rasmiy leksikaga oid birlik:** [bayonnoma], [buyruq], [farmon], [qo'mita], [sessiya], [tashkilot];
- **publitsistik leksikaga oid birlik:** [jangovar], [mafkura], [ilg'or], [ittifoq], [jahon], [afkor].

Bunday leksemaning uslubga xoslikni ko'rsatuvchi ifoda semasi «ilmiy nutqqa xos», «rasmiy nutqqa xos», «publitsistik nutqqa xos» deb belgilanadi.

Badiiy leksikaga ifoda semalari sirasida «badiiy nutqqa xos» semasi mavjud, badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan leksik birliklar kiradi: Mehnat bilan topadi iqbol (Yo.Mirz.). Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror (Uyg'). Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar zavq baxsh etar, ko'nglini ko'tarar, sog'lig'ini saqlardi (Shuhr.). Kundan kunga yashnamoqda ko'rking, jamoling. (/ayr.) Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi (Sh.Rash.). Yaxshi qoling, sevgan yurtu diyorim (Hamz.).

Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publitsistik va so'zlashuv uslubiga xos birlik ham bimalol ishlatilaveradi.

So'zlashuv leksikasiga oddiy so'zlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qo'llaniladigan, adabiy til uchun me'yor bo'lmagan leksema kiradi: [ketvorgan], [po'rim], [qitday], [mullajiring] kabi. Misollar: O'ylab ko'rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg'a yo'q ekan. Ruchkaning poshshaxoni, perosi oltindan (N.Saf.). Shomahdiyevning qilig'i ma'lum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani cho'ktirishdek mashaqqat (A.Muhid.). Qizlaringizni jerkiysiz, so'kasiz... Xo'sh, nima uchun To'lani yumshoq paxtaga o'rab papalaysiz?! (M.Ism.) Jillaqursa juvoldiz bilan qarashay dedim (Oyb.). enang besh-o'n tanga pul so'rab yubordi. Bo'lsa, chiqarib ber, boyoqishlar chaynab tursin. (Oyb.) Mazza qilib kartoshkani tushirib tursang... (Say.)

So'zlashuv leksikasiga kiradigan leksemaning tegishli ifoda semasi «so'zlashuv nutqiga xos» deb yuritiladi.

Leksemaning uslubiy xoslanganligi ularning boshqa bir uslubda qo'llanmasligidan dalolat bermaydi. Masalan, so'zlashuv uslub i erkin uslub sanaladi va unda boshqa uslub unsurini bimalol ishlatish mumkin. Ammo leksemani ma'lum bir uslubda qo'llash nutq me'yoriga muvofiq bo'lishi lozim.

Mazu yuzasidan savol va topshiriqlar:

- 1.Leksikologiyada nimalar o'rganiladi?
- 2.Leksik ma'no nima?
- 3.So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra nechiga bo'linadi?
- 4.Grammatik ma'no deganda nima tushuniladi?

4-mavzu. Morfemika. So'z yasalishi

Reja:

1. Morfema morfemik birlik sifatida.
2. Morfemaning funksional-semantik xususiyatiga ko'ra turlari.
- 3.So'zning morfemik tarkibidagi o'zgarishlar.
4. So'z yasalish tarkibi va usullari.
- 5.So'z turkumlarida so'z yasalishi.

Tayanch tushunchalar: *Morfema, morfemika, morfologiya, affiksatsiya, kompozitsiya, soʻz yasalishi, asos, qoʻshimcha, oʻzak morfema, affiksali morfema*

Morfemika grammatikaning alohida bir boʻlimi boʻlib, soʻzlarning morfemik tarkibini, undagi morfemalarning oʻzaro munosabatini, turlarini oʻrganadi. Morfemika-soʻzning maʼnoli qismlari haqidagi taʼlimot. Soʻzning morfem tarkibi uni tashkil etuvchi morfemalar yigʻindisidir. Masalan: yoq/moq, inkichka/la/moq, ikki/lan/moq, manfaat/parast, manfaat/dor. Soʻz birgina morfemadan iborat boʻlishi mumkin: koʻz, kalla, kalit, non, gul. Bir morfemali soʻzlar faqat oʻzakdan iborat boʻlib, odatda tub soʻz hisoblanadi. Eng sodda morfem tarkibli soʻzlar tub soʻzlardir. Ular odatda birgina morfemadan-oʻzakdan tashkil topgan. Ovloq, qishloq soʻzlarining morfem tarkibini tahlil qilganda –loq qismi boshqa soʻzlar (qumloq, oʻtloq) tarkibida morfema sifatida ajralsa ham bu soʻzlar tarkibida ajratilmaydi. Bu soʻzlar tarkibidagi morfemalar tarixan mustaqil boʻlgan boʻlsa ham bugungi kun nuqtayi nazaridan morfema sifatida ajratilmaydi.

Morfema – soʻzning ifoda qilinishi jihatidan tovushdan keyin turadigan semantik–morfologik birlik boʻlib, soʻzning eng kichik maʼnoli qismidir. Morfema soʻzning qayta boʻlinmaydigan eng kichik maʼnoli qismi sifatida leksik maʼnoni ham, grammatik maʼnoni ham anglatadi. Masalan, mehnatkashlarimizning soʻzi mehnat-, -kash, -lar, -imiz, -ning qismlaridan tarkib topgan. Bu qismlarning har biri shu tarkibda oʻziga xos maʼlum maʼnosida qatnashgan.

Leksik maʼno anglatish yoki anglatmasligiga koʻra morfemalar 2 turga boʻlinadi:

1. Oʻzak morfema.
2. Affiksali morfema.

Masalan, uzumzor, mevali, bogʻbon, ishchi, ishla, ishdan, borgan, bordi, bolalar soʻzlarining uzum, meva, bogʻ, ish, bor, bola qismlari oʻzak morfemalar, -zor, -li, -bon, -chi, -la, -dan, -gan, -di, -lar qismlari affiksali morfema hisoblanadi.

Soʻz morfemalarini aniqlash uchun ularning hozirgi tilimizda xoh leksik, xoh grammatik maʼno anglatishi hisobga olinadi. Ajratilmoqchi boʻlgan qism

hozirgi tilda ma'no anglatmasa, boshqa so'zlar tarkibida ham kela olmasa, uni morfema deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, ma'noli qismlarning chegarasini turli so'z tarkiblarini qiyoslash asosida aniqlanadi. Masalan, ishchilar so'zining ish+chi+lar kabi morfemalarga ajratishga asos shuki, o'zak deb olingan ish so'zi o'z ma'nosida qatnashgan, keyingi so'zning yasalihi uchun asos bo'lib turibdi, turli so'zlar tarkibida kela oladi: ishga, ishchan, ishli, ishsiz, ishla kabi; -chi, affiksali morfema bo'lib boshqa so'zlar tarkibida ham gulchi, xizmatchi, traktorchilik kabi shaxs oti yasab kela oladi; -lar, ham morfema sifatida turli so'zlar tarkibida ko'plik ma'nosini ifodalab kela oladi: kitoblar, bolalar, binolar kabi.

O'zbek tilida morfemalar o'zakka ketma-ket, biri orqasidan ikkinchisi qo'shiladi. So'zni morfemik tarkibga ajratish oxirgi morfemani belgilab olishdan boshlanadi va ketma-ket tarzda o'zak formamini belgilash bilan tugallanadi.

Masalan;

muz,muz+la,muzla+t,muzlat+ish;

ko'k,ko'k+ar,ko'kar+tir,ko'kartir+ish,ko'kartirish+di;

oq,oq+la,oqla+v,oqlov+chi;

tom,tom+chi,tomchi+la,tomchila+t.

O'zak morfema so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'noni beruvchi qismdir. O'zak morfema yangi so'z yasalihi uchun ham shakl yasalihi uchun ham asos bo'la oladi. Masalan, mevali, mevasiz, sermeva kabi tarkibli so'zlarda meva so'z yasalihi uchun asos bo'lsa; mevani, mevamiz, mevalar tarkibli so'zlarda meva shakl yasalihi uchun asos bo'ladi.

O'zak morfema so'zning leksik ma'nosini bildiruvchi asosiy qism bo'lganligi uchun asosiy morfema, affikslar shu o'zak bilan birgalikda, shu orqali qo'llanganligi uchun ergash morfema yoki yordamchi morfema terminlari bilan ham ataladi.

O‘zak morfema ifoda etilishiga ko‘ra so‘zga o‘xshaydi, ular ma’no jihatidan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Lekin o‘zakni so‘zning tarkibiga kiruvchi morfema sifatida so‘z bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Masalan, boshliq, mevazor, ishchi, ishla so‘zlaridagi bosh-, meva-, ish o‘zak morfemalar alohida olingan bosh, meva, ish so‘zlariga aynan teng emas. Garchi ular fonetik jihatdan teng kelsa ham. Buni biz o‘zaklarning ma’no doirasi bilan so‘zlarning ma’no doiralari teng kelmaganligidan ko‘rishimiz mumkin. O‘zakning ma’nosi shu so‘z tarkibi uchun aniq, cheklangan bo‘ladi. Uning ma’nosi shu so‘z tarkibi (yasalish tarkibi) doirasida belgilanadi. So‘zning ma’nosi esa nutq, gap doirasida belgilanadi.

Affiksial morfema. So‘zning tarkibida o‘zakdan keyin kelib, so‘zning leksik va grammatik ma’nolarini shakllantiradigan morfemadir. Affiksial morfema o‘zicha mustaqil qo‘llana olmaydi va ma’no ham anglatmaydi.

So‘z tarkibida affiksial morfemalar bir nechta bo‘lishi mumkin. Ular o‘zbek tilida o‘zakka birin-ketin, ma’lum tartibda qo‘shiladi. Masalan, paxtakorlarimizdan – paxta+kor+ lar+imiz+dan.

Affiksial morfemaning ma’nosi har bir konkret so‘z tarkibi asosida belgilanadi. Har bir qo‘llanishda u konkret ma’no ifodalaydi. Masalan, suv-chi, gul-chi, traktor-chi, o‘quv-chi; daftar-im, aql-im, halq-im, ko‘z-im, o‘z-im kabi so‘z tarkiblarida affiksial morfemalardan (u xoh so‘z yasovchi, xoh shakl yasovchi bo‘lsin) o‘ziga xos konkret ma’nolarda kelgan, ular bir-biriga butunlay teng emas.

Qo‘shimcha morfemalarning turlari

So‘zning leksik va grammatik ma’nolarini ifodalashiga ko‘ra qo‘shimchalar 2 turga bo‘linadi:

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar;
2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar yangi leksik ma’noli so‘z hosil qiladigan qo‘shimchalardir. Masalan, ishla, ishchi, ishchan, ishli, ishsiz kabi so‘zlarda ish

o'zagidan –la, -chi, -chan, -li, -siz so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida ot, sifat, fe'l turkumlariga oid yangi so'zlar yasalgan. So'z yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari qo'llanmaning "So'z yasalishi" bobida batafsil o'rganiladi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydigan, so'zlarning grammatik formalarini shakllantiradigan va turli grammatik ma'nolarni anglatadigan qo'shimchalardir. Masalan, talabalarimizning so'zida –lar, -imiz, -ning qo'shimchalari, kelmading so'zida –ma, -di, -ng qo'shimchalari qatnashgan bo'lib, ulardagi –lar ko'plik ma'nosini, -imiz I-shaxs ko'plik ma'nosini, -ning qaratqich kelishigi ma'nosini, -ma fe'lning inkor ma'nosini, -di fe'lning o'tgan zamon ma'nosini, -ng fe'lning shaxs-son (II-shaxs) ma'nosini ifodalaydi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar so'zning grammatik shakli bilan bog'liq bo'lib, ular ayni paytda o'z ichida yana ikki guruhga ajratildi:

- a) lug'aviy shakl yasovchilar – asosga qo'shilib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchalar;
- v) sintaktik shakl yasovchilar – o'zi qo'shilgan so'zni boshqasiga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalar.

Morfemalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi:

Sodda morfemalar tarixan qanday bo'lganligidan qat'iy nazar ajralmas, yaxlit, bir tarkibli morfemalardir: -lar, -roq, -chi, -niki, -sin, -di, -gach;

Murakkab morfemalar aslida mustaqil morfemalarning ma'lum funktsiya bajarish maqsadida birlashgan holda qo'llanishidir: odamgarchilik, uygacha, xafachilik, chorvachilik, borganda.

Morfema nutqda turli varinatlarga ega bo'ladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi invariant shaklining variantlarini kuzataylik:

- a) poetik variant: bog'in mevasi;
- b) tarixiy variant: manim;

v) dialektal variant: kitobting;

g) fonetik variant: mening.

Kelishik paradigmasiga kirish huquqiga faqat invariant shaklgina ega.

Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfemalarda ham shakl va ma'no munosabati barqa-rordir. Morfemalarning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovliligidan dalolat beradi.

Morfemik polisemiya. Morfemik polisemiya keng tarqalgan. Bu morfemalarning polifunksionalligiga bog'liqdir. Misol sifatida –chilik affiksini olaylik. O'quv qo'llanma va qo'llanmalarda uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi:

1. Asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan sohani ifodalovchi ot: paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik.
2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borliq holatini bildiruvchi ot: pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik.
3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik.

Aksariyat morfemalar polisemik tabiatlidir.

Morfemik omonimiya. Shakldosh morfemalar omonim morfemalar deyiladi. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfemalar orasida ham bo'lishi mumkin.

1. Derivatsion omonimiya:

-ki I: turtki, tepki, ko'chki (ot yasovchi).

-ki II: ichki, kechki, ustki (sifat yasaydi).

2. Grammatik omonimiya:

-(i)sh I: borish (bormoq), kelish(kelmoq), ketish(ketmoq) (harakat nomi shakli).

-(i)sh II: (birga) yuvish, (birga) tarash, (birga) ishlash (birgalik nisbat shakli).

3. Derivatsion-grammatik omonimiya:

-(i)m I: yig'im, terim, sig'im (ot yasovchi morfema).

-(i)m II: uyim, kitobim, soatim (egalik morfemasi).

Morfemik sinonimiya. Barcha tur morfemalar ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan derivatsion sinonimiya hamda grammatik sinonimiya farqlanadi.

Derivatsion sinonimiya. Derivatsion morfemalarning bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashi derivatsion sinonimiya deyiladi. Masalan, sifat yasovchi -li, -dor, -ser, -ba morfemalari o'zaro sinonim: savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat kabi. Biroq ma'nodoshlik morfemalararo to'liq emas, balki ayrim ma'no qirralari orasidadir. Ya'ni bir morfema ikkinchi morfema bilan barcha ma'nolari asosida sinonim bo'la olmaydi.

Bugungi kunda derivatsion sinonimiya va derivatsion darajalanishni farqlash tilshunosligimizda tadqiqini kutayotgan muammolardandir.

Grammatik sinonimiya. Nonni yeng - nondan yeng, uyga jo'namoq - uy tomon jo'namoq kabi hodisalarda grammatik ma'nodoshlik mavjud.

Morfemik antonimiya. Morfemik antonimiya derivatsion morfemalar orasidagina mavjuddir. Unga misol sifatida -li va -siz affikslarini keltirish mumkin: andishali-andishasiz, barakali-bebaraka, baxtli-baxtsiz.

So'zning morfemik tarkibini aniqlashda diaxron va sinxron tarkibni farqlash lozim. So'zning morfemik tarkibida davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Soddalanish so'zning morfemik tarkibida eng kuzatiladigan hodisadir.

Asos va qo'shimcha yoki asos va asosning davrlar o'tishi bilan bir morfemaga, ya'ni bir necha qismli so'zning ajralmas bir morfemaga aylanishi **soddalanish** deyiladi.

Masalan, ayt fe'li: ay (aydi) + t (ay-it) – ayt; art fe'li: ari (ari: yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq – ketmoq, masalan, ko'ylakning kiri aridi, kalla solgan joydan it arimas

(maqol) ari-t. Bu o'rinda t elementi orqali o'timsiz fe'ldan o'timli fe'l yasalgan. Solishtiring: kir aridi – kirni aritdi, chang aridi – changni aritdi (tozaladi).

Soddalanishning ko'rinishlari:

1. Yasovchi qo'shimcha va asos soddalanishga uchraydi: sovchi so'zi sav+chi (sav o'g'uzcha «so'z»), undamoq (un+da)

2. Shakl yasovchi qo'shimcha va asos soddalanishga uchraydi: o'g'lon (o'g'il+on), bo'y+in, yaxshi – yoq+ish

3. Asos va asos soddalanishga uchraydi, ya'ni soddalanish qo'shma so'zlarda ham bo'lishi mumkin. Masalan: sakson (asli sakkiz-o'n); to'qson (asli to'qqiz o'n); qayrag'och (asli qora yog'och); og'ayni (og'a+ini); odamovi (asli odam-yovi); Shovot (asli Shoh Obod); Shobboz (asli shoh Abbos); bosvoldi - qovun turi (asli bosib oldi); bu kun – bugun,

4. Qo'shimchalar soddalanishga uchraydi. Masalan: -dosh qo'shimchasi: fe'l yasovchi -da (tarixiy) (aslida –la qo'shimchasining varianti) va ot yasovchi –sh qo'shimchalarining birikuvidan (da-sh, dosh) hosil bo'lgan.

Boryapti so'zidagi –yap qo'shimchasi aslida yot ko'makchi fe'lining ravishdosh shaklidan kelib chiqqan. Solishtiring: o'qib yotibdi - o'qiyapti, -yotib// -yatip> - yap.

Ukamniki so'zidagi –niki qo'shimchasi tarixan mustaqil –ning va –ki qo'shimchalaridan iborat bo'lgan.

Quyidagi so'zlarning tarixiy morfemik tarkibiga e'tibor qarating: ko'mir (aslida ko'm-ir yoki kuy-mir – kuyadigan, yonadigan), chaqirim (aslida chaqir-im), seskanmoq, yuqori (yuq yer – baland joy), bezgak (bezdi + gak), yostiq (yastadi-suyandi), qizil (qiz+il), yashil (yosh (ko'k, yosh)+il), o'smir, qorong'i, kunduz, qishloq, ovloq, yurak, boshoq, qopchiq, ilgari-ildam-ilg'or, semiz-semir, uyg'ot-uyg'on, yuksak-yuksal.

Bir soʻzda maʼnolari bir xil yoki yaqin boʻlgan affikslarning takrorlanishi (ikki, baʼzan uch) **affiksal pleonazm** (qoʻsh qoʻllanish) deyiladi.

Pleonazm – yunoncha «pleonasmos – ortiqchalik» maʼnosini ifodalaydi. Soʻzda takrorlanib keladigan bunday affikslar har xil koʻrinishga ega boʻladi: bir affiksning aynan oʻzi takrorlanadi yoki tashqi shakli har xil boʻlgan – sinonim affikslar takrorlanadi: bir-i-si, sing(i)l-i-si, ayt-ingiz-lar; oʻgʻlonlar, axborotlar kabi.

Affiksal pleonazm har xil sabablarga koʻra yuzaga kelishi mumkin. Bir affiks oʻzak bilan juda ham zichlashib, oʻzakning tarkibiga singib ketadi, bunda oʻzak oʻz mustaqqilligidan mahrum boʻladi, natijada soʻzga shu qoʻshimchanning maʼnodoshlaridan biri qoʻshilishi mumkin, qoʻshimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi isteʼmolda boʻlgan qoʻshimcha qoʻshiladi (ichkariga, tashqariga, nariga, beriga, barisi kabi). Takrorlanayotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» boʻlsa, ular taʼkid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifalarni oʻz zimmasiga oladi (sizlar aytingizlar kabi). Boshqa tildan kirgan affikslar tushunarli va keng isteʼmolli boʻlmaganda ham uning tilimizdagi maʼnodoshi qoʻllanadi (yor+on+lar kabi). Qoʻshimcha qoʻshilishi natijasidagi tovush oʻzgarishlari ham maʼnodosh affikslarning qoʻshilishiga sabab boʻladi: yarmisi, kichkinagina, unisi, anavinisi, qaysinisi, singlisi, toychoqcha kabi.

Pleonazm aksariyat hollarda til evolyutsiyasi bilan bogʻliq hodisadir. Bunga oʻzbek tilining akademgrammatikasida ayrim izohlar berilgan:

1. Ot va sifat yasovchi –lik affiksi farqlanib, vazifasi ajralishishi (-li sifat yasaydi, -lik ot yasaydi) natijasida ular ketma-ket qoʻllanadigan boʻlgan: aqllilik, ifodalilik, bilimlilik.

2. Ogʻzaki soʻzlashuv nutqida baʼzan uchrab qoladigan mashshoqchi, xodimchi kabi soʻzlarda «bajaruvchi» maʼnosi ikki marta ifodalangan: ichki fleksiya (arab tilida mashshoq –mashq qiluvchi shaxs, xodim – xizmat qiladigan shaxs) va –cha affiksi orqali.

3. Bir xil ma'nodogi ikki affiks qo'shma affiks maqomini oladi: yog'ingarchilik, namgarchilik, rasvogarchilik kabi.
4. Kelishik va egalik affikslarining ikki marta ifodalanishi (kitobni uch so'mdanga oldi, romanning so'zboshisi) ham pleonazmning o'ziga xos ko'rinishidir.
5. Bir qo'shimchaning o'zi takrorlanganda, ko'pincha ular morfema fonetik variantlarining qator kelishi tusida bo'ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): qistalang (-ta, -la), shoshilinch (-l, -n), tiqilinch (-l, -n) kabi.
6. Bir ma'nodogi ikki affiksning ketma-ket qo'llanishi analogiya natijasida tug'ilishi ham mumkin. Masalan, biri – birisi.

Shuningdek, til birliklari (so'zlar) ham semantik jihatdan takror holda qo'llanadi: bosh-oyoq sarpo birikmasidagi «sarpo» so'zi ham «bosh-oyoq» ma'nosini ifodalaydi. Yoki pulsirot ko'prigi birikmasidagi «pul» so'zi «ko'prik» ma'nosini bildiradi.

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, u yangi so'z yasash, so'z yasash usullari va vositalarini o'rganadi. Tildagi so'zlarning yasalish tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu bo'limning asosiy vazifasidir.

Hozirgi (sinxron) so'z yasalishida yasama so'z komponentlari o'rtasidagi munosabat jonli bo'ladi, uning ma'nosini komponentlarning ma'no munosabati bilan asoslash mumkin: ter+im, yig'+im, o'r+im, arra+la kabi.

Tarixiy(diaxron) yasalishida yasama so'zning ma'nosi va shu so'zning ifodalanish usulini yuqoridagidek asoslab bo'lmaydi. Bu ma'no maxsus tekshiishlar, tarixiy kuzatishlar orqali aniqlanadi. Masalan, ko'rpacha: ko'rpa so'zi yotganda ustga yopiladigan, ichiga paxta tiqib tayorlangan narsani, -cha kichraytirish ma'nosini bildiradi. Lekin, ko'rpacha so'zi kichkina ko'rpani emas, o'tirish joyiga solinadigan buyumni bildiradi. Demak, ko'rpacha so'zining ma'nosini ko'rpa va – cha qismlari bilan asoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham ko'rpacha so'zi tarixiy yasalish hisoblanadi.

Soʻz yasallsh tarkibi soʻzning morfemik tarkibi bilan uzviy bogʻliqdir. Unda har bir oʻzak hamda affiksall morfemanning yangi soʻz yasovchilik xususiyati aniqlanadi. Bu soʻz yasallsh tarkibining oʻziga xos jihatlari mavjud ekanligini koʻrsatadi.

Soʻz yasallsh tarkibi ikki qismdan iborat boʻladi. Birinchisi, yasovchi asos, ikkinchisi yasovchi vosita (qoʻshimcha). Yasallsh tarkibini esa yasalma (yasama soʻz) deyiladi. Masalan, oʻtloq, gulla, mevali, tezlik yasalmalarda oʻt, gul, meva, tez qismlar yasovchi asos boʻlib, -loq, -la, -li, -lik qismlari esa yasovchi vosita boʻlib kelgan.

Soʻz yasallsh tarkibi soʻzning morfemik tarkibidan farq qiladi Morfemik tarkibda qismlar , yaʼni morfemalar ikki va undan ortiq boʻlishi mumkin. Soʻz yasallsh tarkibida esa faqat ikki qism boʻladi, yaʼni yasovchi asos va yasovchi vosita (affiks). Agarda terimchi soʻzi morfemik tarkibga ter-im-chi shaklida ajralsa, soʻz yasallsh tarkibiga terim-chi shaklida ajraladi. Demak terimchi soʻzining yasallshi uchun ter qismi emas, terim qismi asos boʻladi. Yasovchi asos har doim ham oʻzakka teng kelmaydi. Bu shuni koʻrsatadiki, yasovchi asos tub va yasama boʻlishi mumkin: bilim, yaxshila, ishchi, tokzor soʻzlarida yasovchi asos boʻlib bil, yaxshi, ish, tok tub soʻzlari kelgan; bilimdon, terimchi, ovchilik, terimchilik yasalmalarida esa bilim, terim, ovchi, terimchi yasama soʻzlari yasovchi asos boʻlib kelgan.

Soʻzning morfemik tarkibini aniqlashda morfemalarning chegarasini belgilash qanchalik muhim boʻlsa, yasovchi asos bilan yasovchi qoʻshimcha orasidagi chegarani aniqlash ham shunchalik muhimdir. Shunga koʻra gulchilik, paxtachilik, baliqchilik soʻzlarida yasovchi asos gulchi, paxtachi, baliqchi, yasovchi qoʻshimcha –lik boʻlsa, dehqonchilik, ahmoqchilik, ozchilik yasama soʻzlarida esa dehqon, ahmoq, oz soʻzlari yasovchi asos, -chilik yasovchi qoʻshimcha boʻladi. Chunki tilda dehqonchi, ahmoqchi, ozchi shaklidagi soʻzlar qoʻllanmaydi. Qoʻshma affikslar haqida morfemika boʻlimida ham fikr yuritilgan .

Yasovchi asos quyidagi shakllarga teng keladi:

1.Yasovchi asos tub soʻzga teng keladi: chida+m, tila+k. Baʼzan uning tarkibida shakl yasovchi boʻlishi mumkin: topish+moq, oʻchir+gʻich.

2.Yasovchi asos yasama soʻzga teng keladi: temirchi+lik, sanoq+siz.

3. Yasovchi asos qoʻshma soʻzga teng keladi: belbogʻ+li, oliyjanob+lik, ignabargli.

4.Yasovchi asos juft soʻzga teng keladi: baxt-saodat+li, katta-kichik+lik

5. Yasovchi asos takroriy soʻzga teng keladi: qahqah+a, sharshar+a

Qoʻshma soʻzlarda yasovchi asos ikki va undan ortiq boʻladi. Masalan, koʻzoynak, mehnatsevar soʻzlari ikkitadan yasovchi asosga ega boʻlsa, gultojxoʻroz soʻzi uchta yasovchi asosdan tarkib topgan.

Soʻz yasash tarkibida faqat soʻzning leksik maʼno anglatadigan qismi hisobga olinadi. Soʻzning grammatik maʼno ifodalovchi qismi esa soʻz yasash tarkibiga kirmaydi. Ular soʻzning morfologik tarkibi hisoblanadi. Masalan, mehnatkashlarning soʻzida mehnatkash yasama soʻz, -lar, -ning esa grammatik maʼno ifodalovchi (-lar koʻplik maʼnosini, -ning qaratqich kelishigi maʼnosini) qismlardir. Leksik maʼnoni shakllantirmaganligi uchun bu qismlar soʻz yasash tarkibiga emas, shakl yasash tarkibiga kiradi.

Soʻz yasash usullari. Qanday usul bilan boʻlsa-da, yangi soʻz hosil qilishga soʻz yasashi deyiladi. Hozirgi oʻzbek tilida soʻz yasashining turli usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Semantik usul.
2. Fonetik usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Kompozitsiya usuli.

Semantik usul. Koʻp maʼnoli soʻzning maʼnolari orasidagi aloqaning oʻzgarishi, uzilishi natijasida omonim soʻzlarning yuzaga kelishi haqida maʼlumotga egamiz.

Soʻz maʼnosining oʻzgarishi asosida yangi soʻz xosil qilish semantik usul bilan soʻz yasalishi deyiladi. Bu usul bilan yasalgan soʻzlar turli soʻz turkumlariga tegishli boʻlib qolishi mumkin. Masalan, koʻk («osmon», ot) – koʻk («rang», sifat), koʻch («harakat», feʼl) – koʻch («yuk», ot), yupqa («belgi», sifat) – yupqa («predmet», ot), kun («quyosh», ot) – kun («sutkaning yorugʻ qismi», hisob soʻzi oʻrnida) kabi.

Fonetik usul. Soʻzning fonetik tarkibida boʻladigan oʻzgarish natijasida yangi soʻzning hosil boʻlishiga fonetik usulda soʻz yasalishi deyiladi. Masalan, tun va kun, koʻz va koʻr, aka va uka kabi.

Soʻz urgʻusining oʻzgarishi ham fonetik usulda boshqa soʻz turkumiga oid soʻzlarning hosil boʻlishiga olib keladi. Yangi soʻz yasaladi. Masalan, yangi (sifat) – yangi (payt ravishi), suzma (ot) – suzma (feʼl), qushcha (ot) – qushcha (qushdek, qush kabi – ravish), akademik (sifat) – akademik (ot) kabi.

Affiksatsiya usuli. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻz hosil qilinishiga affiksatsiya usulida soʻz yasalishi deyiladi. Yasovchi asosga affikslar qoʻshish bilan ot, sifat, feʼl, ravish turkumiga oid soʻzlar yasaladi. Masalan, suvchi, arrakash – ot; aqlli, suvsiz – sifat; ishla, otlar – feʼl; yashirin, yangicha – ravish kabi.

Ayrim adabiyotlarda transpozitsion usul bilan ham soʻz yashash mumkinligi aytib oʻtiladi. Yaʼni bir turkumdagi soʻz nutqda ikkinchi turkum soʻzi ishlatiladigan sintaktik qurshov va vazifada ishlatiladi. Yaʼni turkumlararo koʻchish yuz beradi. Bu yoʻl bilan substantivatsiya (qoʻrqqoq, oʻgʻri, toʻgʻri kabi), adyektivatsiya (poʻlat tesha, tilla soat), pronominalizatsiya (olmoshlashish), konyunksionalizatsiya (yordamchi soʻzlarga aylanish), adverbializatsiya (ravishlashish), verbalizatsiya (feʼl oʻrnida kelish) kabi jarayonlar natijasida yangi maʼno tugʻiladi.

Tilda maʼlum turkumdagi soʻzlardan boshqa turkumga oid soʻzlarning yasalishi koʻp uchraydi. Bunda ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish, taqlid va undov soʻzlardan

yangi soʻzlar yasaladi. Lekin yangi soʻz yasalishi faqat ot, sifat, feʼl, ravish turkumlarigagina xosdir. Shu jihatdan qaralganda, son, olmosh, taqlid soʻzlar yasalmaydi.

Tilda ot, sifat, feʼl, ravish yasalishining turli shakllari mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Morfemika nimani oʻrganadi?
2. Morfemikaning boshqa til boʻlimlari bilan aloqasi nimalarda koʻrinadi?
3. Soʻzning morfem strukturasi deganda nimani tushunasiz?
4. Morfemaning qanday turlari bor?
5. Ot yasalishining qanday usullari bor?
6. Ot yasovchi affikslarni qanday maʼnoviy guruhlarga boʻlish mumkin?
7. Sifat yasalishining qanday usullari bor?
8. Sifat yasalishiga aysi soʻz turkumlari asos boʻladi?
9. Feʼl qanday usullar bilan yasaladi?
10. Ravish yasalishining qanday usullari bor?
11. Ravishning yasalish-yaslmasligi haqida qanday qarashlar bor?

5-mavzu: Grammatika.Morfologiya

Reja:

- 1.Morfologiya va sintaksis munosabati.
2. Grammatik ma'no va grammatik shakllar.
3. Grammatik kategoriya tushunchasi haqida.
- 4.Tasnif tushunchasi haqida.

Grammatika – tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. Grammatika so'zlarning gapda o'zgarishi va ularning o'zaro birikib, so'z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to'plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya qismida so'z turkumlari va ularga xos bo'lgan shakllar haqida bahs yuritilsa, sintaksis qismida so'zlarning bir-biri bilan bog'lanib, gap, so'z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi.

Ko‘rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so‘zni o‘rganadi. Ammo leksikologiya leksik so‘zni – leksemani o‘rgansa, grammatika grammatik so‘zni – so‘zning shaklini, so‘z shaklini tekshiradi.

So‘z shakl va grammatik ma’no. Leksik so‘z yoki leksema ma’no va ifoda birligidan iborat bo‘lganidek («kitob» leksemasining ma’nosi, yoki mazmuni - «o‘qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda shakli k, i, t, o, b tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so‘z, yoki so‘z shakl grammatik ma’no ham grammatik ifoda (shakl) birligidan iboratdir. Jumladan, kitob so‘zi «o‘qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik tushunchalarini ham bildiradi. Bunda kitob so‘zining «o‘qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik ma’nosi sanaladi va shu so‘zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma’nosidir.

So‘zning grammatik ma’nosi uning leksik ma’nosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi so‘zlarning leksik ma’nolari turlicha, lekin grammatik ma’nolari bir xil, ya’ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, birgina leksik so‘z, leksema, ma’lum leksik ma’no anglatgani holda turli shakllarda qo‘llanib, har xil grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan, o‘qimoq fe’lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma’nolarni bildiradi: o‘qiyapman so‘z shakli hozirgi zamon davom fe’lining I shaxs birlik ma’nosini, o‘qiyapsan so‘z shakli hozirgi zamon davom fe’lining II shaxs birlik ma’nosini va h.k.

Demak, so‘zning ma’lum turkumga mansubligini ko‘rsatuvchi, so‘zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma’no grammatik ma’no hisoblanadi. Ko‘rinadiki, grammatik ma’no o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) ma’lum bir so‘z turkumi uchun umumiy bo‘lgan ma’no, ya’ni kategorial grammatik ma’no; 2) xususiy grammatik ma’no so‘zining kategorial grammatik ma’nosi ma’lum so‘z turkumlari uchun xos bo‘lgan umumiy grammatik ma’nolardir. Masalan, non, suv, uy, dala so‘zlarining har biriga xos bo‘lgan ma’no – leksik ma’no. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan ma’no ya’ni predmet

ma'nosi grammatik ma'nodir. Ayni shu umumiy grammatik ma'no ularni bir turkumga, ya'ni ot turkumiga birlashtiradi. Shuningdek, chiroyli, dono, fozil, kamtarin so'zlari uchun umumiy bo'lgan belgi ma'nosi va o'qi, o'rgan, mehnat qil, bor, kel so'zlari uchun umumiy bo'lgan harakat ma'nosi kategorial grammatik ma'no sanaladi.

So'zning xususiy grammatik ma'nosi ma'lum bir so'z turkumi uchun mansub bo'lib, bunday ma'noga otlarga xos bo'lgan son, egalik, kelishik ma'nolari, fe'llarga xos bo'lgan nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, bo'lishli – bo'lishsizlik kabi ma'nolar kiradi. Grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari O'zbek tilida grammatik ma'no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik ma'no so'zning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qo'shish bilan ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi va h.k.

2. Yordamchi so'zlardan foydalanish. Mustaqil ma'noli so'zlar yordamchi so'zlar orqali grammatik ma'noga ega bo'lishi mumkin: Daraxt mevasi bilan ko'rkam, odam mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So'zlarni takrorlash ham grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so'zlarini takrorlash bilan ko'plik, mo'llik ma'nosi ifodalangan.

4. Suppletivizm. Bu - o'zaro bog'langan, ma'lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so'zdan foydalanish usuli. Masalan, o'zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so'zlari orqali, ko'pligi biz va siz so'zlaori orqali ifodalanadi.

5. Urg'u so'zining grammatik ma'nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: akadé^émik (ot),- akadem^íik (sifat), yang^í (sifat) yá^ángi (ravish), termá (sifat) – té^érma fe'l ning bo'lishsiz shakli.

6. So'z tartibi. So'zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba'zan grammatik ma'no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so'zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi

gapda ushbu soʻz otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Ohang ham grammatik maʼno ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik maʼno soʻzlarning gap sifatida shakllanishi bilan bogʻliq. Masalan: Hamma keldi. (Darak gap) - Hamma keldi? (soʻroq gap) - Hamma keldi! (undov gap).

Soʻzning grammatik shakli. Soʻzning biror grammatik maʼno ifodalaydigan koʻrinishi uning grammatik shakli deyiladi. Grammatik shakl grammatik maʼnoni ifodalashning eng zaruriy sharti, tilda ular biri ikkinchisiz mavjud boʻlmaydi. Masalan, otlardagi koʻplik maʼnosi –lar affiksli shakl orqali ifodalanadi: gullar; tushum kelishigi maʼnosini –ni affiksli shakl koʻrsatadi va h.k.

Oʻzbek tilida soʻzlar bir grammatik koʻrsatkichli, koʻp grammatik koʻrsatkichli yoki grammatik koʻrsatkichsiz shaklda boʻlishi mumkin. Masalan: mamlakat – grammatik koʻrsatkichsiz soʻz shakli; mamlakatlari – bir grammatik koʻrsatkichli soʻz shakli; mamlakatlarida – koʻp grammatik koʻrsatkichli soʻz shakli.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻzlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi soʻzlar vositasida, soʻzlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga koʻra soʻzlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil boʻladi: kitobning, kitobni, kitobga, kitobda; oʻqimoqdaman, oʻqimoqdasan, oʻqimoqdamiz, oʻqimoqdasiz kabi.

2. Analitik shakl. Mazkur shakl yordamchi soʻzlar orqali yuzaga keladi: bolalar uchun, zavq bilan, oʻqib tur, oʻqib koʻr kabi.

3. Juft va takroriy shakl. Ikki soʻzni juftlash yoki bir soʻzni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladiki, bunday shakl juft va takroriy shakl deb yuritiladi: togʻ-tosh, katta-kichik juft shakli umumlashtirish maʼnosini, savat-savat (non), togʻ-togʻ (paxta) takrorlash shakli koʻplik, moʻllik maʼnosini ifodalaydi, katta-katta, tez-tez takroriy shakl maʼnoni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, soʻzning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo oʻzbek tilida soʻzlarning maxsus grammatik koʻrsatkichga ega boʻlmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar – institut Ø (birlik son);

institutda – institut Ø (bosh kelishik);

ishlama – ishla Ø (boʻlishli feʼl shakli) kabi.

Soʻzning shakllari tizimida koʻrsatkichga ega boʻlmagan soʻzning maxsus koʻrinishi nol koʻrsatkichli (Ø koʻrsatkichli) shakl deb yuritiladi. Soʻzning bunday koʻrinishi soʻz shakllari tizimida belgilanadi.

Soʻzning grammatik shakllari tizimi paradigma (yunoncha paradeima – «namuna») deyiladi.

Paradigma oʻz xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi:

1) xususiy paradigm;

2) toʻliq paradigma.

Bir turkumga oid soʻzning muayyan shakllari tizimi xususiy paradigmani yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (kitob-kitoblar), kelishik paradigmasi (kitob – kitobning – kitobni – kitobga – kitobda - kitobdan) va boshqalar xususiy paradigmalar hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalar yigʻindisi toʻliq paradigmani hosil qiladi. Masalan, otga xos toʻliq paradigma: kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz... Bunda son, kelishik va egalik paradigmalari toʻliq paradigmani tashkil etgan.

Grammatik kategoriya. Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno bilan shu maʼnoni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.

Grammatik kategoriya soʻzlarni, soʻz shakllarni, soʻz oʻrinlarini, soʻz qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. Shunga koʻra grammatik kategoriyalarning toʻrt turi farqlanadi:

- 1) soʻzning grammatik kategoriyalari;
- 2) soʻz shakllarning grammatik kategoriyalari;
- 3) soʻz oʻrinlarining grammatik kategoriyalari;
- 4) soʻz qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

Soʻz va soʻz shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, soʻz oʻrinlari va soʻz qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalarga va sintaktik kategoriyalarga ajratish mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, soʻz turkumlarining oʻzi, yaʼni ot, sifat, son, feʼl kabilar kirsa, ikkinchidan, maʼlum bir turkumga xos boʻlgan kategoriyalar, yaʼni otlarga xos boʻlgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, feʼllarga xos boʻlgan boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, mayli, zamon, shaxs-son kategoriyalari kiradi.

Sintaktik grammatik kategoriyalar deyilganda, gap, gap boʻlaklari: ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

Soʻz turkumlari

Nutqimizda mavjud soʻzlar bir-biridan maʼno va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Shu jihatdan soʻzlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlariga, turkumlarga ajratiladi. Soʻzlarning maʼno va grammatik belgilarining oʻxshashligiga qarab guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumlari deyiladi. Soʻzlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

- leksik-semantik tamoyil;

- morfologik tamoyil;
- sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko‘ra so‘zlarni guruhlarga ajratishda, so‘zning leksik ma‘nosiga e‘tibor beriladi. Masalan: tuz, non, tinchlik, daryo, tog‘, osmon kabi so‘zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so‘zlar ot so‘z turkumi deb nomlangan); katta ko‘cha, shirin olma, tiniq osmon, ko‘k ko‘ylak kabi ajratilgan so‘zlar predmetning belgisini (bunday so‘zlar sifat deb nomlangan), beshta daftar, yuzlab odam, o‘ntadan o‘quvchi, ikkinchi kurs kabilarda ajratilgan so‘zlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday so‘zlar son deb nomlangan); ayrim so‘zlar bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq kabi harakat va holat tushunchasini (bunday so‘zlar fe‘l deb nomlangan); asta o‘qidi, do‘stona gapirdi, piyoda yurdi kabi ajratilgan so‘zlar esa ish-harakatning belgisini (bunday so‘zlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

Chunonchi, ayrim so‘zlar predmet, belgi, miqdor ma‘nosini nomlab ko‘rsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday so‘zlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday so‘zlar (bilan, va, ammo, uchun, chunki, xuddi, faqat, albatta, yo‘q, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult kabi) ham borki, ular mustaqil holda leksik ma‘no ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi bo‘la olmaydi. Bunday so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid so‘zlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga ko‘ra so‘zlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. So‘zlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning ma‘no xususiyati bilan bog‘liq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan so‘zlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan so‘zlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat ma‘nosini bildirgan so‘zlar (fe‘l) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi soʻzlar (olmosh) ham morfologik jihatdan oʻzgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi soʻzlar (son) morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. Shuningdek, leksik maʼno anglatmaydigan soʻzlar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, undov va taqlid soʻzlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlariga ajratish esa uning sintaktik tomoni, yaʼni qanday soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga koʻra belgilanadi. Masalan: predmet maʼnosini anglatuvchi soʻzlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shakllarida toʻldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning koʻrki, xatni yozdi, universitetda oʻqiydi kabi.

Belgi bildiradigan soʻzlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (toʻgʻri soʻz, oʻz, beshta bola, koʻp kitob, yaxshi oʻqiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular oʻrnida almashinib qoʻllanuvchi soʻzlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday soʻzlar bilan birikishiga koʻra gapda ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim shu, bu bino, nimani oʻqiding, qayerda yashaydi kabi).

Tildagi leksik maʼno ifoda etmaydigan soʻzlar esa (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama) leksik maʼno ifodalovchi soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, gap pyoki uning tarkibidagi ayrim soʻzlarga qoʻshimcha maʼno qoʻshadi. Bunday soʻzlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

Shuningdek, leksik maʼno ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) boʻlmasa ham, lekin gap boʻlagi sifatida yoki mustaqil holda soʻz-gap sifatida qoʻllana

oladigan soʻzlar (modal, undov, taqlid soʻzlar) ham mavjud (kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur kabi).

Demak, soʻzlarning gapda qanday gap boʻlagi boʻlib kelishi, uning qanday soʻzlar bilan aloqaga kira olishi, maʼnosiga va grammatik shakliga bogʻliqdir.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- 1) mustaqil soʻzlar;
- 2) yordamchi soʻzlar;
- 3) alohida guruh soʻzlar.

Mustaqil holda leksik maʼno ifoda eta oladigan, biror morfologik shaklda kelib, gap boʻlagi vazifasini bajaradigan soʻzlarga **mustaqil soʻzlar** deyiladi. Mustaqil soʻzlarga ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kabi soʻz turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik maʼno ifoda etmay, gap boʻlagi vazifasini bajarmaydigan, faqat soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qoʻshimcha maʼno qoʻshishga xizmat qiladigan soʻzlar **yordamchi soʻzlar** deyiladi. Yordamchi soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama kiradi.

Modal soʻzlar modal maʼno ifodalashi jihatidan yuklamalarga oʻxshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap boʻlagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar kabi biror hodisaning nomi boʻla olmaydi, lekin gap boʻlagi vazifasida, soʻz-gap vazifasida kela oladi. Shuning uchun ham bunday soʻzlar **alohida** guruhni tashkil etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Grammatika deganda nimani tushunasiz?
2. Grammatika necha qismdan iborat?
3. Leksik maʼno nima va uning grammatik maʼnoga qanday aloqasi bor?

4. Morfologiya nimani o'rgatadi?

6-mavzu: Sintaksis.Punktuatsiya

Reja:

1. Sintaksisning predmeti.
2. Sintaktik munosabatlarning turlari.
3. So'z birikmasi va gap.
4. Gapning aktual bo'linishlari.
5. Paradigma va sintagma.

Tayanch iboralar: *sintaktik munosabat, so'z birikmasi, logik-grammatik munosabat, gap komponentlari, teng bog'lanish, ergash bog'lanish, tobelanish, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, so'z tartibi, hokimlik va tobelik, turg'un birikma, so'z birikmalari:otli, fe'lli, ravishli, sifatli, fuziya hodisasi, artikl, abstrakt ma'no, sintaktik vazifa, sintaktik birlik, gapning kommunikativ mohiyati, gapning konstruktiv-grammatik belgilari, so'zlar bog'lamasi, gaplar: darak, so'roq, buyruq, emotsional va noemotsional gaplar, bo'lishli va bo'lishsiz, ikki sostavli (tarkibli) va bir sostavli, yig'iq va yoyiq, to'liq va to'liqsiz gaplar, paradigma, gapning aktual bo'linishi, gapning formal bo'linishi, fikrning ifoda asosi, tinish belgilar.*

1. Sintaksisning predmeti. Sintaksis ham morfologiya singari grammatikaning uzviy qismi hisoblanadi. Morfologiyaning o'rganish ob'ekti so'z bo'lgan bo'lsa, sintaksisning o'rganish ob'ekti so'z birikmasi va gapdir. Chunki, tilning asosiy vazifasi odamlar o'rtasida fikr almashish quroli ekan, bu aloqa gaplar orqali amalga oshadi. Demak, gap kommunikativ birlik sifatida muhim ahamiyatga ega.

Gap bo'laklari, so'z birikmalari gapning qurilishini tashkil qiladi. Shunday qilib, sintaksisda gap bo'laklari, ularning o'zaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, so'z birikmasi va gaplar, ularning qurilishi, tipi, gapdan katta birliklar, ular komponentlarning logik-grammatik munosabati kabi masalalar o'rganiladi.

Ta'rifdan ma'lum bo'layaptiki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sintaksisning o'rganish ob'ekti faqat gap deb emas, gapdan katta birliklar ham qaralmoqda. Bunda xat boshi, murakkab sintaktik butunlik (fikran, ayni vaqtda leksik, grammatik va boshqa til vositalari yordamida o'zaro bog'langan mustaqil gaplar gruppasi), tekst kiritilayapti. Bu hol sintaksisning tekshirish ob'ektini yana ham kengaytiradi.

Til sintaktik qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri-turg'unligi bo'lib, uning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi, jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Sintaksis tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan ham aloqador. Jumladan, fonetika bilan. Chunki har qanday til birligi, demak, gap ham nutq tovushlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari urg'u, melodika va intonatsiya kabi fonetik hodisalarning ham sintaksis uchun ahamiyati juda kattadir.

Morfologiya va sintaksis bir-birlarini to'ldiruvchi sohalardir. Morfologiya birliklari bo'lgan so'z shakllari so'z birikmalari va gaplarda shakllanadi. Gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida o'zaro yaqin munosabat mavjud.

Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriyalar, yordamchi so'zlar sintaksis uchun xizmat qiladi. Sintaksis leksikologiya bilan ham bog'liq. Tildagi so'zlar grammatika ixtiyoriga o'tib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishib ma'lum fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi.

Sintaksis quyidagi qismlardan iborat:

1. Sodda gap sintaksisi.

2. Murakkablashgan gap sintaksisi.

3. Qo'shma gap sintaksisi.

4. O'zga gap sintaksisi.

5. Gapdan katta birliklar sintaksisi.

2. Sintaktik munosabatlarning turlari. Sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo'linadi: predikativ va nopredikativ.

Predikativ bo'linish gap qurilishi asosi (grammatika markazi/ komponentlari (ega va kesim)ning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Misol: Men ishga kecha chiqdim. (shaxs va sonda moslashayapti).

Nopredikativ bog'lanish bunday xususiyatga ega emas. Teng bog'lanish (teng sintaktik munosabatda bo'lish, so'zlar shuningdek, qo'shma gaplarning predikativ komponentlari orasidagi biri ikkinchisiga bo'ysinmagan, teng aloqasini ko'rsatuvchi munosabat: *o'qituvchi va o'quvchi, qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi* va ergash bog'lanish (bunda biri hokim va ikkinchisi tobe bo'lgan so'zlar o'zaro aloqaga kirishadi: *Salimni ko'rdim*) nopredikativ bog'lanishning bir turlaridir.

Tenglashish munosabati asosan, teng bog'lovchilar va sanash intonatsiyasi orqali ifodalanadi.

Ikkinchisida esa tobe bo'lgan so'z hokim so'zni aniqlaydi, to'ldiradi va hokazo.

Tobelanish munosabatini ifodalovchi vositalar, asosan affikslar, ko'makchilar, flektsiya, so'z tartibi va intonatsiyadir.

Sintaktik munosabatining **ergashish** usuli uch xil: moslashuv, bitishuv, boshqaruv.

Tobe soʻzning hokim soʻz shakliga mos holda boʻlishi moslashuvdir. Mas., shaxs va sonda - shamol maysalar orasida lola chamanlarini silkiydi. Qaratqich-qaralmish: Ustozning vasiyatlariga sodiq qolamiz

Tobe soʻzning hokim soʻz talab qilgan formani olish boshqaruvdir: Oltin oʻtda bilinadi. Boshqaruvchi vazifasini feʼl bajaradi.

Soʻz birikmasining bitishuv turida hokim va tobe soʻz oʻzaro soʻz tartibi yoki ohang yordamida munosabatga kirishadi: *Keksa bogʻbon, kichkina maydon* kabi.

Sintaktik munosabatlar grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Ular quyidagilar: affikslar, yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va intonatsiya.

Affikslar yoki soʻz formalari sintaktik aloqani ifodalashda keng qoʻllaniladigan vositadir. Turkiy tillarda-suffikslar, hind-evropa tillarida - flektsiya: *Xoroshaya pogoda, alie rozi*.

Yordamchi soʻzlar grammatik vosita sifatida barcha tillarda mavjud.

Morfologik koʻrsatkichlar boʻlmaganda soʻz tartibi sintaktik munosabatlarni koʻrsatuvchi asosiy vosita rolini oʻynaydi.

Intonatsiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositadir. Intonatsiyani tashkil etgan komponentlar: logik urgʻu, pauza, ritm, milodika turli tillarda turli darajada sintaktik vosita sifatida ishlatiladi.

3. Soʻz birikmasi va gap.

Sintaksisning asosiy oʻrganish obyektlaridan biri *soʻz birikmasidir*.

Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan oʻzaro birikkan ikki va undan ortiq soʻz *soʻz birikmasi* deyiladi.

Soʻz birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi soʻzlar oʻzaro sintaktik munosabatga kirib, murakkab tushunchani bildiradi va boshqa-boshqa gap boʻlagi boʻlib keladi: *Katta bino, Saodatning kitobi*.

Ko'makchi so'zlar o'zi bog'langan mustaqil so'z bilan birgalikda bir bo'lak hisoblanadi: *Maysalar ustida shudring tomchilari yarqiraydi.*

Voqelikni va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan, intonatsion hamda mazmun jihatdan nisbiy tugallikka ega bo'lgan so'zlar bog'lanmasi yoki yakka so'z *gap* deyiladi.

Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligi hisoblanadi.

Uning xususiyatlari:

- so'zlarning birikuvidan tashkil topadi
- muhim belgisi predikativlik
- intonatsion tugallikka ega
- fikriy jihatdan nisbiy tugallikka ega.

Ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, so'roq, buyruq. Bulardan tashqari *undov gap* ham bor. Tuzilishiga ko'ra: sodda va qo'shma. Sodda gap: bir tarkibli, ikki tarkibli.

Bir tarkibli: egasiz bir tarkibli, kesimsiz bir tarkibli gap. egasiz bir tarkibli gap: egasi topilar gap, egasi topilmas gap.

Egasi topilar gap: shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap. Bulardan tashqari nominativ gap ham bor.

Ikki tarkibli gap: ega tarkibli, kesim tarkibli.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Xullas, gap har qanday tilda ham kommunikativ mohiyatga ega bo'lgan asosiy birlik sanaladi.

Shu paytga qadar gapga 300 dan ortiq ta`rif berilgan. Uning grammatik jihati, logik jihati. Psixologizm oqimi, formalistlar oqimlari qarashlari.

Gap atamasi ikki ma`nolidir. Birinchi ma`nosi-til birligi aloqa uchun xizmat qilishga qaratilgan konstruktiv birlikdir. Bu gap modeli, gap formulasi deb yuritiladi. Ikkinchi ma`nosi konkret xabar konkret kontekst bilan bog`liq bo`lgan nutq birligidir.

Gap qurilish modeli bilan ifoda mazmuninig birligi gapning asosiy kommunikativ xususiyati hisoblanadi.

Shunday qilib, ob`ektiv borliq va unga bo`lgan munosabatni ifoda qilib, grammatik shakllanib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuyg`u anglatib, intonatsion butunlikka ega bo`lgan so`z hamda so`zlar birlashmasi **gap** deyiladi.

Predikativlik gapning grammatik ma`nosini ifoda qiladi. U gap hosil qiluvchi kategoriya bo`lib, gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa bo`lgan munosabatini modal planda hamda zamon va shaxs-sonda ifoda qiluvchi kategoriyadir. Modallik predikativlikning tarkibiy qismi bo`lib, fe`l mayllari, modal so`zlar bilan ifoda qilinadi. Umuman predikativlik sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so`zlar va intonatsiya orqali ifodalanadi. Uslub.

**4. Gapning aktual bo`linishlari.** Gapning aktual bo`linishi gapning formal bo`linishiga qarshi qo`yiladi. Agar formal bo`linishda gap tarkibi grammatik elementlarga bo`linsa, aktual bo`linishda gap ma`no jihatdan bo`linadi. Gapning formal bo`linishining asosiy elementlari ega va kesim hisoblansa, aktual bo`linishining asosiy elementlari gapning ifoda asosi, ma`lum qismi esa gapning yadrosi, ya`ni nima xabar qilayotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr ma`lumdan noma`lumga qarab harakat qiladi.

Boshqacha aytganda, gapning konkret matndagi mundarijasidan kelib chiqib mazmun jihatdan bo`linishi. Bunday bo`linishda gap ikki qismdan iborat bo`ladi:

1. Soʻzlovchi va tinglovchi (oʻquvchi) uchun maʼlum narsani ifodalovchi qism(tema);

2. Soʻzlovchi bildirmoqchi, aytmoqchi boʻlgan qism, yaʼni yangi informatsiya qismi (rema): *Sovxoz kollektivining bu yilgi rejalari yana ham katta.* Tema: Sovxoz kollektivining bu yilgi rejalari, rema: yana ham katta.

Gapning aktual boʻlinishida gap ifoda asosi va ifoda yadrolariga boʻlinadi: Institut studentlari (ifoda asosi) sport musoboqalarida gʻolib chiqdilar (ifoda yadrosi).

Gapning hamma tiplari ham aktual boʻlinavermaydi. Odatda boʻlaklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar, toʻsiqsiz gapning baʼzi tiplari aktual boʻlinmaydi. Yozuvda gapning aktual boʻlinishi tinish belgilari bilan ajratilmaydi. Ogʻzaki nutqda esa aktual boʻlinishda intonatsiya asosiy vositadir.

5. Paradigma va sintagma. Soʻzning oʻzaro bogʻlangan shu bilan birga, bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilib, bir butun sistemani tashkil qiladigan ikki yoki undan ortiq formalari *paridigma* deb yuritiladi. Bunday formalarga ot yoki otlashgan soʻzdagi son (birlik, koʻplik), kelishik, egalik; feʼllardagi zamon, mayl, shaxs-son formalari kiradi.

Boshqacha aytganda, til birliklari grammatik formalarning umumiy maʼnosiga koʻra birlashuvi, xususiy maʼnosiga koʻra farqlanuvchi sistemasi. Mas., otlarning kelishik bilan turlanish paradigmasi, feʼllarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi kabi.

Sintagma (birlashgan narsa degani).

1. Nutqning mazmun va ritmik-milodik jihatdan bir butunlikni hosil qiluvchi semantik-sintaktik boʻlagi. Sintagma bir yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishi, hatto gapga teng boʻlishi ham mumkin: *Sovxozimiz paxta planini muddatdan ilgari oshirib bajardi.*

2. Ikki soʻzning sintaktik bogʻlanishi bilan yuzaga keladigan nutq birligi (birikma yoki gap).

Punktuatsiya termini lotincha **punctum** soʻzidan olingan boʻlib, aslida nuqta, oʻrin, joy tushunchalari bilan bogʻlangan boʻlsa ham, tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik toʻxtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yigʻindisini (**tinish belgilarini**) anglatadi. Punktuatsiya tilshunoslikning bir sohasi boʻlib, tinish belgilari (**punktogramma**) va ularning qoʻllanish qonun-qoidalarini oʻrgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (**grafika**) ning uzviy qismi boʻlib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin boʻlmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Tinish belgilari yozma nutqni toʻgʻri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining oʻzaro logik-grammatik munosabatlarini koʻrsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga oʻz yozma nutqini aniq, toʻgʻri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, oʻquvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday maʼno va vazifada qoʻllangan boʻlsa, mazkur tinish belgi oʻquvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Demak, tinish belgilari *"Yozma nutqning tushunilishini osonlashti-rish uchun qoʻllaniladi"* (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, aniqlik kiritadi. Tinish belgilarining oʻrinli qoʻllanmasligi maʼlum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan oʻzgarib ketishiga olib keladi. Masalan, *Afandi podshoga qarab: Siz axmoq odam emassiz, – dedi* (latifa) gapida **axmoq** soʻzidan keyin pauza berilib (tire yoki vergul qoʻyilib) oʻqilsa, gap podshoning aqlliligi haqida emas, balki uning ham axmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. *Qir-adirda lola gulpar ochilgan* (U.) gapida *lola* soʻzidan keyin vergul qoʻyilmasa, faqat

lolalar ochilganligi; vergul qo'yilsa, loladan tashqari boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi.

Tinish belgilari yozuvdan keyin paydo bo'lgan. Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (so'z yozuv) shakllarida bo'lganligidan, punktuatsiyaga ehtiyoj sezilmagan. Punktuatsiya yozuvning keyingi taraqqiyotida shakllana boshlagan.

Yozuvning sintetik usulidan analitik yozuv usuliga o'tilishi, endi yozuvda grafemalarni – belgilarni ajratish, bir harfli so'zni ko'p harfli so'zdan, so'zni ajratish ehtiyojining tug'ilishi, fikrni mantiqli bayon qilish, maqsadni to'g'ri ifodalash zaruriyati kabilar bora-bora yozuvga ayrim ishoralarning kiritilishiga olib keldi. Qadimgi yozma matnlarda so'zlar: a) bo'sh joy, interval (oraliq masofa), b) nuqtalar, v) ayrim belgilar (masalan, qizil rang) vositasida ajratilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi yozuvlarida ham (oromiy, turkiy runik kabi) ajratuvchi belgilar saqlangan, ancha faol qo'llanilgan, bularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos «punktuatsion» belgilar deyish mumkin. O'rta Osiyoda arab yozuvi maydonga kelgandan keyin, oromiy, turkiy runik kabi yozuvlardagi mavjud an'anaviy yozuv tizimi buziladi. Arab grafikasida yozuvning yordamchi elementi sifatida:

a) ta'kid belgi-lari" – tik to'g'ri chiziq, qizil va oq-qora ranglar;

b) "ma'no belgilari" – "Qur'on"dagi turish va determinativlar;

v) "bezak belgilari" qo'llangan.

Demak, XIX asrning II yarmigacha arab grafikasidagi o'zbek yozuvida tinish belgilari bo'lmagan. O'zbek punktuatsiya tarixi, asosan, XIX asrning II yarmidan keyin boshlanganki, buning ob'yektiv va sub'yektiv tarixiy sabablari bor:

1. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining, jumladan, o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanishida omil bo'ldi. Rossiya va u orqali boshqa Yevropa xalqlari bilan bo'lgan turli xil madaniy aloqalar yozuvda ham o'z ifodasini topadi.

2. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoda poligrafiyaning vujudga kelishi: bosmaxonalar, nashriyotlarning paydo bo'lishi, kitob, gazeta, jurnallarning nashr etilishi, o'zbek adabiy tilining matbuot tili darajasiga ko'tarilishi yozuv madaniyatini, savodxonlikni – tinish belgilari qo'llash ilmini shakllantirdi. Bunda 1917 yildan muntazam ravishda ikki tilda (ruscha va uzbekcha) nashr etilgan **"Turkiston viloyatining gazetisi"** ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Bu davrda tarjimachilik ishlari juda rivojlandi. Rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjima matnlarda, tabiiyki, tinish belgilari o'zbekcha nusxaga ham o'tdi.

4. Turkiy tillar, turkiy yozuvlar tadqiq qilina boshlandi: ilmiy asar-lar, grammatik qo'llanmalar paydo bo'ldi. Turkologlar tomonidan tahlil qilingan o'zbekcha matnlarda ham tinish belgilari qo'llanila boshlandi.

Bu holat keyinchalik o'zbek yozuvida an'anaga aylandi. Shunday qilib, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasi shakllanib yetdi.

Xususan, 1920 yillardan keyin barcha turkiy tillar bilan birga, o'zbek grafikasining rivojida, xususan, orfografik va punktuatsion qoidalarining ishlanishida o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek tiliga ko'pgina tinish belgilari (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi) kiritirildi.

Punktuatsiya tilshunoslikning **grafika** sohasi bilan zich bog'langan. Ma'lumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini bir butun holda, barcha belgilar yig'indisini o'rganuvchi soha, Shulardan tinish belgilar punktuatsiya tomonidan o'rganilishidan qat'i nazar, keng ma'noda punktogrammalar ham grafikaning tarkibiy qismidir. Grafika tinish belgilaridan tashqari, raqamli, diakritik va tarnskripsion belgili kabi yozuvlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham,

punktuatsiya o'z o'rganish ob'yekti va vazifasi jihatidan grafikadan, yozuvning boshqa – belgili shakllaridan ajralib turadi.

Demak, grammalar (tinish belgilar) muayyan yozuv tizimining yordamchi, ayni paytda, zarur qimsi bo'lgan shartli belgilar yig'indisidir.

Punktuatsiya orfografiya bilan aloqador. Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rganib, morfologiya bilan zich bog'lansa, punktuatsiya gaplarning to'g'ri tuzilishi, undagi fikrning to'g'ri ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan zich bog'lanadi. Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning ko'pincha kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi omildir. Bundan tashqari, savodxonlikni oshirishda orfografiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktuatsiya ham shuncha ahamiyatga egadir. Orfografiya ham, punktuatsiya ham grafik vositalar bo'lib, to'g'ri yozish to'g'ri tuzish, to'g'ri ifodalash haqidagi ta'limotdir.

Punktuatsiya uslubiyat bilan aloqador. Tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanilishi gap mazmunida g'alizlik, mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, *Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muq.) gapida uch holat bor: a) **qo'y** so'zidan keyin vergul o'qilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi; b) "**dardim**"dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi – kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati tug'iladi; v) "boqma"dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) tug'iladi.

Punktuatsiya sintaksis bilan uzviy aloqador. Punktuatsion qoidalar sintaktik qonuniyatlar, me'yorlar asosida talqin qilinadi. Punktuatsiya qoidalarini sintaktik qonuniyatlarga bog'lab bayon qilishning o'z ilmiy metodik asoslari va usullari bor. Punktuatsiya qoidalarini aniqlashda mazkur tilning barcha sintaktik, uslubiy xususiyatlari hisobga olinadi. Tinish belgilari qo'llashni gap qurilishi, uning grammatik-semantik shakllanishi boshqaradi. Masalan, *Muhayyo, Surayyo, Ra'no,*

Muqaddas, Ko‘zimni yashnatib, kiyibsiz atlas (X.Saloh) gapida vergul uch xil vazifada: 1) uyushgan undalmalarni biriktirish; 2) ularni gap bilan grammatik bog‘lanmaganligi uchun gapdan ajratish; 3) oborotdagi qisqa pauzani qoplash uchun qo‘llanilganki, buni shu gapning konkret sintaktik qurilishi taqozo qilgan.

Punktuatsiya sintaktik fonetika, gap ohangi bilan uzviy bog‘langan. Ohang (intonatsiya) ovozning rang-barang tovlanishi: tinch boshlanishi, ko‘tarilishi (kulminatsiyasi), pasayishi, susayishi, tinishi (uzilishi); tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho‘ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomliligi, takrorlanishi kabilarda ko‘rinadi. Ohang juda murakkab bo‘lib, urg‘u, pauzalar, melodika kabilar uning komponentlari hisoblanadi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifasini ohang boshqaradi. Ohangning o‘zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi. Quyidagi gaplarning ohangini qiyoslaylik:

1. *Turg‘un ukam vrach bo‘ldi.*

2. *Turg‘un, ukam, vrach bo‘ldi.*

3. *Turg‘un – ukam vrach bo‘ldi.*

4. *Turg‘un, ukam vrach bo‘ldi.*

1-gapda Turg‘un bilan ukam o‘rtasida pauza yo‘q: Turg‘un – aniqlovchi, ukam – ega; 2-gapda Turg‘un bilan ukam sanash ohangi bilan aytiladi: uyushiq egalar; 3-gapda "ukam" gapga nisbatan sal tez va pasayuvchi ohang bilan aytiladi: ajratilgan bo‘lak; 4-gapda Turg‘un so‘zi murojaat ohangi bilan gapdan ajratilib, biroz pauza qilinadi: undalma.

Siz bor, men bor qurilmasi ohangning o‘zgarishi tufayli uyushiq bog‘lovchisiz qo‘shma gap (*Siz bor, men bor va boshqalar bor* kabi); sabab ergash gapli qo‘shma

gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap (*Siz bor – men bor* // *Siz borligingiz tufayli men bor*) kabi shakllarda shakllanishi mumkin.

Punktuatsiya bilan ohang qanchalik yaqin bo'lmasin, ular o'ziga xosligi, qimmatini jihatidan har xil baholanadi: ohang (gap ohangi) – birlamchi, material tushuncha; punktogrammalar (tinish belgilari) – hosila; ohangning mahsuli, uni aks ettiruvchi shartli simvollardir. Punktogrammalar ohang ohangga qarab qo'yiladi. Matn har bir gapning mazmun va grammatik, intonatsion xususiyatlaridan kelib chiqib o'qila-di. Punktogrammalarining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilganligini gap mazmuni boshqaradi, "*Tinish belgilariga rioya qilib o'qish*" iborasi ham, "*Deyarli barcha tinish belgilari "o'qiladi"*" (A.M.Peshkovskiy), deyilgan fikrlar ham tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan normal matnlarga nisbatan aytilgandir.

O'zbek tilida ham punktogrammalarni qo'llashning o'z asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida:

- 1) gapning tuzilishi;
- 2) mazmuni;
- 3) ohangi asos qilib olinadi.

Tinish belgilarining o'rni va vazifasini belgilashda mana shu uch xil hodisa alohida-alohida emas, balki ularning bir bugunligi nazarda tutiladi. Chunki bular o'zaro bog'langan bir hodisaning uch tomoni – uch xususiyatidir. Nutqning tuzilishi, mazmuni, ohangi o'zaro zich bog'langan bo'lib, har qanday gapda shu uch xususiyat mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, *Opalar, singillar! Bu savollar majlisda berilsin!* (A.Q.) gapi:

- 1) tuzilishi jihatidan soda;
- 2) buyruq bilan birga emotsiya, murojaat ifodalangan, unda gap bilan grammatik bog'lanmagan so'zlar (opalar, singillar) bor;

3) ko'ta-riluvchi ohangi ohangga ega.

Punktuatsiya asoslaridan kelib chiqib, tinish belgilari qo'llashning quyidagi asoslarini ko'rsatamiz:

1. **Logik-grammatik asos.** Bunga ko'ra, tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangi nazarda tutilgan holda, shulardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishga asoslanadi: *"Dod!" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jonjahdi bilan baqirdi: Yuqol!!!* gaplarining birinchisidagi qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. **Uslubiy asos.** Bu prinsipga ko'ra, tinish belgilari nutq uslubining talabidan kelib chiqib qo'yiladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik uchun personajlarning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilganligidan, borlig'idan ularni tire bilan ajratishga ehtiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsional fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli! (U.)* gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. *G'ovur bo'lib ketdi: Xotin-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydimi! (A.Q.)* gapida ritorik so'roq

bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko‘p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o‘z bilganicha, o‘z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko‘ra qo‘llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me'yoriga bo‘ysinadi.

3. Farqlovchi (differensial) asos. Bu tamoyilga ko‘ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo‘llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog‘liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so‘zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbaini ko‘rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko‘rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 kabi), havolalarda vergul (G‘afur G‘ulom, Tanlangan asarlar, Toshkent, 1985 kabi) qo‘yiladi. Ba‘zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q.

Ko‘p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo‘yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoyillar asosida qo‘llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo‘lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilari, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

№	NOMI	SHAKLI
1.	Nuqta	.
2.	So‘roq belgisi	?

3.	Undov belgisi	!
4.	Nuqtali vergul	;
5.	Ko‘p nuqta	...
6.	Vergul (qo‘sh vergul)	, „
7.	Ikki nuqta	:
8.	Tire (qo‘sh tire)	—
9.	qavs (qo‘sh qavs)	()
10.	Tirnoq (qo‘sh tirnoq)	“”

Nuqta va uning qo‘llanish o‘rinlari

1. Tuzilishidan qat'i nazar, tinch ohang, oxiri pasayuvchi, so‘nuvchi intonatsiya bilan aytiladigan gaplar (darak gap)ning oxiriga nuqta qo‘yiladi. Bunday ohang "nuqta" ohangi deb yuritiladi: *Tong shabadasi g‘ir-g‘ir esa boshladi. (O.) Erta bahor. Daraxtlar uyg‘ona boshlagan. (U.)*

2. Orzu-istak, iltimos, maslahat ko‘rinishidagi buyruq gaplarning oxiriga nuqta qo‘yiladi: *Jonajon vatan, mehring men qalbinga jo etsam. (Kamtar) Sabo, arzimni yetkur, mohitobon bir kelib ketsin. (H.H.)*

3. Remarka ko‘rinishidagi gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi: *Shohista. (asta) Hamdam aka, Hamdam (aylanib orqasiga qaraydi va Shohistani*

ko‘radi.). Shuningdek, *davomi bor. boshi 3-sonda*. tipidagi iboralarning oxiriga ham nuqta qo‘yiladi.

4. Numerativlar bilan sanab ko‘rsatilgan gaplarning oxiriga ham nuqta qo‘yiladi: *Paxta yig‘im-terimiga faol ishtirok etgan quyidagi talabalar mukofotga takdim* etilsin:

1. *Do‘stov Norboy – o‘zbek filologiya yo‘nalishining 3- kurs talabasi.*

2. *To‘xtayev Xo‘jayor – o‘zbek filolotiya yo‘nalishining 1- kurs talabasi.*

5. Darak gaplardan tashkil topgan sarlavhalar oxiriga nuqta qo‘yi-ladi: *Paxta nobudgarchiligiga qarshi kurash xalq nazoratchilarining burchi.* (gazeta)6. Bosh harflar yoki bo‘g‘inlar bilan ko‘rsatilgan shartli qisqartma-lardan so‘ng: *A. Navoiy, A.S. Pushkin* kabi.

7. Havolada muallif nomidan keyin: *G‘.G‘ulom. Tanlagan asarlar. –T.: 1985.*

8. Matematikada nuqta ko‘paytiruv alomati sifatida qo‘llanadi: $2.2=4$, $3.3=9$

9. Ba'zan nuqta sanalarda, kun, oy va yillarni ajratish, murakkab sonlarni guruhlash uchun ishlatiladi: *20.XI.2010.; 01.03.2010.; 54.400.*

So‘roq belgisi va uning qo‘llanish o‘rinlari

1. So‘roq mazmunini anglatuvchi gaplardan keyin qo‘yiladi: *Motor-ning qayeriga o‘q tekkan ekan? Samolyot havoda yana qancha tura olishi mumkin ekan? Benzin baklari yorilib ketmasmikin?* (kinojurnal-dan).

2. Matnlarda biron so‘z, jumla noaniqlik, gumon, anglashilmovchilik bildirsa, bunday so‘z yoki jumladan so‘ng so‘roq belgisi qavsga o‘ralgan holda qo‘yiladi: *Pomir tog‘lari bo‘ylab qilingan ilmiy izlanish natijalari ham to‘plamdan joy olmaganligi (?) ajablanarli!* ("F.T.")

3. So‘roq gap bilan ifodalangan sarlavhalardan keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Xo‘jalik yilini qanday yakunlayapsiz?* (radiodan) *Oilaviy shirkat usuli qanday samaralar berdi?* (radiodan)

4. So‘roq olmoshlari so‘roq ma’nosi uchun ishlatilsa, ulardan keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi: *To‘ldiruvchi kimni? nimani? kim bilan? nima bilan? so‘roqlariga javob bo‘ladi.*

Undov belgisi va uning qo‘llanish o‘rinlari

1. Emotsionallik ifodalaydigan, kuchli ko‘tariluvchi, to‘lqinli ohang bilan aytiladigan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Qanday qilay, sevinch sayratsa tilni! Bahor tuyg‘ulari yayratsa dilni! (U.) Bahor qanday maftunkor fasl!!! (U.)*

2. Vokativ gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Qalandarov gulzorining narigi tomonidagi idoraga qarab: Eshon, hoy! – deb qich-qirdi. (A.Q.)*

3. Emotsiya ifodalaganda, quyidagi so‘z-gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi:

a) undov so‘zlar: *Uf! Qush edim, qanotimni qayirdilar... (H.H.) Attang! Attang! Biz g‘aflatda qolgan ekanmiz-da! (S.Ahm.);*

b) rasm-odat undovlari: *Teshaboy: Xormanglar, ho! Ovozlar: Bor bo‘linglar! Bor bo‘ling! Teshaboy: Balli! Rahmat! (U.)*

v) kirish so‘zlar: *Hammangiz ham bir varakay to‘y qilasiz! Tursun: Albatta! (U.) Chopiqda ham g‘ayrat qildi. Ovozlar: To‘g‘ri! To‘g‘ri! (U.)*

g) **ha, xo‘p, yo‘q** so‘zlari: *Xo‘p! Xo‘p dedik-ku! (K.Y.) Xo‘-o‘sh! Yana nima kerak! (A.Q.) Yo‘q! Uning alamli qalbiga bular orom bera olmagan. (U.)*

4. Emotsiya ifodalasa, nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Hayot!.. Sen bo‘lmasang, yashash yo‘q bir on! Jamol: Sho‘rim qursin! Sarvi: Dahshat! Shoista: Falokat! (U.) Saida... qop qora va yopishqoq bir narsaga toyrib yiqildi. Qon!... Saida uyog‘ini bilmaydi (A.Q.)*

5. Infinitiv gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Ona mehridan judo bo‘lish! Buning alam-hasratini aytib ado qilolmayсан. (T.T.)*

6. Kuchli intonatsiya bilan aytiladigan undalmalar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Quyidagi ikki holatni qiyoslang: *Toxirjon aka! – dedi entikib Saida. Kechiring, Tohirjon aka, og'zimdanda chiqib ketdi.* (A.Q.) *Zamonamiz dadil qadamlar zamonasi-ku, qizim!* (A.Q.)

7. Ritorik so'roq gaplar undov ohangi bilan aytilganda undov belgisi qo'llaniladi: *Nima bizga Amerika! Nima bizga uning sur'ati!* (H.O.)

8. Emotsional buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Bunaqa savollar majlisda berilsin! Raisning o'zi borida gapirilsin!* (A.Q.) *Marhamat, kiring! – dedi Nosirov.* (A.Q.)

9. Darak gaplar ham his-hayajon bilan aytilsa, oxirida undov belgisi qo'llaniladi: *Ha, o'q tamom bo'libdi! – deb o'yladi o'zicha* (H.Sh.) *Men kolxozni opichlab katta qilganman!...* (A.Q.)

Vergul va uning qo'llanilish o'rinlari

Vergul sodda gap doirasida quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Uyushiq ohang bilan aytiladigan bo'laklar, bularning yoyiq holatda guruhlashishidan tashkil topgan sintaktik qismlar vergul bilan ajratiladi. Bunda bo'laklar teng bog'lovchilar (**va** biriktiruvchisi mustasno) bilan birikkanda ham, ular o'rtasida vergul qo'llanila beradi: *Shundan beri... eshon raisning yugurdagi, kabobpaz va oshpazi, ashulachisi, qiziqchisi, ulfati, xodimgiri, agenti, mirzasi edi.* (A.Q.). *Oyna orqali ko'ringan narsalar goh quyoshning nurida ravshanlashib ko'rinar, goh xiralashib, ko'zdan g'oyib bo'lardi.* (Asq.M.). *Qalandarov Saidaning gapini yo eshitmadi, yo o'zini eshitmaganga soldi.* (A.Q.) *Yigit uni quvlab ketdi, ataka qildi, ammo otishga ulgarmadi* (H.Sh.) *U na yozadi na o'qiydi.*

2. Undalmalar, yig'iq, yoyiq, uyushiq, takrorlangan shaklda bo'lishi-dan; gapning boshida, o'rtasida, oxirida kelishidan qat'i nazar, gapdan vergul (emotsiya ifodalasa, undov belgisi) bilan ajratiladi: *Do'stlar, yodimga tushdi yashnagan*

gulzorlar (U.) To 'kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon! (A.Q.) Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko 'zimni yashnatib kiyibsiz atlas. (H.Sh.) O 'rtoq Nosirov, mumkinmi? (A.Q.) Bu gapni menga aytding, o 'rtoq, boshqa kishiga og 'zingdan chiqarma. (A.Q.) O, gul, janub, shifo maskani, Yana keldik sohillaringga (U.)

3. Kirishlar asosiy gapdan vergul bilan ajratiladi. Bunda kirishlar qisqa pauza, past ohang, tezroq tempda aytiladi; qanday shaklda bo'lishidan, gapda qaysi o'rinda kelishidan qati nazar, vergul bilan ajratiladi: *Shunday qilib, ular partizanlarni ikki tomondan "iskanja" orasiga siqib olishdi. (S.Ahm.) Bu birinchi kulgi, albat, toleingga muhr bo 'ladi. (G'.G'.) Qalandarov mashq va ashuladan mamnun bo 'ldi, aftidan, uni yana gapirtirib kulgisi keldi. (A.Q.) Dunyoda hech bir xalq to 'g'ri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga (H.O.) Men sizga aytsam, hech yerda tayyor osh bo 'lmaydi. ("Mushtum"). Shunday qilib desangiz, uyg 'onib ketsam tushim ekan. (og 'izdan) Buyoqqa qarang, siz qachon bu yo 'ldan qaytasiz. (og 'izdan)*

4. Tasdiq va inkor bildiruvchi **ha**, **xo'p** va **yo'q** so'zlari asosiy gapdan vergul bilan ajratiladi. Bular g'am uslubiy talab bilan gapning turli o'rinlarida kela oladi: *Ha, rahbariyat tarkibi uch kishidan iborat, – dedi Saida. Rahbarlikka ko 'zlagan odamingiz bormi? – dedi Qalan-darov. – Yo 'q, Arslonbek aka, muvofiq odamni siz bilasiz. – Xo 'p, men bir o 'ylab ko 'ray. (A.Q.) Bu kabinet yaqinda bo 'lganmi? – dedi Saida. Yo 'q, men kelganda ham bor edi. (A.Q.)*

5. Undov so'zlar gapda qaysi o'rinda kelmasin, undalma oldida qo'llanganda ham, kuchli emotsiya bilan aytilmasa, gapdan vergul bilan ajratiladi: *Xayol, ha, sen mening uchqur kaptarim, O, naqadar jasur va quvnoq edik. (U.) Voy, aya, sizga nima bo 'ldi? (A.Q.)*

6. **qani (qani endi)**, **xo'p** so'zlari vergul bilan ajratiladi: *Qani, mashinangizning oyog 'ini bir sinab ko 'raylik. ("Mushtum") Qani endi, ostonamga oyoq, qo 'ysin-chi.*

Mayli! – dedi Qalandarov yana muylovini burab, –Xo‘sh, men, o‘zingiz... Xo‘sh, yana nima demoqchisiz. (A.Q.)

7. Ega **u, bu, shu, o‘sha** olmoshlari bilan ifodalanganda, ularni shu olmoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilardan farqlash uchun vergul bilan ajratiladi: *U, devor ustidagi qizga qarab, bo‘g‘iq tovush bilan o‘shqirdi. (A.Q.)*

Ba‘zan yuqoridagi ko‘rsatish olmoshlari boshqa so‘z bilan ifodalan-gan egani ajratib ko‘rsatish, ta’kidlash uchun qo‘llanib, ta’kidlovchi, ega vazifasini bajaradi: *Paxta – bu, or-nomus, milliy iftixor. (gazeta)*

6. O‘zi izohlayotgan bo‘lakdan keyin kelib, undan juda qisqa pauza bilan farqlanadigan, maxsus ta’kidlanmaydigan ajratilgan bo‘laklar vergul bilan ajratiladi: *Qobilbobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktak-chan, og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titraydi. (A.Q.) Biz, qishloq yoshlari, tinchlik uchun ko‘rashamiz. Eshon o‘ttiz ikki yoshida shunday xotinga, ya‘ni mana shu Kifoyatxonga uchrabdi. (A.Q.)*

7. Ajratilgan bo‘laklar kengayib, oborot shaklida uyushib keladi va vergul bilan ajratiladi: *Atrof tevarakda bo‘lgan urush qasir-qusuri ayiqni bezovta qilib, uning qish uyqusini buzib, inidan chiqargan edi. (R.F.)*

Vergul qo‘shma gap doirasida quyidagi o‘rinlarda qo‘llaniladi:

1. Bog‘langan qo‘shma gap (**va** bog‘lovchili qo‘shma gap mustasno) komponentlari o‘rtasidagi pauza o‘rnida: *Shu asnoda Umida raisni telefonga chaqirdi-yu, bu gap chala qoldi, lekin Saida buni davom ettirishga xohishi yo‘q edi. (A.Q.) Lekin o‘z kabinetlari hamisha qulf, yo mehmon kelganda ochiladi, yo jahllari chiqqanda... (A.Q.) Na ko‘cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor. (O.)*

Ko‘rinadiki, bunday hollarda vergul biriktiruv bog‘lovchi vazifasida qo‘llanilgan yuklamalardan keyin, ayiruv, zidlov bog‘lovchilaridan oldin qo‘llaniladi.

2. Ergash gapli qo'shma gaplar o'rtasida: *Ayiq uni qor uyumidan ag'dargan hamon, to'pponchani chiqarib tepkisini bosib yubordi.* (R.F.) *Butalar shitirlab, yosh qarag'aylarning shoxlari larzaga keldi.* (P.T.)

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'rtasida: *Bug'u bir cho'chib ketdi, orqa terisi titradi, oyoqlari yana juftak bo'ldi.* (S.Ahm.)

4. Ko'chirma gap bilan muallif gapi o'rtasida: *Paxta rejasini ham oshirib bajardik, – dedi rais.*

Qavs va uning qo'llanish o'rinlari

Matn yoki gap bilan kuchsiz bog'langan, tinch ohang, pasayuvchi ohang – kirish ohangi bilan aytiladigan qo'shimcha izoh anglatadigan qismlar qavsga olinadi:

Eshon (niyati xolis ekan) o'ttiz ikki yoshida shunday xotinga, ya'ni mana shu Kifoyatxonga uchrabdi. (A.Q.)

Yana bir kun kechasi

(Bilmam, oyning kechasi)

Bo'rilar uvullashdi,

Shunday qilib, shu kecha

(Aniq bilmadim necha)

Qirildi bir talay qo'y. (U.)

2. Remarkalar qavsga olinadi: *Xonbobo: Bazm tarqalganda kelib-manda... (Ko'zi Qorabotirga tushadi). Kim bor.... (Yasovullar kiradi.) Olib chiqing.* (S.Abd.)

3. Fikrning manbai yoki iqtibos muallifi matn ichida berilsa, qavsga olinadi: *«Til – aniqlashgan ongdir».* (Fitrat)

4. Gazeta va jurnallardagi davomi bor, boshi jurnalning 2-sonida kabilar ham qavsga olinadi.

5. Fikrning noaniqligini ko'rsatish, yoki aksincha, qat'iyligini, to'g'-riligini ta'kidlash uchun so'roq va undov belgilari matnda qavsga o'ralgan holda (?), (!) qo'llaniladi: *Jonkash-jafokashligi bo'yi-basti (?) bilan, go'zalligi va jondek soddaligi (!) bilan ko'rindi.* (gazetadan)

Nuqtali vergul va uning qo'llanish o'rinlari:

1. Mazmun va grammatik jihatidan bir-biriga nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan qo'shma gap komponentlari, sodda gap qismlari o'rtasida nuqtali vergul qo'llaniladi: *Yulduzlar hali charaqlab turar, qirchshlama sovuq, lekin sharqdan osmon yorishib kelmoqda edi.* (Asq.M.) *Eshon Saidani qiyg'os pishgan olchalar oqarishib ko'ringan binoga tomon boshlab bordi; chamadonni hujraning ostonasiga qo'yib, yugurganicha qaytib ketdi.* (A.Q.)

2. Gap qismlari, bo'laklari guruhlanib, uyushib bog'langanda ular o'rtasida nuqtali vergul qo'llaniladi: *Derazalarga ip bilan osilgan oq krepdeshin pardalar salqi; derazaning chap tomoniga qo'yilgan chiroyli yozuv stoli ustida kattakon sariq samovar, jumragiga rang-barang qog'oz gullar taqilgan bir talay choynak, qopqog'i tob tashlagan qizil patefon; stolga tirab qo'yilgan qimmatbaho trilyaj, uning issiq choynak izlari qolgan tumbochkasida kerosin lampa, chaqilgan gugurt cho'plari, kattakon qizil sovun...* (A.Q.) *Otam... qoziqning uchi ham bo'lma, boshi ham bo'lma, o'rtasi bo'l; uchi bo'lsang, yerga kirasan, boshi bo'lsang to'qmoq yeysan deganlar.* (A.Q.)

3. Raqam yoki harflar bilan ifodalangan numerativlardagi gaplar oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi:

Saida	obraziga	xarakteristika:
a) Saida	kamtarin,	sodda qiz;
b) Saida	ongining	shakllanishi;

v) *Saida* – zamonaviy xotin- qizlarning yorqin timsoli;
g) *Xulosa*.

Ko‘p nuqta va uning qo‘llanish o‘rinlari:

1. Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida ko‘p nuqta fikrda uzilish borligini ko‘rsatadi va gapning oxirida yoki, umuman, u qo‘yilgan o‘rinlarda uzun va ba'zan qisqa pauza bo‘ladi: *Devorda viloyat xaritasi, tuman hududining rejasi turli-tuman chizgilar, foto xujjatlar... Hammasi ham unib o‘ydi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo‘limining mudiri, biri deputat... Axir men... qo‘limdan kelmaydi. Ayol boshim bilan...– dedi-yu, u yog‘ini aytolmadi.* (Misollar A.Qahhordan) *Yo, Tohirga biror zahmat yetdimi... Yo...* (S.Abd.)

2. Personajlarning turli his-hayajoni, emotsiyasini ifodalaydigan o‘rinlarda ko‘p nuqta qo‘llaniladi: *Hmm... dedi u va bir nima demoqchi bo‘lib, fikr to‘playotgan edi... (A.Q.) Saida... qop-qora va yopishqoq bir narsaga toyib yiqildi. Qon!... (A.Q.)*

3. Matn yoki jumla qisqartirilsa, ko‘p nuqta ishlatiladi. Bu holat havolalarda, ko‘chirma nutqlarda ko‘p uchraydi. Qiyoslaylik: *Davlat hukumat vijdon erkinligining Konstitutsiyada belgilangan kafolatlariga og‘ishmay rioya qilinishini yoqlab, dindan jamiyat va shaxs manfaat-lariga zarar yetkazadigan holda foydalanishga o‘rinishlarni qoralaydi. Hukumat... dindan jamiyat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazadigan holda o‘rinishlarni qoralaydi.* (gazetadan)

4. Yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan, ammo yozma nutqda berilishi mumkin bo‘lmagan o‘rinlarda ko‘p nuqtadan foydalaniladi: *Muhabbat degan so‘z nimalarni niqoblamaydi: Ermak, hirs, jinoyat, ovunish... (Asq.M.) Luqmonchaga o‘jarlik qilmagandirsiz, farishtam, – dedi Xoldor hansirab. Hadeb Luqmonchani gapiravermang. O‘lgiday zeriktirsa ham, tinchgina gaplashib o‘tirardi. Siz bo‘lsangiz... (Asq. M.) Esingdami, bug‘doyzorda – g‘aram ichida... (E.V.) Bitta so‘zni hadeb hijjalab, Oxir dedi:– fohisha, ... (H.O.)*

5. Ona tili o'quv qo'llanmalarida berilgan mashqlarda tushirib qoldirilgan va o'quvchi tomonidan qayta tiklash kerak bo'lgan so'z, grammatik elementlar, qo'shimchalar o'rniga ko'p nutqda qo'yiladi: *Akam... ko'r-dim. // Akamni ko'rdim. Salim... keldim. G'G' Salim bilan keldim* kabi.

Tire va uning qo'llanish o'rinlari:

Tire sodda gap doirasida quyidagi vazifalarda qo'llaniladi:

1. Ajratilgan bo'laklarni ajratish, chegaralash, ulardagi emotsional-likni bo'rttirib ko'rsatish uchun tirening qo'llanilishida ikki holat bor:

a) ajratilgan bo'lak o'zi bog'langan bo'lak bilan bir umumiy grammatik ko'rsatkichga ega bo'lsa, shu ko'rsatkich orqali boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishadi. Bunday holda tire ajratilgan bo'lakning oldidan-gina qo'yiladi, xolos: *Nosirov qabulxonada hurmat bilan o'rnidan turgan yordamchisi – yigirma ikki yoshlardagi... nozik qizga salom berib, kabinetiga kirib ketdi. (A.Q.) Biroq hozir begona odam oldida, yana kolxoz rahbari bo'ladigan odamning – yosh bir qizning oldida aytilgan bu gaplar uni hijolatga soldi. (A.Q.)*

b) grammatik jihatdan mustaqil bo'lib, ohang jihatidan ikki tomon-dan pauza bilan ajratilgan bo'laklarning har ikki tomonidan tire qo'yila-di: *Tog'alarim – Egamberdi va Rahimberdi, – meni bir-bir quchoqlab ishga beriladilar. (O.)*

2. Kiritma qurilmalarni chegaralash uchun: *Bilmadim, g'urur yo'l qo'ymadimi – yoshlikda nimalar bo'lmaydi – yo uning menga e'tibor-sizlik bilan qaragani yoqmadimi, bormadim, hatto qarshisiga ham yurmadim. (O'.Umarbekov).*

3. Ikki yoki undan ortiq otning birikuvidan tuzilib, biron tashkilot, ta'limot, ilmiy muassasalarning nomini anglatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: *Karpov – Kasparov matchi. Toshkent – Termiz poyezdi.*

4. Makon, zamon o'rtasidagi chegarani anglatish uchun: *30-40 yillar, XX-XXI asrlar*. Bunda tire **...dan ...gacha** shakllarining vazifasida qo'llanadi: *1941-1945 yillarda fashizmga qarshi ko'rashdik. 1941 yildan to 1945 yilgacha fashizmga qarshi ko'rashdik.*

5. Direktiva, ustav, farmon va qarorlarda har bir obzasda qo'yilishi kerak bo'lgan numerativlar o'rnida tire ishlatiladi. Har bir qoida raqamlar bilan emas, tire vositasida sanab ko'rsatiladi.

6. Bog'lamasi tushirilgan ot kesimli gaplarda tire qo'llaniladi: *Paxta – qudrat, paxta – neft.* (T.T.)

7. Kesimi yoki kesim tarkibi qo'llanmagan elliptik gaplarda ega yoki ega tarkibidan keyin tire qo'yiladi: *Hamma – saylovga! Gazeta – ommaga! O'g'it – dalaga!*

8. Ega logik urg'u olib, maxsus ta'kidlanganda, kesim bog'lama bilan shakllansa ham, tire ishlatiladi: *Men – mustaqil jamiyat fuqarosi-man. Halol mehnat – baxt demakdir.*

9. Uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi so'zlardan ajratish uchun qo'llaniladi: *Bog'imizda olma, anor, shaftoli – hammasi pishdi.*

Tire qo'shma gap tarkibida quyidagi ma'nolarni yozuvda ko'rsatish uchun qo'llaniladi:

1. Ta'kid: *Har yerni qilma orzu – u yerda bor toshu tarozi* (maqol).

2. Zidlik: *Kunduzi issiq – kechasi sovuq.*

3. Shart: *Bolamga yana til tegdir – soqolingni bittalab yulaman* (O.).

4. Sabab: *Shu yo'l bilan bordik – yetdik murodga* (U.).

5. Payt: *Bahor keldi – dala ishlari qizib ketadi.*

6. O'xshatish: *Suv keldi – nur keldi. Vaqting ketdi – baxting ketdi. Qor yog'di – don yog'di* (maqol).
7. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birortasi to'liqsiz yoki elliptik ko'rinishda shakllangan bo'lsa, o'sha to'liqsizlikni qoplash uchun yozuvda tire ishlatiladi: *Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod. Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda.* (maqollar)
8. Dialoglarda personajlar nutqining birini ikkinchisidan ajratish, ularning boshlanish nuqtasini ko'rsatish uchun tire ishlatiladi: – *Ota, bir narsa so'rasam, malol olmaysizmi?* – *So'rang, bolam.* – *O'g'illaringizni gapirib bersangiz.* (S.Ahm.)
9. Ko'chirma gapni muallif gapidan ajratish uchun: *Bilasizmi,–dedi Nosirov, – keyingi ikki yil ichida rahbar besh marta almashinibdi.* (A.Q.)

Qo'shtirnoq va uning qo'llanish o'rinlari:

1. Ko'chirma gap (nutq) qo'shtirnoq ichiga olinadi: *"Partov yer ko'pmi ? Qo'riq qancha ?"* – *dedi Nosirov.* (A.Q.)
2. Havola, iqtiboslar qo'shtirnoq bilan chegaralanadi: *"Til – jamiyat-ning eng muhim aloqa vositasidir", – degan edi domlamiz.*
3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar kesatiq yoki o'zining odatdagi ma'nosidan boshqa xil ma'noda qo'llangan so'z va iboralar qo'shtirnoqqa olinadi: *"Qalandarov "soyada o'sgan" raislardan", – dedi Said.* (A.Q.) *Siz o'zingizga "ayol" deb qarasangiz, biz dodimizni kimga aytamiz.* (A.Q.) *Bu yil Mehri Zulfiqorovga, yangi yilda esa Zulfiqorov Mehrinisoga "qarashadigan" bo'ldi.* (A.Q.) *Qirildi bir talay qo'y, Bo'ri-larga bo'ldi "to'y".* (U.)
4. Badiiy asar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, ashula, spektakl kabi-larning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *"O'tkan kunlar"* romani *Qodiriy* ijodida alohida o'rin

tutadi. (taqrizdan). Yigit gumbirlatib "Rohat"ni chalib yubordi. (O.) Jangda ham yodimda ...*"Gulyor"* (U.) Umida yangi kelgan *"Guliston"*ni varaqlab o'tirardi. (A.Q.)

5. Muassasa, tashkilot, korxona, fabrika, zavod, mehmonxona, do'-kon kabilarning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *Arslonbek Qalandarov – "Buston" kolxozining raisi.* (A.Q.) *"Interkontinental" mehmonxonasi Toshkentga ko'rk bag'ishlab turibdi.*

6. Orden, medal kabi unvonlar nomi qo'shtirnoqqa olinadi: *Sobir Abdulla... ikki marta "Hurmat belgisi" ordeni va "Shavkatli mehnati uchun" medali bilan mukofotlandi.* (G'.G'ulom so'z boshisidan) *Taniqli tilshunos olim, professor Shavkat Rahmatullayev "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.*

7. Kashfiyotlar: o'simlik, taom, kiyim-kechak; mashina, samolyot, televizor kabi maxsus atamalarning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *U yuqoridan eshitilayotgan ovozning maqom va maromidan "Il" samolyoti uchayotganini darrov payqadi.* (telejurnaldan) *"Chust" do'ppisi hamma-ga yoqdi. "Charos" uzumi, "Neksiya, "Damas", "Tiko" mashinasi kabi.*

8. Ichki monolog – o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: *Saida bu ishni boshlaganiga po'shaymonlik sezdi. "Nahotki, men ishni shunday, yana shu xilda boshlashim kerak bo'lsa". Bunaqada hali ish boshlamasdan oramizni buzib qo'yaman-ku!..."* (A.Q.)

9. Sinf, buyruq va qarorlarning ayrim bandlariga qo'shib yoziladigan harflar qo'shtirnoqqa olinadi: *IX "A" sinf, 147-"A" sonli qaror, 18- moddaning "D" bandi* kabilar.

10. Baho ballari qo'shtirnoqqa olinadi: *"besh", "to'rt", "uch", "ikki" yoki "a'lo", "yaxshi", "o'rta" ("qoniqarli"), "yomon" kabi. Unutib bo'lar-mi yarqiroq tabel – Aqlimning ko'zgusi "besh" yakunlarin.* (Y.Hamdam).

11. Matn ichida kelgan maqol va sarlavhalar qo'shtirnoqqa olinadi: *"Bahilning bog'i ko'karmas", degan gap bor(og'izdan) Maqolaga "Buston" deb sarlavha qo'yilgan bo'lsa ham, lekin gap Qalandarov haqida ketar edi.* (A.Q.)

Ikki nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari:

Ikki nuqta mazmuni to'la ifodalanmagan, bu mazmun o'zidan keyin-gi gaplar vositasida izohlanadigan gaplar oxirida ishlatiladi. Demak, ikki nuqta ma'lum gap orqali anglashilgan fikrning davomiyligini, tugallan-maganligini, bundagi tugallik keyingi gaplar orqali aniqlanishini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ikki nuqta qo'yilgan o'rinda ma'lum miqdordagi to'xtam, davomli ohang, fikr davomiga, bundan keyingi izohga ishora sezilib turadi: *Saida daftarini olib yozdi: shirkat boshliqlari bilan suhbatlar o'tkazish, ma'ruza masalalari, faollar bilan suhbat, maorif muammolari, ijroni tekshirish...* (A.Q.)

Ikki nuqta ko'proq quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Mazmuni izohlanayotgan, aniqlanayotgan gapdan keyin. Bunday gaplarda ko'pincha **quyidagicha, tubandagicha** kabi so'zlar qo'llaniladi; keyingi gaplar yoki izohlovchi komponentlar birdan ortiq bo'ladi va ba'zan numerativlar bilan beriladi: *Risola muallifi quyidagicha fikr yuritgan: a) asarda arxeologiya fanining keyingi yutuqlari hisobga olingan; b) kushon imperiyasi davriga xarakteristika berilgan...* (gazeta)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi izohlanuvchi gapning mazmunini ta'kidlash, aniqlash uchun ikki nuqta qo'llaniladi. Bunday gaplar tarkibida ko'p hollarda izohlanishi kerak bo'lgan olmoshlar, **bor** kabi mavhum so'zlar qo'llaniladi yoki shu so'zlar qo'llanilmasligi ham mumkin:

O'zing o'ylab qara: va'da bersagu,

Bajara bimasak axir, uyat-ku! (U.)

Istardim: avvalgi shuhrating yana

Tiklansa tillardan tushmasa isming. (U.)

Maqsadimiz shu: yigit,

El tilagi shu: yigit,

Oshig'ing olchi bo'lsin!

Qalbing quvonchga to'lsin (F.)

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi keyingi gap oldingi gapning sababini bildirsa, birinchi gapdan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Yurtboshimiz bor: tinchlik barqaror, xonadonlarda dorulamon.* ("Guliston").

4. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelganda, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: *Kuzatildi butun xalq: rus, ukrain, o'zbek, yaxudiy.* (G'.G'.)

5. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Shoir deydi: Qalbim vatanga papvasta.* (gazeta). Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelsa ham, muallif gapining ega yoki ega tarkibidan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Bozurgon: Men sen bilan aka-uka kirishaman,— dedi* (F.)

6. Qaror, reja, mavzu, maqsad kabi so'zlar yakka holda, ta'kid ma'nosida qo'llanilsa, ma'nosi izohlanadigan bo'lsa, undan keyin ikki nuqta qo'yiladi:

7. Ikki nuqta raqamlar orasida qo'llanilganda teng bog'lovchi vazifa-sini bajargan bo'ladi: *"Bunyodkor" – "Paxtakor" o'yini 2:0 hisobida tugadi // O'yin ikkiyu nol hisobida tugadi;*

Shuningdek, ikki nuqta matematikada **6:2** shaklida (olti bo'luv ikki yoki oltini ikkiga bo'lish ma'nosida) ham qo'llaniladi.

Punktuatsiyaga doir amaliy mashg'ulot og'zaki, yozma yoki tajriba shakllarida o'tkaziladi.

Birinchi holatda ma'lum bir gap yoki matndagi tinish belgilarining qo'llanish sabablari auditoriyada (bularni mustaqil ham bajarish mum-kin) og'zaki izohlab

beriladi. Tahlil namunasi: *"Neft"chilar charchab davradan chiqa boshlaganlaridan keyin, haqiqatdan, o'yindan fayz ketdi.* (A.Q.)

Bu gapda uch xil tinish belgisi (qo'shtirnoq, vergul, nuqta) ishlatilgan.

1. Neft so'zi ma'nosida qo'llanilmaganligi uchun qo'shtirnoqqa olingan.
2. Kirish so'z (haqiqatdan) gap o'rtasida kelib, ikki tomondan pauza bilan ajratilganligi uchun vergul qo'llanilgan.
3. Birinchi vergul ikki ma'no, ya'ni omonimik vazifa bajargan: a) ergash gapni bosh gapdan, b) kirish so'zni asosiy gapdan ajratgan.
4. Pasayib boruvchi ohangga ega bo'lganligi, xabar anglatganligi uchun gap oxiriga nuqta qo'yilgan.

Ikkinchi holatda tinish belgilari tushirib qoldirilgan ma'lum matn tanlanib, uni kerakli tinish belgilari bilan to'ldirilishi (yozma ravishda) talab qilinadi.

Tahlil namunasi: Uning hovlisini uyini ro'zg'orini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi hovli emas guliston bo'ston uy emas kichkina qasr ro'zg'or emas xazina muzey. (A.Q.)

Gapning tinish belgilari bilan to'ldirilgan shakli: Uning hovlisini, uyini ro'zg'orini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi: hovli emas, gulis-ton – bo'ston, uy emas, kichkina qasr, ro'zg'or emas, xazina – muzey.

Uchinchi holatda tinish belgilarining o'rni bilan bog'liq bo'lgan ohang va uning komponentlari tajriba yo'li bilan tekshiriladi va ularning intonogrammalari olinadi.

MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI

Mustaqil ta'lim topshiriqlari mazkur kurs mazmunini to'liq qamrab olish maqsadida tayyorlangan bo'lib, nazariy egallangan bilimlarni kengaytirish, talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini yo'lga qo'yishga asoslangan.

Talabalar mazkur fanning adabiyot qismini o'rganadilar

1	Eskirgan so'zlar. Xalq dostonlaridan 40 ta eskirgan so'z topib ma'nosini izohlang.	2
2	Hissiy bo'yoqli va bo'yoqsiz so'zlarni ertaklardan 20ta toping	2
3	Frazeologiya. Xalq dostonlaridan 20 ta ibora topib, ma'nosini izohlang.	2
4	Xalq dostonlarida ifodalagan marosimlarni topib, izohlab referat tayyorlash.	2
5	Maqollar.(Ertak va xalq dostonlarda uchraydigan 20 tadan maqollarni yozib, referat tayyorlash)	2
6	Topishmoqlar(10ta sh'eri topishmoq yozib kelish va yod olish)	2
7	Masallar va tez aytishlar(taqdimot tayyorlash)	2
8	Mavsumiy qo'shiqlarga misollar keltiring.	2

9	Bolalar adabiyotiga oid qo'shiqlarni yod olish	2
10	Badiiy asarlardan ko'chma ma'noda qo'llangan 40 ta misol yozib olib, ma'nosini izohlang.	2
11	Qo'shma gap turlarini misollar asosida izohlang	2
12	Bolalar adabiyoti matnlardan o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar topish.	2
13	Eskirgan so'zlar. Xalq dostonlaridan 40 ta eskirgan so'z topib ma'nosini izohlang.	2
14	Hissiy bo'yoqli va bo'yoqsiz so'zlarni ertaklardan 20ta toping,	2
15	Mark Tven "Tom Soyerning sarguzashtlari" asaridan yasama so'zlarni aniqlang.	2
16	Xalq dostonlarida ifodalagan marosimlarni topib, izohlab referat tayyorlash.	2
17	Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi. Maqollar.(Ertak va xalq dostonlarda uchraydigan 20 tadan maqollarni yozib, referat tayyorlash)	2
18	O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. Topishmoqlar (10ta she'riy topishmoq yozib kelish va yod olish)	2
19	Xalq og'zaki ijodi kichik janrlari Tez aytish janri tabiati mavzusida tarqatma material tayyorlang.	2
20	A.Navoiy chistonlarida ifodalangan belgi xususiyatni bildiruvchi	2

	soʻzlarni aniqlang.	
21	Alisher Navoiyning pand-nasihatlarini tahlili.	2
22	Lapar janri boʻyicha material tayyorlash. Lapar yod olish	2
23	Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan gʻoyalar. Masallarda ishtirok etgan 20ta iboralarni aniqlang.	2
24	Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbar ijodiy faoliyatidan yasama soʻzlarni izohlang.	2
25	Oʻzbek bolalar adabiyotidagi ertak va dostonlarining oʻziga xos xususiyatlari. Ertak va dostonlarda tuzilishiga koʻra soʻzlarning turlarini izohlang.	2
26	Ertaklarning mavzusi va tabiati. Abusaid Koʻchimov ertak va dostonlarining oʻziga xos xususiyatlari boʻyicha taqdimot tayyorlang	2
27	Sharl Perro ertaklaridan omonim va dublet soʻzlarni aniqlang.	2
28	Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlardan birini tanlab, unda ifodalangan tovush oʻzgarishlarini aniqlang.	2

JAMI: 56 SOAT

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
morfologiy a	морфолог ия	morpholog y	(grekcha morphe - «shakl», logos – «ta'limot») so'zlarning grammatik (morfologik) xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning o'zgarishi va shu o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar, so'zning tuzilishi va tarkibi o'rganiladi.
morfemika	морфеми ка	morphemic s	so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu kichik qismlar tilshunoslikda morfemalar deb yuritiladi.
so'z yasalishi	словооб азование	derivation	qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir. So'z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalishini (yasama so'z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini,


			so‘z yasalishi strukturasi (tarkibini) tekshiradi.
so‘z tarkibi	состав слова	the composition of speech	so‘zdagi eng kichik ma’noli qismlar, ya’ni asos va qo‘shimcha.
o‘zak morfema	основа	basis	so‘zning leksik ma’nosini bildiruvchi asosiy qism bo‘lib, qo‘shimchalar shu o‘zak bilan birgalikda qo‘llanadi. O‘zak morfema so‘z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos hisoblanadi. U so‘zning semantik yadrosini tashkil etadi.
qo‘shimcha	окончание	ending	mustaqil qo‘llanmaydigan, bog‘liq holda, o‘zakka qo‘shilib keladigan, o‘zakning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan har xil ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir.
morfema	морфема	morpheme	so‘zning eng kichik ma’noli qismi bo‘lib, u so‘z tuzilishida zarur bo‘lgan eng kichik ma’noli qism sifatida yasama so‘zlarning ham, so‘z shakllarining ham tarkibiga kiradi va shu shakllarda ajratiladi.
so‘zshakl	словоформа	word forms	tildagi mustaqil ma’noli so‘zning so‘z birikmasi yoki gapda qo‘llaniladigan shakli bo‘lib, shu shakli bilan bog‘liq holda

			grammatik ma'nolarga ega bo'lishidir.
paradigma	парадигма	paradigm	(yunoncha - namuna) – umumiy belgisiga ko'ra birlashadigan, o'z ichida xususiy belgilari bilan farqlanadigan birliklar yig'indisi.
kelishik kategoriya si	категория падежа	category mortality	otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'noni ifodalovchi shakllar tizimidir.
grammatik ma'no	грамматическое значение	grammatical meaning	mavhum tushunchadan iborat bo'lib, shu xildagi boshqa tushunchalar bilan birga so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda ifodalanadigan qurilish sistemasida so'zning vazifasi va o'rnini belgilaydigan ma'nodir.
grammatik kategoriya	грамматическая категория	grammatical categories	o'zaro bir-biriga zid qo'yilgan va qiyosan olingan grammatik ma'nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar tizimidir.
so'z turkumi	часть речи	part of speech	so'zlarning mavhum grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik belgilariga qarab guruhlariga bo'linishidir.
ot	имя существительное	noun	shaxs va narsa ma'nosini anglatadigan va son, kelishik hamda egalik kabi grammatik

			ma'nolarni ifodalaydigan mustaqil so'z turkumidir.
sifat	имя прилагате льное	adjective	predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'z bo'lib, odatda otga bog'lanib keladi, uning biror belgisini aniqlashga xizmat qiladi.
qiyosiy daraja	степени сравнени я	degrees of comparison	predmetning belgisini biror narsaga qiyoslagan holda ko'p yoki kamligini anglatadigan shakldir.
olmosh	местоиме ние	pronoun	gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumidir.
fe'l	глагол	verb	shaxs yoki narsaning ish-harakati va holatini ifodalovchi mustaqil so'zlardir.
ravish	наречие	adverb	mustaqil so'zlardan bo'lib, harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. Ravish morfologik jihatdan o'zgarmas bo'lib, ko'pincha fe'llarga bog'lanib keladi.
otlashish	субстанти вация	substantivat ion	boshqa turkum so'zlarining gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir.
tilshunosli	языкозна	linguistics	Til haqidagi, uning ijtimoiy

k	ние		tabiati,, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan
ijtimoiy-gumanitar fanlar.	общественно-гуманитарные науки	sociohumanitarian	jamiyat va insonlar faoliyati bilan bog'liq fanlardir
adabiy til	литературный язык	literary language	milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli.
umumiy tilshunoslik	общее языкознание	general linguistics	yer yuzida mavjud bo'lgan barcha tillarning umumiy xususiyatlarini, kelib chiqishini, dunyo tillarning tasiflanishini o'rganadi
nazariy tilshunoslik	теоретическое языкознание	theoretical linguistics	til hodisalariga nazariy jihatdan yondashadi, ya'ni shu hodisalar bo'yicha umumlashma tarzida chqarilgan xulosalar, qoidalar yaratadi
til	язык	language	ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisa
amaliy tilshunoslik	прикладное языкознание	practical linguistics	tilga amaliy nuqtai nazardan yondashadi, ya'ni uning insonlar hayotidagi amaliy ahamiyatini o'rganadi
nutq	речь	speech	tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir
tizim	система	system	o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlik, birlik hosil qiluvchi juda ko'p elementlar

II. Tilning vertikal harakatiga ko'ra



1. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlar: ot – ol, ol – oq, oq – osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – og', og' – ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, ko`za – g`o`za kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladigan so'zlar.
Masalan: qo'y – yo'q
(birinchi so'z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so'zning oxirida qo'llanadi.)

3. Biror tovushning ortiqqligi bilan farq qiladigan so'zlar: o'lka – yo'lka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, o'roq - so'roq kabi.


Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatilishi

01 His – hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida ?!

02 Undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa !!!

03 Muallif gapi va ko'chirma gap orasida ketma-ket tinish belgisi ishlatiladi

Ovoz apparati uch qismdan iborat:




Amaldagi o'zbek alifbosi



Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'

**TIRE rus yozuvchisi Karamzin tomonidan kiritilgan.
O'zbekcha matnlarda XIX asrning 70-yillaridan uchraydi**





Bu yerda tinish belgilarning o'zgarganiga e'tibor bering!

Tinish belgilarining o'rni o'zgargandan so'ng gaplar ma'nosida qanday o'zgarish yuz berdi? Izohlang.

To'g'ri, yo'llarda yurish
xavfli emas.

Soliha opang qayerda
o'qiydi?

To'g'ri yo'llarda yurish
xavfli emas.

Soliha, opang qayerda
o'qiydi?

1. *O'g'lim, sen uzumini yegin-u, bog'ini surishtirma.*

Ushbu gapda tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan so'z qanday sintaktik vazifa bajargan?

- A) kesim B) undalma
C) ega D) to'ldiruvchi

2. Qaysi gapdagi ega vazifasidagi so'z tarkibida ishtirok etgan undoshlarning barchasi jarangli til undoshlari sanaladi?

- A) Ilm olish oson ish emas, unga har kim chidayvermaydi.
B) Javohir yo'lda adashib qolgan bir cholni ko'rib qoldi.
C) Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.
D) Shunda botir o'g'lonlar yurt himoyasiga o'tlanibdilar.

3. Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan yasama so'zlarni aniqlang.

- 1) yolg'izlik; 2) teshik; 3) guldor; 4) yozgi;
5) jigarrang; 6) diyor.

- A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 6
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6

4. Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan yasama so'zlarni aniqlang.

- 1) yig'in; 2) tushuncha; 3) ozg'in; 4) g'ildirak;
5) ezgu; 6) yog'li.

- A) 1, 3, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6
C) 1, 3, 5, 6 D) 2, 4, 5

5. Quyida berilganlardan tarkibida ng harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni aniqlang.

- 1) dengiz; 2) singan; 3) kongress; 4) ko'rdingiz;
5) tonggi; 6) osmonga.

- A) 1, 4, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6

C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 6

6. Quyida berilganlardan tarkibida ng harflar birikmasi ishtirok etmagan soʻzlarni aniqlang.

1) sening; 2) donga; 3) shtanga; 4) qonguncha;
5) yengil; 6) koʻngach.

A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5

C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 2, 4, 6

7. *Koʻp tilni bilish bitta qulfn ocha oladigan bir nechta kalitga ega boʻlishdir.*

Ushbu gapdagi tarkibida jarangsiz lab undoshi qatnashgan soʻzlar qaysi turkumga oid?

- A) ravish, feʼl, ot
- B) ravish, ot
- C) feʼl, ot, olmosh
- D) ot, olmosh

8. *Odobli, bilimdon, aqlli, mehnatsevar va iymon-eʼtiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir.* Ushbu gapdagi ot yasovchi qoʻshimchalar tarkibida nechta til oldi jarangli undosh ishtirok etgan?

- A) 3 ta B) 2 ta
- C) 6 ta D) 1 ta

9. *Sovuqdan dagʻ-dagʻ qaltirayotgan choʻpon uzoqdan miltiqning ovozi eshitdi.*

Ushbu gapda qatnashgan taqlid soʻz tarkibidagi undoshlar haqida berilgan qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Jarangsiz lab undoshi ishtirok etgan.
- B) Til oldi undoshi 2 oʻrinda ishtirok etgan.
- C) Chuqur til orqa undoshi 2 oʻrinda ishtirok etgan.

D) Jarangli undoshlar ishtirok etgan.

10. Quyidagi qaysi vazifani bajaruvchi qo'shimcha birgina til oldi jarangli undosh bilan ifodalanishi mumkin?

A) fe'lining kelasi zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha

B) fe'lining harakat nomi shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha

C) fe'lining birgalik nisbati shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha

11. I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi. Qaysi javobda egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bilan yoziladigan yasama so'zlar qatori berilgan?

a. tirnoq, chelak, parrak

b. qiliq, istak, elak

c. so'roq, terak, ko'zoynak

d. bo'yoq, ittifoq, qiziq

12. Qaysi javobda egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bilan yoziladigan tub so'zlar qatori berilgan?

a. bilak, qovoq, chelak

b. axloq, tirnoq, pishloq

c. yurak, buyruq, kerak

d. sovuq, sana, o'ym

13. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub?

A) hayron-hayvon B) paxta-taxta

C) qadoqchi-qaroqchi D) chayla-qayla

14. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub?

a. talaba-g'alaba B) burun-butun

C) do‘ppi-lo‘ppi D) qovun-sovun

15. Qaysi javobda berilgan so‘zlarning ma’nolarini farqlovchi undosh tovushlar

ham jarangli yoki jarangsizligiga ko‘ra, ham til qismlarining harakatiga ko‘ra o‘zaro bir turga mansub emas?

A) qayla-qayra B) narvon-karvon

C) quduq-quruq D) dutor-duchor

16. Qaysi javobda berilgan so‘zlarning ma’nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli

yoki jarangsizligiga ko‘ra, ham til qismlarining harakatiga ko‘ra o‘zaro bir turga mansub emas?

A) tuzmoq-suzmoq B) ziyon-ziyod

C) jon-don D) g‘ildira-shildira

17. *Hayotimizda kitobning ahamiyati beqiyosdir.*

Ushbu gapdagi qaratqich aniqlovchi tarkibida qatnashgan undoshlar haqidagi to‘g‘ri ma’lumotni toping.

A) Jarangsiz lab-lab undoshi qatnashgan.

B) Jarangli til orqa undoshi 2 o‘rinda qatnashgan.

C) Jarangsiz til orqa undoshi qatnashgan.

D) Jarangli til oldi undoshi 2 o‘rinda qatnashgan.

18. Qaysi gapdagi undalma tarkibida 4 ta til oldi jarangli undosh qatnashgan?

A) Yosh do‘stim, o‘qituvchi ham xuddi onadek mehribon, ulug‘.

B) Botir bo‘ling, bolalarim, dushmanga aslo bo‘yin egmang.

C) Ey farzand, qancha notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil.

D) O, gul bahor, sen ochil, sochil, madh etayin men yoza-yoza.

19. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga i unlisi yoziladi?

- 1) soʻv...q; 2) sup...rmoq; 3) muh...m;
1) qut...lmoq; 5) sur...shtirmoq; 6) tush...nmoq.

- A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 4, 6
C) 3, 5 D) 1, 3, 5

20. Quyidagi qaysi soʻzlarda nuqtalar oʻrniga i unlisi yoziladi?

- 2) muq...m; 2) sup...rmoq; 3) tov...q;
4) bult...r; 5) tugʻ...lmoq; 6) yut...q.

- A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 5 D) 1, 2, 4, 6

21. Qaysi javobda berilgan soʻzlardagi nuqtalar oʻrniga boʻgʻiz undoshi yoziladi?

- A) ...iyla, ...ulosa
B) sa...iy, i...tiro
C) ...ushyor, ...ozirjavob
D) ...ayot, ...aridor

22. *Fil kuchli, fildan ham til kuchlidir.* Ushbu gapda nechta tub soʻz tarkibida jarangsiz til oldi undoshi ishtirok etgan?

- B) 2 ta B) 1 ta
C) 4 ta D) 3 ta

23. Qaysi javobda tarkibida jarangsiz til oldi undosh(lar)i ishtirok etgan yasama narsa otlari berilgan?

- C) qisqich, taroq, oʻchirgʻich
D) yurtldosh, tilshunos, quroldosh
E) goʻsht, pichoq, qoshiq
F) guidon, elak, kiyim

24. *Millatning dahosi, aqli va ruhiyati maqollaridan bilinadi.*

Ushbu gapdagi nechta soʻz tarkibida jarangsiz til oldi undoshi qatnashgan?

- G) 5 ta B) 2 ta
C) 3 ta D) 4 ta

25. Qaysi gapda imloviy xatolikka yoʻl qoʻyilgan?

- A) Oʻgʻil bolalar ariqlarni tozaladilar, qizlar esa hovlini supurdilar.
B) Onam qoʻy goʻshtini oʻz yogʻiga qovurib berdilar.
C) Sap-sariq qovunlarning xushboʻy hidi anqib turardi.
D) Bugun yumushlarim koʻpayib ketdi, siz aytgan joyga bora olmadim.

26. Qaysi gapda imloviy xatolikka yoʻl qoʻyilmagan?

- A) Bolalar atrofni toʻyib-toʻyib tomosha qilishdi.
B) Shunda uchchala ayolning oʻgʻillari kelib qolishibdi.
C) Vatan muqaddas tushincha sanaladi.
D) Darhaqiqat, endi uning qoʻlidan osonlikcha qutulib boʻlmaydi.

27. Quyida berilganlardan imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlarni aniqlang.

1) tele koʻrsatuv; 2) taqiqlamoq; 3) hokandoz;
uydurma; 5) masʼul; 6) hatti-harakat

- A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 2, 4, 5

28. Qaysi javobdagi gaplar juftligida oʻzaro asosdosh soʻzlar qatnashmagan?

- A) Anhor yoqasida ikki echki oʻtlab yurar edi.
U har kuni seroʻt dalalarda qoʻylarini boqib kelardi.
B) Choʻlboboning payvandlariga havas qilmaydigan bogʻbon kam topiladi.

Yigit tadbirkorligi tufayli yerli, suvli va bog‘li mulkdorga aylanibdi.

C) Bir kechik topish kerak daryodan o‘tgani.

Kechki shabada uning tanasiga huzur bag‘ishlamoqda edi.

D) «Ko‘cha changitib yurgan yillaring ortds qoldi, bolam», - dedilar bobom.

Yangi chiqqan oy dalani sovuq, xira, qandaydir changsimon nur bilan qoplagan edi.

29. Qaysi javobda o‘z shakldoshi bilan o‘zaro bis xil turkumga oid bo‘la oladigan so‘z bilan ifodalangan ega qatnashgan?

A) Ishga berilib ketganidan yuz-ko‘ziga ko‘cha changi yopishayotganini ham payqamas edi.

B) Bu taxt sening avlodlaringga ham nasib etmaydi.

C) Tanlovda bu tuman faxrli birinchi o‘rinni egalladi.

D) «Yoz o‘tmoqda soz», - deya'ko‘chalarda chopib o‘ynashardi.

30. U boa'li poyabzal sotib olishni mo‘ljallagan edi.

Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan

asosdosh bo‘la oladigan so‘z qaysi javobda qatnashmagan?

A) Polvon belini belbog‘ bilan mahkarri bog‘ladi va ishga shaylandi.

B) Bu voqeadan qanday xulosa chiqarishi uning aql-idrokiga bog‘liq.

C) Nodirjon echkini o‘tloqqa bog‘lab uyga qaytdi.

D) Yigit tadbirkorligi tufayli yerli, suvli va bog‘li mulkdorga aylanibdi.

31. Tarkibida sifat, ot va fe‘l turkumiga oid yasama so‘zlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Shoirning qalbi samimiy va beg‘ubor tuyg‘ulardan oziqlansa, uning ijod daraxti gurkirab bo‘y cho‘zadi.

B) Endi uni harbiy mashq va ta‘limning mashaqqatli sinovlari, yangi kasb, yangi do‘stlar kutmoqda edi.

C) Tal‘at shimining cho‘ntagidan taroq olib, sochini tekislarkan, tag‘in jilmaydi.

D) Ertalabki choy ustida picha hangomalashgach hammamiz yo‘lga

otlandik.

32. Qaysi gapda sifat va fe'l turkumiga oid yasama so'zlar qatnashgan?

- A) Darhaqiqat, shoirning yuragi pok tuyg'ulardan oziqlanadi.
- B) Qizni bu qo'rqinchli shubhalar qiynardi.
- C) Qo'lining harakatlari bilan xalqqa tinchlanishni buyurdi.
- D) Shoir bilimsiz tabiblarni jallod shogirdiga o'xshatadi.

33. Qaysi gapda yasama otdan yasalgan sifat qatnashgan?

- A) Bir vaqtlar sen turtkilagan yigit bugun senga rahbar bo'lib kelmoqda.
- B) Alisher Navoiy bilimsiz tabiblarni jallodga o'xshatardi.
- C) U beg'ubor yaylov havosida ulg'aygan kamgap va qaysargina bir bola ekan.
- D) Maqtanchoqliging tufayli sen do'stlaringning e'tiboridan qolding.

34. *Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi - tobelik va mutelik zanjirida; xalos bo'lding.*

Ushbu gapda nechta sodda yasama so'z qatnashgan?

- A) 5 ta B) 2 ta
- C) 4 ta D) 3 ta

35. *Dunyoviy bilim va hunarlarga ega bo'lgan yoshlarimizning fazilatlari haqida soatlab gapirishimiz mumkin.*

Ushbu gapda qatnashgan sodda yasama so'zlar haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas?

- B) Gapda sifatdan yasalgan ravish qatnashgan.
- C) Gapda otdan yasalgan sifat qatnashgan.
- D) Gapda otdan yasalgan fe'l qatnashgan.
- E) Gapda fe'ldan yasalgan ot qatnashgan.

36. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) taassuf, murojatnoma, tabiiy
- B) tanazzul, muassasa, ma'dad
- C) muvofiq, taasurot, taalluqli

D)maishiy, tafovut, tafakkur

37. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) o'zidan-o'zi, voy-voy, baxt-u saodat

B) o'z-o'zidan, voy-voylamoq, hol-ahvol

C) o'z-o'zicha, voy-voyiga, baxt-saodatli

D) o'z-o'zligicha, voyvoyak, tarjimayi-hol

38. Qaysi gapda ochiq so'zi o'z ma'nosida qo'llangan?

A)Nafisa o'z fikrlarini ko'pchilik oldida ham
ochiq ifoda qila olardi.

B)Yig'ilishda aytilgan anchagina muammolar
ochiq qoldi.

C)Haftaning dushanba kuni ochiq eshiklar kuni
deb e'lon qilindi.

D)Ismat ota ochiq derazadan boshini chiqarib,
o'g'lini chaqirdi.

39. Qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud
EMAS?

A)Iqtisodiy islohotlarning sersamaradorligini ta'minlash uchun ishlar olib
borilmoqda.

B)So'zlarimizning ma'noviy bo'yoqdorligi nutqimiz jozibasini yanada
oshiradi.

C)Qadriyatlarimizga nopisandsizlik bilan munosabatda bo'lish milliy
fojiamizdir.

D)Olimlarimiz havola etayotgan ushbu loyiha yashash sifatini oshirishga
qaratilgan.

40. Berilgan gapda ishtirok etgan ko'makchi qanday mazmuniy munosabat
ifodalagan?

Buyuk bobolarimizning ma'naviy merosi xususida so'z yuritganimizda Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini alohida tilga olamiz.

- A) vosita ma'nosini
- B) fikr mavzusi ma'nosini
- C) tarz, holat ma'nosini
- D) yo'nalish ma'nosini

41. Qaysi gaplarda tire o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?

1. Negadir o'z noroziligini keskin ifodaladi: "Soni bor – sifati yo'q".
2. Biroz o'ylanib javob berdi: "Islohotlardan maqsad – sifatli ta'lim".
3. "Avvalo, Vatan muqaddas sajdagohdir", – derdi adabiyot ustozimiz.
4. Insonning qattiqqo'l ustози – hayot, aqlli tarbiyachisi esa kitobdir.
5. Til, adabiyot va madaniyat – barchasi millatning borligidan dalolatdir.
6. Rassom inson ruhiyatini – uning qalbini o'z ijodida aks ettiradi.

A) 2 va 3 B) 1 va 2 C) 5 va 6 D) 2 va 4

42. O'zbek tilida so'zlashuvchilarning soni yer yuzida qanchani tashkil etadi?

A) 35 mln dan ortiq B) 32 mln dan ortiq C) 33 mln dan ortiq D) 30 mln dan ortiq

43. O'zbek tilida so'zlashuvchilarning qanchasi O'zbekistonda yashaydi?

A) 23 mln dan ortiq B) 24 mln dan ortiq C) 25 mln dan ortiq D) 26 mln dan ortiq

44. Adabiy til nima?

- A) Milliy tilning ko'rinishi. B) Kishilarning nutqidagi hududiy tildir.
- C) O'zbek milliy tilining tarkibida, uning doirasida bo'ladi.
- D) Rivojlangan, boyigan, takomillashgan va me'yorlashgan oily shakli.

45. Milliy til nima?

- A) Ma'lum millat vakillari uchun umumiy bo'lgan til.
- B) Xalq shevalari, oddiy so'zlashuv unsurlari, jargonlarni o'z ichiga oladi.
- C) Milliy madaniyatning ko'zgusi sifatida ularni ruhan birlashtiradigan vosita.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

46. Grammatika nimani o'rgatadi?

- A) Nutq uslublariga daxldor til xususiyatlari. B) To'g'ri gapirish va yozish.
C) Nutq uslublarini o'rganadi. D) Gaplarning bog'lanishini o'rganadi.

47. Uslubiyat deganda nimani tushunasiz?

- A) Nutq uslublarini o'rganadi. B) Til munosabatlarini o'rganadi.
C) Nutq munosabatlarini o'rganadi D) Til va so'zlarning me'yorlarini o'rganadi.

48. O'qituvchi dars mashg'ulotida qanday uslubdan foydalanadi?

- A) So'zlashuv. B) Ilmiy. C) Badiiy D) Rasmiy

49. Qaysi uslub bir jihati bilan boshqa uslublardan farq qiladi?

- A) Ilmiy uslub B) Publitsistik uslub C) So'zlashuv uslub D) Badiiy uslub

50. Murshid so'zining ma'nosi nima?

- A) Saboq beruvchi pir, shayx, ustoz B) Dushman, g'anim
C) Islo dini tarqalgan mamalakatlarda bilimdon kishilarga berilgan nom.
D) So'fiylik yo'liga kirgan shaxs

51. Muloqot vaziyati va sharoitiga muvofiq qaysi uslublar nutqning yozma shakliga mansub?

- A) Publitsistik B) Badiiy C) Ilmiy D) Barcha javoblar

52. Badiiy uslubga xos so'zni toping.

- A) Ovqat B) Taom C) Ne'mat D) Xo'rak

53. Nutqni to'g'ri va ta'sirli tuzishda qaysi uslub yetakchilik qiladi?

- A) So'zlashuv B) Badiiy C) Publitsistik D) Rasmiy

54. Salbiylik va ijobiylik bo'yog'iga ega so'zlarni toping.

Aravaning orqasidan iljaygan kalla ko'rindi. Qiz Umidga qarab jilmaydi.

- A) Iljaygan – salbiy. B) Jilmaydi – ijobiy. C) Iljaygan – salbiy va ijobiy. D) A va B

55. Menejment so'zining ma'nosi nima?

- A) Zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish.
B) Korxona va kompaniya egasi bo'lmagan boshqaruvchi.
C) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish D) Bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli

56. *Yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol* so'zlaridagi ma'lum uslubga xoslanganligi va uslubiy bo'yog'ini farqlang.

A) Yuz – biron-bir uslubga xoslanmagan, bet, aft, bashara, turq – so'zlashuv uslubida, salbiy bo'yoq.

Chehra, jamol – badiiy uslubda, ijobiy bo'yoq.

B) Yuz, bet - biron-bir uslubga xoslanmagan, bet, aft, bashara, turq – so'zlashuv uslubida, salbiy bo'yoq. Chehra, jamol – badiiy uslubda, ijobiy bo'yoq.

C) Yuz – biron-bir uslubga xoslanmagan, bet, aft, bashara, turq - badiiy uslubda, ijobiy bo'yoq.

Chehra, jamol – so'zlashuv uslubida, salbiy bo'yoq.

D) Yuz, bet - badiiy uslubda, ijobiy bo'yoq. bet, aft, bashara, turq - so'zlashuv uslubida, salbiy bo'yoq. Chehra, jamol – biron-bir uslubga xoslanmagan

57. Tig'i ishqing yorasidur butmagan,

Dardini har kimga aytib butmagan.

Hajr sahrosida ohim o'tidin,

Anda gul yoxud giyohe butmagan. (A.Navoiy)

Shakldosh so'zlarning ma'nosini izohlang.

A) tugamagan, o'smagan, tuzalmagan B) tuzalmagan, tugamagan, o'smagan

C) tugamagan, tuzalmagan, o'smagan D) o'smagan, tugamagan, tuzalmagan

58. A.Navoiyning shohbaytlaridan qaysi biri to'g'ri berilgan?

A) Quyoshlig' istasang, kasbi kamol et, Kamol kosib etarsen, bemalol et.

B) Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranch ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganch ila

C) Har kishikim, birovga qozg'ay chog', Tushgay ul chog' aro o'zi nogoh.

D) Hunarni asrabon netkumdur oxir, Olib tufroqqamu ketkumdir oxir.

59. Adip so'zining manosi ...

A) Adabiy asarlar ijodkori, yozuvchi B) Tortmoq, olmoq C) Mol-mulk

D) To'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato – mag'iz

60. Milliy til yana qaysi uslubda qo'llaniladi?

A) So'zlashuv va publitsistik B) So'zlashuv va rasmiy

C) So'zlashuv va badiiy D) So'zlashuv va ilmiy

61. Kolorit so'zining ma'nosi nima?

A) Rasm, ranglarning uyg'unligi B) O'tmish, hayotning o'tgan qismi

C) Biror narsaning o'ziga xos tomoni, xususiyatlari D) A va C

62. Brifing so'zining ma'nosi nima?

A) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko'paytirish.

B) Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtai nazar bildirish.

C) Zamonaviy talb va didga moslab o'zgartirish. D) Maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi.

63. O'zbek tilida nechta nutq uslubi mavjid ?

A) 6 ta

B) 7 ta

C) 5 ta

D) 4 ta

64. Kinoya , puiching, qochimlarga boy nutq uslubi qaysi ?

A) badiiy

B) og'zaki va yozma

C) so'zlashuv

D) B va B javoblar

65. Kafolat muddati, davo, ariza, buyruq , ish qog'ozlari kabi tushunchalar asosan qaysi uslubda qo'llaniladi ?

A) ilmiy

B) rasmiy

C) publistiktik

D) so'lashuv va rasmiy

66. Badiiy uslubga xos so'zlar qaysi qatorda to'g'ri berilgan ?

A) samo, turna qator , koz' binafsha

B) obi hayot , kamalak , falokat

C) hikoya, ruboiy , she'r , kelin

D) dil, fano, homush, sarmast

67. Insho qanday so'z va qanday ma'noni bildiradi.

A) lotincha soz' bo'lib o'qish degan ma'noni

B) arabcha soʻz boʻlib yaratish ijod qilish yoʻlama ish degan maʼnoni bildiradi.

C) Inglizcha soʻz boʻlib kuylash degan maʼnoni bildiradi

D) Nemischa soʻz boʻlib qurish degan maʼnoni bildiradi

68. Koʻchirma gap ozʻlashtirma gapga aylantirilganda koʻchirma gapli qoʻshma gap

A) murakkab qoʻshma gap shaklini oladi

B) sodda gap shaklini oladi

C) ergashgan qoʻshma shaklini oladi

D) bogʻlovchisiz qoʻshma gap shaklini oladi.

69. Oʻzbek adabiy tili taraqqiyotning eski oʻzbek adabiy til davr qaysi javobdaligini aniqlang.

A. VI asrgacha

B. VI –X asrlar

C. XIV asrning II yarmidan XX asrning I choragigacha D. XI asrdan XIV asrning yarmigacha

70. Oʻzbek tili qaysi tillar oilasiga mansub.

A. Slavyan tillari

B. Hind-Evropa tillari

C. Somiy

D. Turkiy

tillar

71. Ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan qoʻshma soʻzni belgilang.

A. Sirdaryo, Oʻrta Osiyo, kungaboqar

B. Oltinkoʻl, soʻz boshi, Quyi

Chirchiq C. Oʻrta Osiyo, Quyi Chirchiq, Oʻrxun-Enisey D. Taskirai avliyo, hamma vaqt, Yuqori Chirchiq

72. Feʼl bilan feʼldan yasalgan qoʻshma soʻz qatnashgan gap qatorini belgilang.

A. Maktab kutubxonasidan olgan barcha kitoblarni oʻqib chiqdim

B. Xalqni kuchli bir maqsad yoʻlida birlashtiraylik. C. Gap kelgusi rejalar ustida boradi

D. Quyi Chirchiq tumanidagi maktablarga bordim.

73. Qoʻshma gap qaysi qatorda berilgan.

A. Uydagilar nimani buyursa, shuni bajar. B. Paxta tepimi, poliz yigʻini boshlandi.

C. Mohira oʻzi bilganicha yozdi, chizdi, oʻqidi. D. U bejirim tuflisi bilan yerni duk-duk bosib mashina tomon yurdi.

74. Qaysi qatorda sodda gap berilgan?

A. Yurtim dalalaring bebaho, tuprogʻing tabarruk B. Oltin olma, duo ol.

C. Bu hasharotlar hammaga zarar keltiradi, shuning uchun ularga qarshi kurashish lozim

D. Musobaqaga hamma kelishdi, faqat o'qituvchimiz betoblighi sababli kela olmadilar.

75. Qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

A. Tashqarida bo'ron uvillaydi, shamolda chayqalgan daraxtlar vahimali shovillaydi.

B. Munisa o'qituvchimizga kulib turib, hozir kelaman dedi .

C. Yurtimiz farzandlaridan fahrlanamiz, ular bizning kelajagimiz!

D. Gulnoz uyga kirib ketsa ham, xonasning chirog'i yoqilmadi.

76. „-lar’’ ko'plik qo'shimchasini olgan „bobomlar, akamlar, oyimlar’’ so'zlari qanday ma'noni ifodalaydi?

A. Ajratish-takidlash. B. His-hayajon. C. Hurmat. D. Takalluf.

77. Yo biron daydi o'q tegishi, yo birortasi tanib qolishi mumkin edi. Berilgan ushbu gap qanday gap?

A. Sodda gap B. Bog'langan qo'shma gap C. Bog'lovchisiz qo'shma gap
D. Ergashgan qo'shma gap

78. O'g'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, shuning uchun to'g'ri so'z-la tilingni beza. Berilgan ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A. Sodda gap B. Bog'langan qo'shma gap
C. Bog'lovchisiz qo'shma gap D. Ergashgan qo'shma gap

79. Qisimlari ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar qo'shma gaplarning qaysi turiga kiradi?

A. Bog'langan qo'shma gap B. Ergashgan qo'shma gap
C. Bog'lovchisiz qo'shma gap D. A va B javoblar to'g'ri

80. Berilgan gap turini aniqlang.

Ilm qog'ozga yozish-chizish bilan emas, balki o'qimoq va uqmoq bilandir

A. Ergashgan qo'shma gap B. Ohang bog'langan qo'shma gap
C. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap D. Teng bog'lovchili bog'langan qo'shma gap

81. Undalmali gap qaysi qatorda berilgan?

A. Agar hayot bog'bon bo'lsa, sarbon muallim. B. Tartib-imtizom maktabi -
oila C. Haqiqatni ochinglar, to'g'ri yo'ldan yuringlar. D. Kel, o'g'lon, bir
bag'ringa bosay

82. "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadigan o'rinli hayoti til va
adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur..."

Berilgan fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?

- A) A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq"
- B) Y. X. Hojib. "Qutadg'u bilig"
- C) A. Hojiyev. "O'zbek tili sinonimlari lug'ati"
- D) M. Koshg'ariy. "Devonu lug'otit turk"

83. Nutqning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlarning asosiylari
qaysi qatorda to'liq ko'rsatilgan?

- A) to'g'rilik, aniqlik, soflik, ilmiylik, madaniylik, boylik
- B) mantiqiylik, aniqlik, ifodalilik, boylik, g'alizlik, soflik
- C) to'g'rilik, ifodalilik, boylik, g'alizlik, ilmiylik, madaniylik
- D) to'g'rilik, aniqlik, soflik, ifodalilik, mantiqiylik, boylik

84. Barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini nima bajaradi?

- A) nutqning aniqligi B) nutqning mantiqiyligi
- C) nutqning to'g'riligi D) nutqning sofliqi

85. ... mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy
an'analarga suyanagan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli
davlat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Nuqtalar o'niga kerakli jumlani
qo'ying.

- A) punktuatsion me'yorlar B) imlo me'yorlari
- C) ilmiy me'yorlar D) nutq madaniyati

86. Muayyan estetik maqsad adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari
qayerda uchraydi?

- A) Og'zaki so'zlashuvda B) ilmiy uslubdagi adabiyotda
- C) Badiiy adabiyotda D) Bunday holat uchramaydi.

87. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" kitobining muallifi kim?

- A) Azim Hojiyev B) Nizomiddin Mahmudov

C)Alibek Rustamov D)Shavkat Rahmatullayev

88.Nutq madaniyatining nechta bosqichi farqlanadi?

A)2 ta B)3 ta C)4 ta D) 1 ta

89.Sharqdan esadigan yel nima deb ataladi?

A)Shabboda B)shamol C)sabo D)samum

90.Istifoda soʻzining izohi toʻgʻri berilgan qatorni toping.

A)Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning boshlanish davri

B)Foydalanish, ishlatish

C) Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning tugash davri

D)Butunni tashkil etgan murakkab narsaning tarkibiy qismi

91.Bir narsa sifatlarining ogʻzaki yoki yozma bayoni nima?

A) tavsif B)tasvir C)yozma nutq D)timsol

92. “Oʻlkamizga bahor keldi va dalalar,adirlar yashil libos bilan burkandi.” gapi qoʻshma gaplarning qaysi turiga kiradi?

A) Ergashgan qoʻshma gap B) Bogʻlovchisiz qoʻshma gap

D) Bogʻlangan qoʻshma gap E) Koʻchirma gapli qoʻshma gap

93. Qismlari teng bogʻlovchilar yordamida bogʻlangan qoʻshma gaplar qanday qoʻshma gap sanaladi?

A) Ergashgan qoʻshma gap B) Bogʻlangan qoʻshma gap

D) Bogʻlovchisiz qoʻshma gap E) A va B javoblar

94. Qismlari boʻlsa,esa soʻzlari yordamida qoʻshma gapning qaysi turi hosil boʻladi?

A) Ergashgan qoʻshma gap B)Bogʻlovchisiz qoʻshma gap

D)Bogʻlangan qoʻshma gap E)Koʻchirma gapli qoʻshma gap

95. Bogʻlangan qoʻshma gapning payt,sabab,natija munosabati ifodalangan qismlarni qaysi bogʻlovchilar boʻgʻlab keladi?

A)Biriktiruv bogʻlovchi B)Zidlov bogʻlovchi D)Ayiruv bogʻlovchi E)Inkor bogʻlovchi

96. Nisbiy soʻzlar ishtirokida qanday qoʻshma gaplar hosil boʻladi?

A) Bogʻlangan qoʻshma gap B)Ergashgan qoʻshma gap

D) Bog'lovchisiz qo'shma gap E) A va D javoblar

97. Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar qanday qo'shma gap sanaladi?

A) Bog'langan qo'shma gap B) Bog'lovchisiz qo'shma gap

D) Ergashgan qo'shma gap E) A va B javoblar

98. Olim bo'lsang, olam seniki gapining qismlari qanday bog'lovchi vosita bilan bog'langan?

A) Teng bog'lovchi yordamida B) Ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida

D) Yuklama yordamida E) Shart mayli qo'shimchasi yordamida

99. Kunlar ilib qolgan, ammo yerdan hali qishning zahri ketmagan gapi bog'langan qo'shma gaplarning qaysi turiga kiradi?

A) Biriktiruv bog'lovchili B) Zidlov bog'lovchili D) Ayiruv bog'lovchili
E) Inkori bog'lovchili

100. O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A) Bog'lovchisiz qo'shma gap B) Bog'langan qo'shma gap

D) Ergashgan qo'shma gap E) Ko'chirma gapli qo'shma gap

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva Onatili (darslik) MOLIYA- IQTISOD, Toshkent, 2007-yil. 81.633.1 0-56 y-6793(10 ta)

2. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev Ona tilidan mashqlar to'plami (o'quv qo'llanma) TDPU, Toshkent, 2009-yil 81.633.1 II 37 921994 (60 ta)

5. Adilova S. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (Oliy ta'lim muassasalarining rusiy zabon guruhlarida): ped fan nomz. ...diss. – T.: 2004. - 160 b.

6. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topiriqlardan foydalanish: ped. fan. nomz. diss avtoref. – T.: 1997. – B. 10-11.

7. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'ychieva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: 2004. 89-bet

8. Dexkanova M.U. Ta'lim jarayonida noan'anaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullari. // Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: 2006. - № 1. - B. 11.

9. Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzlüksiz ta'lim. – T.: 2005. 5-son, - 16-17 b.
10. Imomova E., Shodieva K. Darsda qo'llaniladigan o'yinlar // Xalq ta'limi. - 1990. -№ 2. –B. 46.
11. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU, 2004.
12. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T. Fan va texnologiya. 2009. 348-b.
13. Yo'ldoshev J. va boshqalar. Zamonaviy dars. – Toshkent, 2007.
14. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.-104 bet.
15. Yo'ldosheva N. Ona tili darslarida o'yin va boshqotirmalardan foydalanish // Xalq ta'limi. -1991. -№ 3. –B. 42-45.
16. Yo'ldoshev I., Mirzarahimova M. Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. – Toshkent. 2006. -6 b.
17. Mahmudov M. Bolalarning o'quv maqsadlari – ta'limni ilmiy loyihalash omili // Xalq ta'limi. -2002. -5. –B. 49.
18. Mahmudov N. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash muammolari. //O'zbek tili o'qitishning doimiy ilmiy-metodik anjumani materiallar. – Qarshi 1993.
19. Mirzaahmedov M.A., Narmanov A.J. Uzlüksiz ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Uzlüksiz ta'lim. - 2004. 5-son.- 48-bet.
20. Najmiddinova M. Ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati. // Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: 2006. B. 21.
21. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.
22. Umarova N. Til ta'limi va ta'limiy-elektron ishlanmalar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2005. - № 6. - B.75-79.
23. Usmonova Z. Adabiyot o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.// Til va adabiyot ta'limi.- 2005 3-son. –B.20-22.
24. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
25. Tolipova R. O'zbek tilini o'rganishda o'yin usullari. //Til va adabiyot ta'limi. - 1993. -№4. –B. 34-35.

26. To‘ychieva Y. Xatosini toping. // Xalq ta’limi. - 1990. -№2. – B. 46-47.
27. Turg‘unboev K., Rizayev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Andijon: “Andijon” nashriyot-matbaa, 2008.
28. Yuldasheva Sh. Akademik litseylarda davlat tilini o‘qitish. Metodik qo‘llanma. –T.:Fan, 2007. 13-15-b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

29. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-“O‘zbekiston” -2016.56 B.
- 30.Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-“O‘zbekiston” -2016.488 b.
31. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent - “O‘zbekiston” -2016.488 b.
32. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent -“O‘zbekiston” - 2017.104 b.
33. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS.2010.
- 34.H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
- 35.Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006,“Universitet” nashriyoti.
- 36.M.Hamrayev. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. “Sharq” NMAK, 2015.

Internet saytlari

www.pedagog.uz

<http://www.google.com.uz/>

<http://www.edu.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.referat.uz/>

Sharipova Maxbuba Baxshillovna

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

M.Raximov

Sahifalovchi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 02.02.2024. Bichimi 60x84. Kengli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 11 Adadi 10. Buyurtma № 26.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46